

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

4

ISSUE-3



*Journal of new  
century innovations*

## AREAS

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences



Google  
Scholar



WSRjournal.com



# JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS

## IN ALL AREAS



**ICI** JOURNALS  
MASTER LIST

O'RTA SINF O'QUVCHILARINING MAZMUNGA ASOSLANGAN  
O'QITISH ORQALI INGIZ TILINI O'RGANISHGA UNDASH

*Yahyoyeva Odinaxon Nomonjon qizi  
Samarqand Davlat chet tillar instituti  
magistratura bo'limi xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
21.06 - guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “O'rta sinf o'quvchilarining mazmunga asoslangan o'qitish orqali ingiz tilini o'rganishga undash” mavzusi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Talaffuz, metodika, artikel, grammatika, predmet.

Zamonaviy chet tili darsiga qo'yilgan asosiy metodik talablarni ma'lum bir sinf o'quvchilarining chet tili o'rganish darajasini, ularni chet tili predmetiga bo'lgan munosabatini bilish rejaltirishdan kozlangan o'quv samaradorligini oshirishga yordam beradi

O'rta maktablarda talaffuzni o'rganishda o'quvchilar talaygina qiyinchiliklarga duch keladilar. Jumladan: [θ] va [ð] tovushlarini o'rganishda deyarli barcha o'quvchilar qiynaladilar. Bunga sabab o'zbek tilida tish oralig'i tovushlarining yo'qligi. Bizning bolalarimiz tili bu tovushlarning talaffuziga ko'nikma xosil qilmagan. [r] tovushining ingliz tilidagi talaffuzi ozbek tilidagi p dan farq qilgani uchun o'quvchilar bu tovush talaffuzida ham qiynaladilar. [t, d] tovushlarining talaffuzi ham ikkala tilda bir xil emas. Shuning uchun ularning talaffuz etilshi ham ba'zi o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. [w] tovushi ham o'zbek tilida mavjud emas. Bu tovushni to'g'ri talaffuz qilishda ham o'quvchilar bir oz qiyinchiliklarga duch keladilar. Uni talaffuz etishda o'zbek tilidagi [v] bilan adashtiradilar. Yuqorida keltirilgan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish uchun o'qituvchi tilning joylashuvini imkon qadar amalda ko'rsatib bolalarga aniq tushuntirib berib, takrorlash mashqlari orqali muntazam tekshirib, o'quvchilarning talaffuziga har dars alohida e'tibor berib borsa, mazkur tovushlardagi qiyinchiliklar ham bartaraf etiladi.

Bundan tashqari quyidagi holatlar ham o'quvchilar uchun fonetik qiyinchiliklarni yaratadi: e harfining so'z ohirida talaffuz etilmasligi — apple, Pete; gh harf birikmasining so'z o'rtasida o'qilmasligi — eight, night; k harfining so'z boshida n dan oldin talaffuz etilmasligi — knock, knee va bir qator boshqa qiyinchiliklarni kuzatish mumkin. Tajribamga tayanib shuni ayta olamanki, o'zbek o'quvchilarning aksariyat qismiga xos bo'lgan qiyinchilik bu ko'plik yoki zamon yasovchi qo'shimchalar qo'shilgandagi talaffuzida suffikslardan oldin [θ] tovushini qoshib talaffuz etishlaridir: books [bu'kθs], happened [hæpθ'nθd]. Ko'rinish turibdiki, bunday keraksiz tovushni qo'shish orqali ular so'z urg'usining ham o'rnini o'zgartirmoqdalar. O'quvchilarning transkripsiyanı o'qiy olmasliklari ham alohida bir muammodir. So'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish tovushlarni ifodalovchi belgilarni ham o'rgatish lozim. O'rta maktablarda ingliz tili o'rgatishda uchraydigan grammatik qiyinchiliklar xususida gapirilganda, o'quvchilar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlarini aytish joiz. Kishi tilidagi hamma so'zlarni bilsayu, gaplar, so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni bilmasa, u nutqning mazmunini tushunishga qiynaladi. Shuning uchun o'rta maktablarda o'quvchilarga grammatikani o'rgatish judayam muhimdir. Agar o'quvchi grammatik ko'nikmalarni yaxshi egallamagan bo'lsa, u o'z fikrini to'g'ri bayon eta olmaydi. Gapirishda, yozishda va tarjimada qiynaladi. Til grammatikasi o'ziga xos murakkab sistemadir. Shuning uchun ham uni o'zlashtirish oson emas. Maktab o'quvchilari quyidagi qiyinchiliklarga odatda duch keladilar: Artikl muammozi. Buni grammatika o'rganishdagi eng katta muammo desa ham bo'ladi. Ko'pchilik ingliz tili o'rganuvchilar bilan suhbatlashib ko'rganimizda, deyarli hammalari ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishlarida asosan artikl va zamonlar qiyinchilik tug'dirishini aytganlar. Darhaqiqat, o'zbek tilida aynan artikl so'z turkumi bo'lmasani uchun uni qo'llashda va tarjima qilishda qiynaladilar. Artikl qoidalarni yod olish kerak. Biroq qoidalardagi talaygina istisno holatlari o'rganuvchilarga, ayniqsa maktab yoshdagilarga, uni o'zlashtirishni murakkablashtiradi. Tarjimasi aniqroq qilib o'rgatilsa, o'quvchilar artiklni qo'llashda ko'p qiyinchiliklarga uchramaydilar. Masalan: noaniq artikl bir, qandaydir bir deb, aniq artikl esa o'sha,

haligi deb tarjima qilinadi deb o'rgatish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, artiklning ishlatalish holatlarini bolalarga misollar yordamida qayta-qayta tushuntirilsa, ingliz tilidagi bu yordamchi so'z turkumini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirib bartaraf etsa bo'ladi. Ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklardan yana biri predloglardir. O'zbek tilida predloglar kelishik qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa kelishik qo'shimchalari predloglar orqali ifodalanadi. Jumladan, o'zbek tilidagi o'rinn-payt kelishigi, ingliz tilida in, on, at predloglari bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: in — in January, in 2015, in a week on — on Monday, on January 15, on birthday at — at the weekend, at 10 o'clock O'rinn payt kelishigining qo'shimchasi, o'rinn joyni bildirganda ham ingliz tilida yuqoridagi predloglardan foydalanamiz. Masalan: in — in Uzbekistan, in Madrid, in our week on — on the sofa, on the table at — at the station, at school ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibining o'xshash emasligi. Ma'lumki, ingliz tilida so'z tartibi qat'iydir, aksariyat hollarda darak gap boshida doim ega turadi ketidan esa kesim keladi. O'zbek tilida esa gap bo'laklari o'rnini almashtirsak ham ma'nosi o'zgarmaydi. Tarjimada esa o'quvchilar qiyinchiliklarga uchraydilar. Metodistlar fikriga ko'ra, ingiliz tili grammatikasini o'rgatishda, avvalambor, grammatika minimumini to'g'ri tanlash va ingliz tili grammatikasini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Ingiliz tili grmmatikasini o'ziga xos qiyinchliklari va xususiyatlari quydagilar: ingiliz tilidagi noto'g'ri fe'llar mavjudligi, ingliz tilidagi gap qurilishni qat'iyligi, ingliz tilidagi artikillar, predlog va zamonlarning ko'pligidir. Shu kabi xususiyatlar ingliz tili grammatikasini o'zbek tili grammtikasidan farqlaydi. J. Jalolov fikriga ko'ra, grammatikani o'quvchilarga o'rgatishda asosan ikkita yo'ldan foydalanishimiz mumkin: 1. Induktiv. 2. Diduktiv. Induktiv usulda o'quvchilarga avval qoida so'ngra esa misol beriladi. Diduktiv usulda esa avval misol so'ngra qoida beriladi. Maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda avvalo bolalar uchun rang-baranglikka e'tibor berishimiz zarur. Rasmlar asosida yoki qo'shiq va she'rlar orqali ham ingliz tili grammatikasini o'rgatishimiz mumkin. Maktablarda kuzatilayotgan muammolar qatorida o'quvchida darsga nisbatan passivlik, zerikish, diqqatni jamlay olmaslik kabi jihatlar ham mavjud. Ingliz tilini o'rgatishdagi leksik

qiyinchiliklarga kelsak, ular quyidagilar: ingliz tilidagi deyarli barcha so'zlar turli ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bir so'z birdan oshiq ma'noni anglatadi. M. Norovaning ta'kidlashicha, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23ta ma'noni berar ekan. Ingliz tili lug'atining ma'lum qismi boshqa tillardan kirib kelganligi; Ingliz tilining idiomalarga boyligi hamda bir qancha boshqalar Xulosa qilib aytganda, chet til o'rghanishda qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy, albatta. O'qituvchilar o'quvchilarning qayerda qanday qiyinchiliklarga uchrayotganliklarini kuzatib borib uni bartaraf etish yollarini topib o'quvchilarga yengillik yaratib borishlari darkor. Zero, til materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar nutq faoliyatlarining barcha turlarida ko'nikma xosil qilishlariga to'sqinlik qiladi. Адабиётлар: A. Karimov. ona yurtimiz baxtu iqbol va buyk kelajagi yo'lida hizmat qilish — eng oliv saodatdir. T. O'zbekiston. 2015. Mehri Norova. Tarjimada leksik birlik va leksik transformatsiyning qo'llanilishi. Maqola 2-bet.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Мухаммаджонов, Ф. М. O'rtta maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rghanishda duch keladigan qiyinchiliklari /
2. Ф. М. Мухаммаджонов, Д. Р. Юсупова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 3.1 (107.1). — С. 48-50. — URL: <https://moluch.ru/archive/107/25687/> (дата обращения: 01.05.2022).
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: «Yangi asr avlod», 2002.
4. M.Sharifxo'jayev. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. - T.: «Sharq» nashriyoti, 2004, 259-bet.
5. E.Vohidov «Hikmatnoma». - T.: 1990. 3-bet.
6. Sh.Qurbanov Mustaqillik poydevori. «Xalq ta'limi» jumali. 2003, №5. 4-13-betlar.
7. Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1998, 144-b.
8. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (Sinfdan va mакtabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiysi). - T.: «Sharq», 2000.327-b.

**МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОХОЖДЕНИЯ ПРОТОНОВ С ЭНЕРГИЕЙ 60  
МЭВ ЧЕРЕЗ ТКАНЕЭКВИВАЛЕНТНЫЕ МАТЕРИАЛЫ МЕТОДОМ  
МОНТЕ- КАРЛО**

<sup>7</sup>Мицин А.В.,<sup>1,4</sup>Бозоров Э. Х.,<sup>1,4</sup>Астанакулов Р.,<sup>2</sup>Хожиев Ш.Э.,  
<sup>1,4</sup>Курбанбаев С.Х.,<sup>1,4</sup>Шамсуддинов А.М.,<sup>5</sup>Хазратов Д.М.,<sup>5</sup>Эшбуриев Р.М.,  
<sup>2</sup>Хожиева М.Э.,<sup>3</sup>Каландарова Д.А.,<sup>4,6</sup>Эргашев А,<sup>2</sup>Мусурмонкулов  
Ж.,<sup>1,4</sup>Хамиджанов Ж.Р.<sup>8</sup>Каримов Ш.П.,<sup>8</sup>Мусаев Д.

1-Национальный Университет Узбекистана им. М. Улугбека, г. Ташкент

2-Ташкентский педиатрический медицинский институт, г. Ташкент

3-Ташкентский институт усовершенствования врачей, г. Ташкент

4-Институт Ядерной физики АНРУз г. Ташкент

5-Самаркандинский государственный университет, Узбекистан

6-Самаркандинский медицинский институт , Узбекистан

7-Объединенный институт ядерных исследований г.Дубна,Россия

8-Республика Онкология ва радиология илмий маркази , г. Ташкент

**Аннотация.** Эта статья основана на облучении рака при протонной терапии с использованием метода Монте-Карло и содержит подробную информацию о методе Монте-Карло.

**Ключевые слова:** PTV, CTV, G4ParticleDefinition, G4DynamicParticle

**SIMULATION OF THE PASSAGE OF PROTONS WITH AN ENERGY  
OF 60 MEV THROUGH TISSUE-EQUIVALENT MATERIALS BY THE  
MONTE CARLO METHOD**

<sup>7</sup>Mitsin.A.V.,<sup>1,4</sup>Bozorov E.X.,<sup>1,4</sup>Astanakulov P.,<sup>2</sup>Xoziyev. Sh. E.,  
<sup>1,4</sup>Kurbanbayev S.X.,<sup>1,4</sup>Shamsuddinov A.M.,<sup>5</sup>Xazratov D.M.,<sup>5</sup>Eshburiyev R.M.,  
<sup>2</sup>Xoziyeva M.E.,<sup>2</sup>Kalandarova D.A.,<sup>4,6</sup>Ergashev A.,<sup>2</sup>Musurmonkulov J.,  
<sup>1,4</sup>Xamidjanov J.R.,<sup>8</sup>Karimov Sh.P.,<sup>8</sup>Musayev D.

1-National university of Uzbekistan,  
2-Tashkent Pediatric Medical Institute,  
3-Center for the Development of Professional Qualification of Medical Workers,  
4-Institute of Nuclear Physics of the Academy of Sciences of the Republic of  
Uzbekistan (Tashkent),  
5-Samarkand State University, Uzbekistan,  
6-Samarkand Medical Institute, Uzbekistan,  
7-Joint Institute for Nuclear Research, Dubna, Russia,  
8-Republican Scientific Center of Oncology and Radiology,Tashkent.

**Abstract.** This article is based on irradiation of cancer with proton therapy using the Monte Carlo method and provides detailed information about the Monte Carlo method.

**Keywords:** PTV, CTV, G4ParticleDefinition, G4DynamicParticle

Лучевая терапия (ЛТ) злокачественных новообразований занимает особое место среди наиболее востребованных методов лечения онкологических заболеваний. В развитых странах в 70% случаев лечение онкологических больных происходит с применением методов лучевойтерапии.

Задача ЛТ состоит в создании равномерного распределения поглощенной дозы в области, которая определена врачом-радиологом как клинический (патологический) объем (CTV, clinical target volume). В связи с тем, что в процессе получения информации о внутренней анатомии пациента, определении CTV, укладки пациента, расчета дозы, калибровки оборудования возможны разнообразные неточности, необходимо прибавлять к CTV некий отступ. Результирующий облучаемый объем носит название планируемого объема мишени (PTV, planning target volume). По мировым стандартам PTV должно получать дозу в пределах 90%–107% от предписанной, а CTV – в пределах 95–107% [1]. При этом соседние здоровые ткани и органы риска должны получить дозу меньшую или равную толерантной (доза, при облучении которой в данном органе или ткани не возникает серьезных лучевых последствий).

Известно, что в силу характера взаимодействия фотонов с веществом, в большом ряде случаев оказывается невозможным соблюдение этих условий. Даже при использовании наиболее совершенных методов фотонной ЛТ, при которых конформность (ситуация, когда форма 90÷95% изодозы максимально приближена к форме опухоли) связана с увеличением числа направлений входа пучка, облучение здоровых тканей производится хотя и в дозах ниже толерантных, однако объем здоровой ткани, получающей малую дозу значителен.

В тоже время, эти условия могут быть выполнены применением протонов и более тяжелых ионов. При прохождении через вещество протоны слабо рассеиваются. Поглощенная доза возрастает по направлению пучка и имеет резкий максимум в конце пробега (так называемый «пик Брэгга» для заряженных частиц). Регулируя энергетический спектр пучка, можно подобрать его так, чтобы модифицированный расширенный пик Брэгга полностью и равномерно покрыл весь объем облучаемой мишени. Узкий максимум глубинного распределения поглощенной дозы моноэнергетического пучка (пика Брэгга) делает возможным облучение чрезвычайно малых объемов с дозой, в несколько раз превышающей дозу на входе в ткань. При этом практически полностью исключается облучение за пределами максимального пробега частиц.

В случае онкологических новообразований органа зрения, когда опухоль расположена в непосредственной близости от зрительного нерва, макулы и других структур глаза, облучение которых крайне нежелательно и, к примеру, может привести к потере зрения, метод протонной терапии является практически безальтернативным. Для достижения высокого градиента дозы в области между опухолью и зрительным нервом в случае фотонной терапии необходимо облучение ротационными методами. Но в таком случае, как уже было отмечено, в малой дозе облучается весь головной мозг, что может приводить к негативным последствиям, особенно в молодом и детском возрасте [2]. Методы аппликационной брахитерапии можно применять лишь для лечения опухолей очень малых размеров в связи с особенностями

распределения дозы от применяющихся источников.

Прекрасные результаты протонной лучевой терапии (ПЛТ) в онкоофтальмологии, полученные за последние несколько десятилетий (95-97% локального контроля [3]), подтверждают необходимость развития центров протонной терапии.

Разрабатываемый ФГБУ(ФЕДЕРАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ БЮДЖЕТНОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ «ПЕТЕРБУРГСКИЙ ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ ИМ. Б.П. КОНСТАНТИНОВА» НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ЦЕНТРА «КУРЧАТОВСКИЙ ИСТИТУТ»)

“ПИЯФ” протонный онкоофтальмологический комплекс на базе изохронного циклотрона Ц-80 рассматривается в качестве одного из пилотных проектов развития этого направления. В связи с высокими требованиями, предъявляемыми к качеству терапевтических пучков, создание системы для формирования дозного распределения в пациенте с параметрами, необходимыми для лечения онкоофтальмологических заболеваний, представляет собой сложную задачу. Необходимым этапом ее решения является математическое моделирование с целью определения состава и параметров основных узлов системы и дозного распределения в фантоме. Моделирование таких систем позволяет также выработать критерии и определить требования к характеристикам входного пучка протонов, а также оценить возможности создаваемого комплекса на этапе его конструирования. Следует иметь в виду, что результат облучения тканей определяется биологической, а не поглощенной дозой. В связи с этим необходимо рассчитать пространственное распределение биологической дозы с учетом относительной биологической эффективности протонов. Все вышесказанное определяет актуальность темы данной работы.

**Цель данной работы** состояла в разработке оптимальной, т.е. эффективной с точки зрения задач лучевой терапии и безопасной как для пациента, так и для персонала, системы формирования дозного распределения с параметрами, необходимыми для протонной терапии онкоофтальмологических заболеваний на базе ускорителя протонов Ц-80.

Для достижения поставленной цели определены следующие **задачи**:

1. Оценить методы формирования и применяющееся оборудование в центрах протонной онкоофтальмологии в мире.
2. Выбрать среду разработки и провести её тестирование.
3. Разработать математическую модель системы, позволяющую сформировать дозные распределения в пациенте с параметрами, необходимыми для лечения онкоофтальмологических заболеваний.
4. Разработать математические модели и необходимые программные решения для расчета конструктивных параметров узлов системы формирования дозного поля, а также тестирования дополнительного оборудования, применяющегося при протонной онкоофтальмологии.
5. Рассчитать пространственное распределение биологической дозы с учетом относительной биологической эффективности (ОБЭ) протонов.
6. Провести анализ аспектов системы контроля качества для ввода в эксплуатацию и клинического применения комплекса протонной лучевой терапии.

### **Математическая модель экспериментальной установки**

#### **Метод Монте-Карло**

Наиболее достоверным методом для исследования процессов прохождения излучения через вещество является метод Монте-Карло (метод статистических испытаний). Это численный метод решения математических задач при помощи моделирования случайных величин. Метод Монте-Карло позволяет моделировать любой процесс, на протекание которого влияют случайные факторы [1.]. Предположим, что необходимо найти значение  $a$  некоторого параметра. Для этого выбирают такую случайную величину  $X$ , математическое ожидание которой равно  $a$ :  $M(X)=a$ . В компьютерном

моделировании для запуска метода для имитации данных из изучаемой генеральной совокупности генерируются псевдослучайные числа. При решении физических задач методом Монте-Карло каждому физическому

явлению ставится в соответствие имитирующий вероятностный процесс, отражающий его динамику. В случае взаимодействия частиц с веществом вероятность физического процесса пропорциональна его вкладу в полное сечение взаимодействия.

В итоге, метод Монте-Карло в задачах переноса частиц в веществе сводится к пошаговому моделированию (трассировке) движения частицы в объеме с заданными характеристиками. Свободный пробег, результат

столкновения, а также характеристики первичной и вторичных частиц после столкновения разыгрываются из соответствующих вероятностных распределений, описываемых дифференциальными сечениями соответствующих элементарных процессов. При этом значения дифференциальных сечений взаимодействий могут быть как экспериментальными, так и теоретически рассчитанными.

Одной из наиболее известных и широко используемых программ расчета прохождения излучения через вещество, основанных на методе Монте-Карло, является программа Geant4 (акроним от английских слов «**G**eometry **A**nd **T**racking») [2.], созданная в CERN [3.]. Geant4 является открытым ресурсом и имеет большой набор примеров. Примеры, предложенные в Geant4, помогают решать задачи из широкого круга областей физики, в том числе довольно сильно развиты различного рода медицинские применения. Для задания необходимых конфигураций используется язык программирования C++. Преимущество объектно-ориентированного языка C++ заключается в его гибкости. Весь спектр функциональных возможностей разбит на классы, каждый из которых решает свою конкретную задачу. Наследование классов дает возможность использовать уже готовый блок, решающий определенную задачу, неповторяя алгоритм заново.

Geant4 представляет собой набор библиотек классов, написанных на языке C++:

1. Класс G4ParticleDefinition описывает тип и свойства используемых частиц: масса, спин, моды распада и т.д. Класс G4DynamicParticle описывает динамические характеристики частиц: энергия, импульс, поляризация и т.д.

2. Класс G4PrimaryGeneratorAction отвечает за генерацию первичных частиц.

3. Базовый класс G4PhysicsList позволяет описывать физические процессы, обуславливающие взаимодействие частиц.

4. Класс G4Event содержит информацию о каждом событии в процессе моделирования. А класс G4Step позволяет получить информацию о каждом шаге моделирования.

5. Задание геометрии и материала системы осуществляется в G4DetectorConstruction.

6. Класс G4SensitiveDetector позволяет назначить какой-либо из объемов, присутствующих в моделировании, чувствительным, т.е. позволяющим получать информацию о свойствах проходящих частиц и вызванном при их прохождение действии.


### **Модель виртуальной экспериментальной установки**

Как было показано в ранних работах пучок, вышедший из ускорителя, до попадания в опухоль должен быть сформирован соответствующим образом. Основываясь на накопленном в области протонной терапии мировом опыте [4. 5.] была смоделирована исходная система для формирования изодозных распределений в фантоме для применения в офтальмологии, представленная на рисунке 2.1. и в таблице 2.1.

Она состоит из трех основных частей: рассеивающей системы, модулятора энергии, системы коллиматоров.

Вся система расположена в воздухе. Пучок выходит из некоторого вакуумированного объема, который имитирует выход ускорителя. В качестве материала для выходного окна был выбран каптон (стабилен при максимальной температуре  $+400^{\circ}\text{C}$ , радиационная стойкость  $10^4$  ГР) толщиной 40 мкм. Рассеивающая система представляет собой две фольги из tantalа. Одна из них находится перед выходным окном, а вторая за ним. Поглотитель центральной части пучка в виде цилиндра, находящийся непосредственно перед вторым рассеивателем, выполнен из латуни (на рисунке красный квадрат, не подписан). Толщины рассеивающих фольг и

размеры поглотителя центральной части пучка подбирались в соответствии с рекомендациями, изложенными в [5.]



**Рисунок 2.1.** Схема экспериментальной виртуальной установки

После рассеивающих фольг, в поглотителе, при необходимости, происходит уменьшение энергии пучка. В пункте 1.4.1. были описаны преимущества и недостатки различных поглотителей энергии. Наиболее удобным является водный деградер, поэтому здесь в качестве поглотителя использована вода. Для простоты поглотитель сделан в форме параллелепипеда.

Цилиндрические коллиматоры, расположенные на входе и выходе модуляторного бокса, выполнены из полиметилметакрилата (ПММА). Внутри модуляторного бокса, выполненного из алюминия, расположен гребенчатый фильтр в виде крыла, материалом которого также является ПММА. Создание модулятора в Geant4 одна из самых сложных математических задач в данном применении. Такая же задача стояла и была принципиально решена группой исследователей из CATANA (Centro di AdroTerapia ed Applicazioni Nucleari Avanzate, Catania, Italy) [7.].

| Название элемента системы     | Материал               | Геометрическая форма       | Расстояние до поверхности фантома, мм | Геометрические размеры, мм * |
|-------------------------------|------------------------|----------------------------|---------------------------------------|------------------------------|
| Вакуумированный объем         | Вакуум                 | Цилиндр                    | -2800<br>(край: -1800)                | 0'50'2000                    |
| 1я рассеивающая фольга        | Тантал                 | Цилиндр                    | -3790                                 | 0'50'0.02                    |
| Выходное окно                 | Каптон                 | Цилиндр                    | -1800                                 | 0'50'0.04                    |
| Поглотитель                   | Латунь                 | Цилиндр                    | -1450                                 | 0'2'7                        |
| 2я рассеивающая фольга        | Тантал                 | Цилиндр                    | -1446.5075                            | 0'50'0.015                   |
| Коллиматор 1                  | ПММА                   | Параллелепипед             | -1425.5                               | 200'200'40                   |
| Отверстие коллиматора 1       |                        | Цилиндр                    |                                       | 0'15'40                      |
| Модуляторный бокс             | Алюминий               | Параллелепипед             | -1115                                 | 200'200'560                  |
| Отверстие модуляторного бокса |                        | Цилиндр                    |                                       | 0'36'10 **                   |
| Гребенчатый фильтр            | ПММА                   | Набор цилиндрических слоев | -1115                                 | См. главу 3                  |
| Коллиматор 2                  | ПММА                   | Параллелепипед             | -800                                  | 200'200'40                   |
| Отверстие коллиматора 2       |                        | Цилиндр                    |                                       | 0'15'40                      |
| Детектирующая система         | Многослойная структура | Параллелепипед             | -410                                  | —                            |
| Латунная трубка               | Латунь                 | Цилиндр                    | -200                                  | 18'25'360                    |
| Финальный коллиматор          | Латунь                 | Цилиндр                    |                                       | (8-15)'21.5'8                |
| Фантом                        | Вода                   | Параллелепипед             | 200                                   | 400'400'400                  |
| Чувствительный объем          | Вода                   | Параллелепипед             | 20                                    | 40'40'40                     |

**Таблица 2.1.** Параметры системы транспортировки пучка

## **Литературы**

1. Stroom J., Heijmen B. Safety Margins for Geometric Uncertainties in Radiotherapy and the ICRU-62 report // Radiother. Oncol. 2002, Vol. 64, pp. 75– 83.
2. Paganetti H. Proton Therapy Physics Boca Raton. Boca Raton : CRC Press, 2012. p. 651.
3. Gragoudas E.S., Long-term risk of local failure after proton therapy for choroidal/ciliary body melanoma // Trans. Am. Ophthalmol. Soc. 2002, Vol. 100, pp. 43– 50.
4. Соболь И.М. Метод Монте-Карло. М. : Наука, 1968. стр. 63.
5. About Geant4. Geant4. [В Интернете] <http://geant4.cern.ch/>.
6. About CERN. CERN. [В интернете] <http://home.web.cern.ch/about>.
7. ICRU Report 78: Prescribing, Recording and Reporting proton-beam therapy. Bethesda : ICRU, 2007. P. 210.
8. Fontenot J. D., Newhauser W., Titt U., Design Tools for Proton Therapy Nozzles based on the Double-Scattering Foil Technique // Radiation Protection Dosimetry. 2005, Vol. 116, pp. 211–215.
9. Cirrone G. A. P., Cuttone G., Rosa F. D. Monte Carlo Based Implementation of an Energy // s.l. : IEEE, 2004. Nuclear Science Symposium Conference Record. Vol. 4, pp. 2133–2137.
10. ICRU Report 49, Stopping Powers and Ranges for Protons and Alpha Particles. 1994.

**ISLOM DININING PAYDO BO`LISHI VA KEYING  
BOSQICHLAR.O`RTA OSIYODA ISLOM DININING YOYILISHI**

**Allaberdiyev Elbek**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute tarix  
mamlakatlar va mintaqalar yo`nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Islom dini yuzaga kelishi jihatidan jahon dinlari ichida uchinchi o‘rinda turadi. Islom dini Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubi- sharqi Osiyo, Kavkaz xalqlarining tarixida nihoyatda muhim o‘rin tutadi va ayni vaqtida ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Eron, Pokiston, Afg‘oniston, Saudiya Arabiston, Liviya, Tunis, Sudan singari mamlakatlarda islom rasmiy davlat dini mavqeiga ega.

**Kalit so`zlar:** tarix,mintaqa, din,ziyo,qavm, Markaziy Osiyo,irq,millat,qavm

MDH davlatlari hududida Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ozarbayjon, Tatariston va Boshqirdiston xalqlari o‘zlarining islom dinida ekanliklarini e’tirof etishadi. Hozirgi kunda turli qit’alarda yashovchi bir milliarddan ziyod kishi irqi, millati, sinfi va tabaqaviy farqlaridan qat’i nazar, islom dini normalari va qadriyatları atrofida birlashgan hamda jahon ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o‘rinlardan birini egallaydi. Islom milodiy VII asrning boshlarida Arabiston yarimorolida paydo bo‘lgan. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashkil etgan. Islom vujudga kelishi arafasida arablar asosan chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o‘rni (hududidan G‘arb va Sharq davlatlarini bog‘lovchi karvon yo‘llari o‘tgan va uchta qit’ani tutashtirib turadi) sababli, savdosotiqlik va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yarimorolning hududida turlicha bo‘lgan. Uning bepoyon cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi arablar chorvachilik bilan shug‘ullangan. Yarimorolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta’siri kuchli edi. Karvon yo‘li o‘tgan janubi-g‘arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-

sotiq, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik va qisman hunarmandchilik rivojlangan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g‘arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV–VI asrlarda bu yerda Makka, Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo‘llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdo-sotiq tushumlari tashkil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko‘chmanchi chorvador qabilalarda urug‘-qabilaviy munosabatlarning yemirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo‘lish jarayoni kuchaygan. Arabistonning qulay geografik o‘rni, karvon yo‘llari bo‘ylab boy shahar-davlatlarning mavjudligi qudratli qo‘shti davlatlarning mintaqaga qiziqishini kuchaytirgan. VI asrning boshlarida Arabistonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Efiopiya (Habashiston) davlati yarimorolning karvon yo‘llari o‘tgan qismi (Hijoz)ni bosib olgan. Lekin Habashiston boy o‘lkada mustahkam o‘rnasha olmagan. VI asrning ikkinchi yarmida Eron Sosoniylari davlati Efiopiyani Arabistondan surib chiqargan. Arabiston Sosoniylar davlati tarkibiga kiritilgan. Sosoniylar hukmronligi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirgan. Bunga sabab ularning Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatini yanada oshirish maqsadida, Arabistondan o‘tgan janubiy karvon yo‘lini izdan chiqarishlari bo‘lgan. Oqibatda janubiy karvon yo‘li vayron qilingan. Karvon yo‘lidan kelayotgan daromad esa keskin kamaygan. Arabistonning tashqi savdo aylanmasi qisqargan va xo‘jaligi inqirozga uchragan. Arabistondagi iqtisodiy inqiroz natijasida aholining turmush darajasi keskin pasayib ketgan va ma’naviy tushkunlik yuzaga kelgan. Qabilaviy nizolar kuchaygan. Xalq orasida xaloskor mahdiyning kelishi to‘g‘risidagi rivoyat tarqalgan. Bu davr ko‘chmanchi arab qabilalari (badaviylar)ning urug‘-qabi- lachilikdan sinfiy tuzumga o‘tish davriga to‘g‘ri kelganligi sababli vaziyat yanada murakkablashgan, an’anaviy turmush tarzi va normalari buzila boshlagan. Ijtimoiy ziddiyatlar va arab qabilalarining og‘ir tanglikdan chiqish uchun markazlashgan mustaqil davlatga birlashishga intilishi kabilar kuchaygan. Buning uchun tarqoq arab qabilalarni birlashtiruvchi mafkura zarur edi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiga chiqqan.

Islomgacha Arabistonda turli xil dinlar mavjud edi. Semit qabilalari an'analariga ko'ra, Quyosh, Oy, tabiyatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig'inganlar. Har bir qabilaning o'z xudolari, totem yoki fetishlari mavjud bo'lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarshi edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a'zolarininggina birligini ta'minlagan, umumarab dini esa yo'q edi. Ibtidoiy din shakllari va ko'pxudolilik bilan birga yakkaxudolilikka asoslangan din turlari ham yoyilgan. Arablar qadimdan yakkaxudolilikka e'tiqod qilgan yahudiylar bilan yonma-yon yashaganlar. Efiopiya Arabistonning bir qismini bosib olganidan keyin xristianlik (islomgacha Efiopiyada davlat dini sifatida qabul qilingan) keng yoyila boshlagan. Sosoniylar davlati Arabistonda zardushtiylikning keng yoyilishiga shart-sharoit yaratgan. Oqibatda arablar orasida ibtidoiy din shakllari bilan birga yakkaxudolilikka sig'inuvchilarning ham soni ortib borgan. VI asrda Janubiy Arabistonda haniflar (arabchada – chinakam e'tiqod qiluvchilar, taqvodorlar degan ma'nolarni anglatadi), ya'ni yakka xudolikka da'vat etuvchilar harakati keng yoyilgan. Ularni «haniflar» deb atalganligining sababi hozirgacha aniq emas. Ayrim manbalarda harakat ishtirokchilarining ko'pchiligi «banu hanifa» urug'idan chiqqanligi bois shunday nom berilganligi qayd etiladi. Ular sanamlar, fetishlar va turli xudolarga sig'inishni qoralab, yagona xudoga sig'inishni da'vat qilganlar. Ayrim haniflar o'z xudolarini «Olloh» (arabchada – *al-iloh* yoki semit tilida – *al* yoki *el* so'zidan olingan bo'lib, xudo, Olloh degan ma'nolarni anglatadi) deb ataganlar. Haniflar harakati boshlangan davrda Olloh quraysh qabilasining sanami hisoblangan. Mazkur harakat ishtirokchilari juda ko'p bo'lган, lekin islam vujudga kelganidan keyin ular to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar deyarli yo'q qilib tashlangan. Qur'on va boshqa manbalarda Sajjoh, Tulayh, Asvad, Musaylima kabi haniflar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Haniflar o'zlarini xudoning ilohiy xabarini odamlarga yetkazuvchi vakili – payg'ambar deb ataganlar. Biroq bunday da'volar aholi orasida e'tiborsiz qolgan. Faqt Muhammad alayhissalomgina islam tarixida buyuk payg'ambar sifatida tan olingan.

Muhammad 570 yilda Makka shahrida tavallud topgan. Uning tug‘ilishi arafasida otasi, 6 yoshligida esa onasi Amina aya vafot etgan. Ota-onasidan erta judo bo‘lgan Muhammad dastlab bobosi Abd al- Mutallib tomonidan, u olamdan o‘tgach esa amakisi Abu Tolibning qo‘lida tarbiyalangan. Muhammad yoshlik chog‘idanoq amakisining savdo ishlarida yordam bergen. U mehnatkashligi, odamlarning e’tiborini qozona olishi, ularning ko‘ngliga yo‘l topa olishi va sodiqligi bilan nom qozongan. Shu bois unga «Amin» (sodiq) degan taxallus berilgan. Abu Tolib Muhammadni 21 yoshida badavlat beva xotin Hadichaga ish boshqaruvchilikka xizmatga bergen. Ko‘p vaqt o‘tmasdan u Hadichaga uylangan. Er-xotinning yoshida juda katta farq (Muhammad xotinidan 15 yosh kichik bo‘lgan) bo‘lsa-da, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbatga asoslangan mustahkam oila qurilgan. Biroq Muhammadning xotinlaridan biri Oyshaning ma’lumotiga ko‘ra, ularning yoshlaridagi farq katta bo‘lmagan. Shunga ko‘ra, Muhammad uylangan vaqtda 23 yoshda, Hadicha esa 28 yoshda bo‘lgan. Agar ularning olti farzand ko‘rganliklari hisobga olinsa, Oyshaning ma’lumoti haqiqatga yaqin bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Muhammad uylanganidan keyin savdo ishlarini davom ettirish va mulkini ko‘paytirishga harakat qilsa-da, yashashdan eng asosiy maqsad Ollohgaga xizmat qilish deb hisoblagan. Mulkiy ta’minlanganlik unga diniy ishlar bilan muntazam shug‘ullanish imkonini bergen. 610 yilda Muhammad xudodan vahiy (xudoning xohish-irodasini ifodalaydigan «haqiqat»larni odamlarga mo‘jizaviy yo‘llar bilan yetkazish) kelayotganligini aytib, arablarni yagona xudo – Olloh atrofida birlashishga da’vat etgan va insonlarni Olloh irodasiga bo‘ysunishga chaqirgan. Ma’lumki, yagona Olloh to‘g‘risidagi g‘oya, unga imon keltirgan- larning birodarligini anglatadi. Muhammadning da’vatini qabul qilganlar o‘zaro hamkorlik, bir-biriga muhabbat, ezgulik vaadolat qoidalari asosida birlashishni haqiqiy e’tiqod asoslari deb hisoblaganlar. Muhammad Ollohgaga imon keltirishga da’vat etishni boshlagan dastlabki davrlarda yangi din yaratishni da’vo qilmagan. Shunisi e’tiborga molikki, islom dini (arabchada *islom* – itoat etish, bo‘ysunish degan ma’nolarni anglatadi) tarqalishining dastlabki yillarida u Quddus shahri tomonga qarab sajda qilgan. Xristianlar va iudaizmga sig‘inuvchilarni birodarlar deb hisob-

lagan. Yahudiylar dastlab Muhammadni mahdiy sifatida qabul qilgan bo‘lsalar-da, keyinchalik uning qarashlarini tanqid qilganlar. Diniy qarashlardagi ixtiloflar sababli iudaizm va xristianlar bilan ajralish yuz bergan. Muhammad o‘z tarafdarlarini barcha diniy marosimlarni arablarning siyosiy va diniy markazi – Makka shahriga qarab bajarishga da’vat etgan. Muhammadning da’vatkorlik faoliyati dastlab katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Hatto eng yaqin qarindoshlari ham dastlab uning g‘oyasini qabul qilmaganlar. Muhammadning Makka shahridagi 12 yillik da’vatchilik faoliyati muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Makka zodagonlari uning da’vatlaridagi ijtimoiy adolat, din ahlining birodarligi, boylarning kambag‘allar foydasiga xayriya qilishlari, sudxo‘rlikning qoralanishi, axloq normalariga amal qilish kabi g‘oyalarini qabul qilmagan. Bundan tashqari, shaharda shu davrgacha nufuzi baland bo‘lmagan hoshimiylar urug‘i vakilini payg‘ambar sifatida hukmron ummaviy zodagonlari qabul qila olmas edilar. Muhammadning da’vatchilik faoliyati bilan shug‘ullanishiga qarshi turli to‘sqliar mavjud bo‘lgan. 617 yilda unga da’vatchilik bilan faqat o‘z mahallasida shug‘ullanishiga ruxsat berilgan, ammo mahalladan tashqariga chiqishi qat’yan man qilingan. 620 yilda Hadicha (xotini) va undan keyin Abu Tolib (amakisi) vafot etgan. Yaqin kishilarining madadidan mahrum bo‘lgan Muhammadning hayoti xavf ostida qolgan va u shahardan chiqib ketishga qaror qilgan. U 622 yilda (taxminan 22 yoki 24 sentabrda) to‘siquidan muvaffaqiyatli o‘tib, Yasribga (Madina) ko‘chgan. Muhammadning Yasribga ko‘chgan vaqtini halifa Umar davrida musulmon hijriy taqvimining hisobiga asos sifatida qabul qilingan. Makka shahriga muxolif yasribliklar Muhammadni qabul qilganlar (Muhammadning onasi Amina aya asli yasriblik edi). Muhammadning da’vatlarini qabul qilgan yasribliklar, anorlar, Makkadan ko‘chib kelganlar muhojirlar deb yuritilgan. Yasribda muhojirlar va anorlar musulmonlar jamoasi (arabchada «muslim» – bo‘yin eguvchi, o‘zini ollohga topshirgan) umma (ma’lum dinga e’tiqod qiluvchilar jamoasi)ga birlashgan. Musulmonlar Muhammadni payg‘ambar, diniy va dunyoviy hokimiyat rahbari sifatida tan olganlar. Muhammadning sharafiga Yasribga keyinchalik al-Madina (arabchada – *madinai noib*, ya’ni payg‘ambar shahri) degan nom berilgan. Madina

shahrida Muhammad alayhissalom rahbarligida islomga e’tiqod qiluvchilar uchun manzil – birinchi masjid qurilgan hamda islomning diniy va siyosiy mavqeini aks ettiruvchi birinchi nizom yozilgan. Bu nizomga binoan, islomga e’tiqod qiluvchi barcha kishilar bir xalq deb e’lon qilinib, o’zaro nifoq, qasos olish bekor qilingan. Musulmonlarga qo‘lda quroq bilan bir-birlarini himoya qilishlari lozimligi uqtirilgan. Barcha munozarali masalalar bo‘yicha hukm chiqarish Muhammad alayhissalom zimmasiga o‘tgan. Islom dinini qabul qilmagan mahalliy arablar, nasroniyalar va yahudiylar bilan alohida shartnomaga tuzilgan. Shunday qilib, birinchi teokratik (grekcha *teos* – xudo, *kratos* – hokimiyat degan ma’noni anglatadi) davlat vujudga kelgan. Davlat boshida yakka hokim dindor kishi bo‘lgan. Bu davlatni Ollohning yerdagi vakili – Muhammad payg‘ambar hamda uning ikki yordamchisi Abu Bakr va Umar boshqarganlar. Ular o‘z qo‘llariga nafaqat siyosiy va harbiy hokimiyatni, balki diniy ishlar, kishilarning tarbiyasi, yangi dinni tarqatish bilan bog‘liq vazifalarni ham olganlar. Shu tariqa payg‘ambarning hayoti va aytgan so‘zlari sekin-asta qonundek mavqeiga ega bo‘lib borgan. Tez orada islom dinining ta’siri Janubiy va G‘arbiy Arabistonning deyarli barcha qabilalarini qamrab olgan. Muhammad payg‘ambar tarafidori islom diniga e’tiqodni goh targ‘ibot, gohida esa kuch ishlatish yo‘li bilan qaror toptirganlar. Yirik savdo-sotiq markazi Makka shahri aholisi islom diniga hammadan ko‘p qarshilik ko‘rsatgan. 623 yildanboshlab musulmonlar makkaliklarning karvonlariga hujum qila boshlagan. Ular katta qo‘shin bilan musulmonlarga qarshi chiqqan. 624 yilda Badr shahri yonidagi jangda Muhammad rahbarligidagi qo‘shin makkaliklarni tor-mor qilgan. 625 yilda makkaliklar qo‘shini Uxud tog‘i yaqinida musulmon qismlariga katta talafot yetkazgan. Lekin makkaliklar Yasribdan chekinganlar. 628 yilda Muhammad katta qo‘shin bilan Makka shahriga yaqin kelgan. Musulmonlar qo‘shinlari Makka shahri yaqinidagi al-Xudoaybiya qishlog‘iga kelib to‘xtagan. Shaharliklar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida tinchlik shartnomasi tuzilgan. Nihoyat, Muhammad 630 yilda Makka shahrini qo‘lga oldi, ilgari unga qarshi bo‘lgan quraysh zodagonlari esa uning ittifoqchisiga aylanganlar. Muhammad garchi o‘z ona shahrida muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa-da, Madina shahriga qaytishni ma’qul ko‘rgan.

O‘limidan bir necha oy avval, u Makkaga haj qilgan. Shu davrdan e’tiboran Makka shahri islom dinining muqaddas poytaxti deb e’lon qilingan. 632 yilda Muhammad vafot etgan va o‘zi boshlagan ishni davom ettirish uchun minglab maslakdoshlariga qoldirgan. Muhammad alay- hissalomning o‘limidan so‘ng ayrim ko‘chmanchi qabilalar islom tartiblariga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘targanlar. Biroq bunday qo‘zg‘olonlar muvaffaqiyat qozonmagan, ya’ni Muhammad tarafdorlari ularni bostirganlar. Ular islom dinini tarqatish va buning uchun qo‘sni davlatlarni bosib olishni asosiy maqsad deb bilganlar. Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin davlat boshlig‘i dastlab umma tomonidan saylangan. Umma saylagan to‘rt xalifa (xulafo ar-roshidin) – Abu Bakr (632-634 yillar), Umar (634-644 yillar), Usmon (644-656 yillar), Ali (656-661 yillar) davrlarida islom qo‘sni davlatlarga yoyilgan. Qisqa vaqt ichida (VII–VIII asrlarda) ular O‘rta va Yaqin Sharqni, Markaziy Osiyoning asosiy qismini, Shimoliy Hindistonni bosib olganlar va Xitoy chegarasigacha yetganlar. Bundan tashqari, Shimoliy Afrikada Liviya, Tunis va Marokashni ishg‘ol etganlar hamda Gibraltar bo‘g‘ozni orqali o‘tib, Pireneya yarimorolini egallaganlar. Ular hatto Fransiyagacha yetib borganlar va u yerda Puatye shahri yonidagi jangda (732 yil) mag‘lubiyatga uchraganlar. Bunday zabit etishlar oqibatida juda katta hududda islom davlati – Arab xalifaligi paydo bo‘lgan va uning aholisi islomlashtirilgan. Islomlashtirish turli yo‘llar (kuchli iqtisodiy vositalar, agar ular yordam bermasa, harbiy kuch ishlatish yo‘li) bilan amalga oshirilgan. Shunday qilib, qisqa vaqt ichida islom milliy chegaradan tashqariga chiqqan vasekin-asta jahon dinlaridan biriga ega bo‘lgan. Bu esa, albatta, bir qator xalqlarning tarixiy taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan. Xulosa sifatida aytganda, Muhammad payg‘ambar arab elatini yangi diniy mafkura asosida jipslashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan. Jamiyatni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy inqirozdan xalos qilgan. Insoniyat tarixida alohida o‘ringa ega islom madaniyatining poydevorini yaratgan

Musulmon an’analariga ko‘ra, Ollohnning irodasi va o‘gitlari Muhammad payg‘ambarga farishta Jabroil orqali vahiy (arabchada – uqtirilgan degan ma’noni anglatadi) qilingan. Vahiy kelgan kun islomda Laylat-ul qadr kechasi (arabchada –

taqdirni hal qiladigan kecha degan ma’noni anglatadi) deb yuritiladi. O‘z navbatida, payg‘ambar bu o‘gitlarni kishilarga yetkazgan. Bu narsa musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’onda (arabchada – o‘qimoq degan ma’noni anglatadi) bayon etilgan. Muhammad davrida diniy ta’limot tartib bilan yozib borilmagan. Uning hayotligida muqaddas bitikka ehtiyoj bo‘lmagan, chunki din va davlat ishlari bilan bog‘liq masalalarni payg‘ambarning o‘zi bevosita hal etgan. U vafot etganidan keyin diniy ta’limot bayon etilgan muqaddas yozuvlarga ehtiyoj tug‘ilgan. Muqaddas bitikning yagona matnini tayyorlash maqsadida xalifa Abu Bakr 632 yilda Qur’on sahifalarini to‘plab, dastxat qilishni sahoba (arabchada – hamroh, do‘sit degan ma’nolarni anglatadi) Muhammad Zayd ibn Sobitga topshirgan. Uning tahririda tayyorlangan qo‘lyozma matni suhuf (arabchada sahifalar degan ma’noni anglatadi) deb nomlangan. Lekin suhuf matni bilan Qur’on suralarini (arabchada *izra* – devorni terishda ishlatiladigan g‘isht yoki toshning bir qatori degan ma’nolarni anglatadi) mustaqil to‘plovchilarning matnlari o‘rtasida tafovutlar mavjud bo‘lgan. Bu esa dinda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Xalifa Usmon muqaddas bitiklar bilan bog‘liq tafovutlarni bartaraf etish maqsadida o‘zining rah- barligida ijodiy guruh tuzgan. Ijodiy guruh 651 yilda Qur’onning asl nusxasini tayyorlagan. Undan farq qiladigan barcha matnlar yo‘q qilingan. Tayyorlangan nusxa xalifa Usmon mus’hafi (arabchada – o‘rama qog‘oz, pergament degan ma’nolarni anglatadi) deb atalgan.

Ma’lumki, Qur’oni karim jami 114 suradan iborat. Har bir sura, o‘z navbatida, Olloh o‘gitlaridan iborat oyatlarga (arabchada – mo‘jiza degan ma’noni anglatadi) bo‘linadi. Qur’ondagi birinchi suradan tashqari qolgan barcha suralar hajm jihatdan torayib, kichiklashib, ixchamlashib boradi. Eng uzun suralar Qur’onning boshida va eng qisqa suralar esa oxiridajoylashtirilgan. Shuning uchun unda xronologik va mantiqiy tartib yo‘q.

Qur’onda har bir suraga nom berilgan, lekin ko‘pchilik hollarda suraning nomi mazmuniga mos kelmaydi. Birinchi sura «fotiha» yoki «ochuvchi sura» bo‘lib, u musulmonlar takrorlab o‘qiydigan duodan iborat. «An-nos» surasi

O'zbekistonda uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarning hazm tizimi nematodalarining tur tarkibi aniqlash, polimorf turlarni molekulyar-taksonomik jihatdan isbotlash va nematodozlarning epizootik jarayonlarini monitoring qilish borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston hududida yovvoyi va uy hayvonlarida bu kenda oilaga kiruvchi 20 tadan ziyod turi qayd qilingan (Ivashkin, 1989; Dadaev, 1996, Amirov va Kuchboev, 2012). Bu nematoda turlari bo'yicha O'zbekistonda tadqiqotlar katta qiziqish bilan olib borilgan va faunistik ma'lumotlar darajasida keltirilgan. Bunda nematodalarining morfologiyasi, sistematikasi va boshqa bir qator xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar esa kam hisoblanadi.

Hozirgi kunda taksonomik jihatdan Nematodirus avlod turlari haqida yagona, bir to'xtamga kelingan fikrlar mavjud emas. SHuningdek muammoning yana bir jihat shundaki, *Ostertagia* Ransom, 1907, *Orloffia* Drozd, 1965, *Telodorsagia* Andreeva et Satubaldin, 1954 va avlodlarini *Ostertagiinae* kenja oilasi boshqa

avlodlari turlarisiz qarab chiqib bo‘lmaydi, ya’ni tekshirish (reviziya) ishlarida ko‘pgina turlar ostertagiyalardan kenja oilaning boshqa alodlariga o‘tib ketgan yoki yoki aksincha holatlar qayd qilinadi.

So‘nggi yillarda ostertaginlarning polimorfizmi masalalari molekulyar taksonomiya usullari yordamida o‘rganilmoqda. Bunda amalga oshirilgan tadqiqotlarda *Teladorsagia circumcincta* (Stadelman, 1894), *T. trifurcata* (Ransom, 1907) va *T. davtiani* Andreeva et Satubaldin, 1954 turlarini ribosoma DNKsi tarkibida ITS-2 sohasi (ichki transkripsiyanuvchi speyser) solishtirma tarzda o‘rganilganda, yaqqol tarzdagi farqlanishlar qayd qilinmagan bo‘lib, bu holat ularning bitta turga mansub ekanligidan dalolat beradi (Stevenson et al., 1996). SHunga o‘xhash natijalar *Ostertagia gruehneri* Skrjabin, 1929 va *O. arctica* Mizkewitsch, 1929 (Dallas et al., 2000) turlarining ITS-1 va ITS-2 sohalari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda va shuningdek *Spiculopteragia asymmetrica* (Ware, 1925) va *S. quadrispiculata* (Jansen, 1958) (Santin-Duran et al., 2002) turlari bo‘yicha xam qayd qilingan.

Gelmintologik materiallar 2021-2022 yillar davomida Toshkent , Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax ,Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari fermer va shaxsiy xo‘jaliklari hamda shu hududlarda joylashgan qushxonalardan , uy qo‘yidan 72bosh, echkilardan 30 bosh, qora mollardan 37 bosh hazm qilish organlari (shirdon va ingichka) lari yig‘ildi. Gelmintologik materiallar yig‘ishda gelmint topilgan joyi, hayvon turi, Yoshi va jinsi inobatga olindi. Jumladan 1 Yoshli qo‘ylar - 20ta, echkilar -9ta, YSHH – 8 ta, 2 Yoshli qo‘ylar 25 ta, echkilar - 11 ta, YSHH – 16 ta, 3 Yoshli qo‘ylar 27 ta, echkilar – 10 ta, YSHH – 11 ta bosh hayvonlar shirdoni va ichaklaridan biologik materiallar yig‘ildi. Nematoda tuxumlarini topishda barchaga ma’lum A. Fyulleborn usulidan foydalanildi.

Yig‘ilgan nematodalarni 70% etanolda fiksasiya qilindi. Nematodalarni matriksdan ajratib olishda MBS binokulyar lupalarining turli okulyarlaridan foydalanildi. Petri chashkasiga ozgina matriks solib, biroz miqdorda suv qo‘sildi va chashka zigzaksimon harakatlantirilib ichidagi bor narsalari kuzatildi. Aniqlangan nematodalar 70 % spirt bilan markerlangan flakonlarga solinib urg‘ochi

va erkak nematodalar soni yozib borildi. SHirdon va ingichka ichakda yashovchi xar hil turga mansub urg‘ochi nematodalar morfologik jixatdan bir biriga juda o‘xshash bo‘lganligi tufayli faqat erkak nematodalar turi aniqlanadi. Buning uchun vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi, ya’ni topilgan nematodalar buyum oynasiga 10-20% li gliserin tomchisiga tomizildi qoplagich oyna bilan yopildi va rangi ocharishi uchun biroz vaqt qo‘yib qo‘yildi. Undan so‘ng esa ushbu adabiyotda keltirilgan ma’lumotlardan [Skryabin K.I., 1981, Ivashkin V.M., 1989, Kuznesov D.N. 2006] foydalangan holda nematodalarning jinsiy tuzilishiga qarab qaysi avlodlarga tegishli ekanligi aniqlandi.

Gelmintlar dastlab fiziologik eritmada yuviladi. So‘ngra 70% li etanolda fiksasiya qilindi va etiketka (yorliq) qilindi. Yangi ajratib olingan namunalar –20°С muzlatgichda saqlandi va ulardan kelgusida molekulyar-genetik tadqiqotlar uchun foydalaniladi.

Morfologik tadqiqotlar uchun 2800 dan ortiq doimiy va vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi. Bu ishlar uchun O‘zR FA Zoologiya instituti Molekulyar zoologiya va Umumi parazitologiya laboratoriyalarida mavjud bo‘lgan turli xil yorug‘lik mikroskoplar, ML 2000 (Meiji) raqamli kamerasi bilan, Olympus CX31 va CK2V va Levenhuk T-Series mikroskoplari va fotoapparatlaridan foydalanildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan 28 turning kavsh qaytaruvchi hayvonlarda ekstensiv zararlanishi (EZ), intensiv zararlanishi (IZ) va nematodalar topilgan joylari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Tip : Nematoda

Sinf: Chromadorea

Turkum: Stronglida

Oila: Molineidae

Avlod: *Nematodirus* Ransom, 1907

O‘zbekiston hududida mayda va yirik shoxli hayvonlarda *Nematodirus* Ransom, 1907 avlodni vakillaridan 4 ta turi aniqlandi.

1. *Nematodirus filicollis* Rudolphi, 1802

Bu tur Samarqand viloyatidagi mayda va yirik shoxli hayvonlarning ingichka ichagida aniqlandi. Qo‘ylarda (E.Z) 0,2-2,3%, (I.Z) 2-15 nus., echkilarda (E.Z) 0,2-3,8% (I.Z) 1-8 nus., YSHH larda (E.Z) 0,6-3,9%, (I.Z) 1-12 nusxani tashkil qildi.

**2. *Nematodirus abnormalis* May, 1920**

Bu tur Samarqand viloyatidagi mayda va yirik shoxli hayvonlarning ingichka ichagida aniqlandi. Qo‘ylarda (E.Z) 0,3-2,3%, (I.Z) 2-13 nus., echkilarda (E.Z) 0,2-2,8% (I.Z) 1-5 nus., YSHH larda (E.Z) 0,6-2,9%, (I.Z) 1-12 nusxani tashkil qildi.

**3. *N. helveticus* May, 1920**

*N. helveticus* tur Samarqand va Navoiy viloyatidagi mayda va yirik shoxli hayvonlarning ingichka ichagida aniqlanib, qo‘ylarda (E.Z) 0,2-2,8%, (I.Z) 1-23 nus., echkilarda (E.Z) 0,2-4,4% (I.Z) 1-10 nusxani tashkil qildi..

**4 . *Nematodirus oiratianus* Rajewskaja, 1929**

Bu tur Jizzax va Navoiy viloyatidagi mayda va yirik shoxli hayvonlarning ingichka ichagida aniqlanib, qo‘ylarda (E.Z) 0,4-2,1%, (I.Z) 1-13 nus., echkilarda (E.Z) 0,1-3,4% (I.Z) 1-18 nus., YSHH larda (E.Z) 0,1-3,6%, (I.Z) 1-7 nusxani tashkil qildi.

Toshkent , Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax ,Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari fermer va shaxsiy xo‘jaliklari hamda shu hududlarda joylashgan qushxonalardan olingan namunalardan Nematodirus Ranson, 1907 avlodи nematodalari sistematik tahlili qilindi.

Uy qo‘yidan 72 bosh, echkilardan 37 bosh, qora mollardan 30 boshni Gelmintologik yorib ko‘rildi.

Tadqiqotlar davomida, 44 ta axlat (fekaliy) namunalarini uy qo‘yidan 21, uy echkisidan 11, qoramoldan 7 hamda, fekaliylar Gelmintokaprologik usullar bilan tekshirildi.

Hayvonlarning turli xil Gelmint lichinkalari bilan zararlanishi oqibatida ularning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. CHorvachilikni rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladigan omillardan biri bu hayvonlarning turli xil assotsiativ invaziyalar shaklida kasallanishidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Amirov O.O., Kuchboev A.E. Molekulyarnaya xarakteristika nematod *Teladorsagia circumcincta* i *T.trifurcata* (Trichostrongylidae: Ostertagiinae) s ispolzovaniem speysernykh uchastkov ribosomalnoy DNK // Vestnik NUUz. – Tashkent, 2013.- № 4/2.- S. 278-284.
2. Amirov O.O., Kuchboev A.E. O vidovom sostave roda *Ostertagia* Ransom, 1907 domashnih jivotnykh Uzbekistana // Aktualnye problemy ximii biologii.– Risqino: 2012. – 117 s.
3. Amirov O.O., Mirzaeva G.C., Kuchboev A.E. *Teladorsagia circumcincta* va *Teladorsagia davtiani* (Nematoda: Ostertagiinae) turlarining molekulyar-genetik tahlili // Infeksiya, immunitet i farmakologiya jurnali. – Toshkent, 2014.- №4.- B.25-30.
4. Andreeva N.K. Reviziya Ostertagiey (Trixostongelid) jvachnykh // Tr. in-ta vet. Kazaxskogo filiala VASXNIL.- Alma-ata, 1957 T.8. - S. 473–487.
5. Andreeva N.K. Struktura spikul u trixostongilid i ix diagnosticheskoe znachenie // Sb. rab. po gelmintologii k 60-letiyu so dnya rojdeniya prof. R.S. SHulsa. - Alma-Ata: Kazaxskoe gos. izd-vo, 1958. – 577 s.
6. Asadov S.M. Gelminfauna jvachnykh jivotnykh SSSR i ee ekologo-geograficheskiy analiz. - Baku: Izd. AN AzSSR, 1960. – 511 s.
7. Asadov S.M., Guseynov A.N. K rasprostraneniyu vozбудителя gemonzoza u jvachnykh v Azerbaydjane // Izv. AN AzSSR. Ser. biol. i med. nauk. Azerbayjan. 1963. - № 5. - S.35-41.

UY HAYVONLARIDAGI NEMATODALARGA QARSHI  
ANTIGELMINTIK PREPARATLARNI SINASH

*O.O. Amirov – O'zR FA, Zoologiya instituti*

*T.N. Toxirjonov – O'zMU magistranti*

*S.O. Madumarova – O'zMU magistranti*

**Kalit so'zlar;** Ostertagia; Camelostrongylus Orloff, 1933; Hyostrongylus; Bidalkea Monnig, 1931; Obilescoides Graybill, 1923; Travassossius Khalil, 1922; Parostertagia Shwarts et Alicata, 1933; Pseudostertagia, Baylisiella Skrjabin et Schulz, 1937.

**Annotatsiya;** Nematodalar asosida yuzaga keluvchi kasalliklar invaziysi iqtisodiyotga sezilarli zarar keltirib, uy va yovvoyi hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini keskin pasayishi va shuningdek, yosh individlarning nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hususan, chorva hayvonlarini turli parazit nematodalar bilan zararlanishi hayvonlar go'sht, sut va jun mahsuldorligini 9-12% ga pasayishiga olib keladi. SHunga ko'ra, qishloq xo'jaligi hayvonlarida keng tarqalgan parazit nematodalarni aniqlash va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun jahon chorvachilik amaliyotida dunyoning deyarli barcha hududlarida qayd qilingan kavsh qaytaruvchi uy va yovvoyi hayvonlarning xazm tizimida parazitlik qiluvchi nematodalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu anemamatodalar asosida yuzaga keluvchi kasalliklar invaziysi iqtisodiyotga sezilarli zarar keltirib, uy va yovvoyi hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini keskin pasayishi va shuningdek, yosh individlarning nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yaylov chorva hayvonlarini Trihostrongylidae oilasi nematodalari bilan zararlanishini yuqori ekanligini alohida ta'kidlash lozim. SHunga ko'ra, O'zbekiston kavsh qaytaruvchi hayvonlarning xazm tizimidagi parazit nematodalarining tur tarkibi va sistematik o'rmini isbotlash, turli omillarga bog'liq

ravishda hayvonlarni nematodalar bilan zararlanish dinamikasi aniqlash, zararlanishini diagnostika qilishda turlarga xos praymerlar yaratish hamda nematodalarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda kavsh qaytaruvchilarni hazm tizimida parazitlik qilib yashovchi nematodalarni sistematikasi bo'yicha yagona bir to'xtamga kelingan fikrlar mavjud emas (K.I.Skryabin, R.S.SHuls, W Becklund M.C. Durette-Desset, R.J. Lichtenfels, E.P. Hoberg, J. Drozdz; P. Daskalov, J. Cabaret, D.S. Zarlenga). K.I.Skryabin va R.S.SHuls 1937 yilda Trichostrongylidae Leiper, 1962 sistematikasini qaytadan ko'rib chiqib, Trichostrongilinae Leiper, 1908 oilasi tarkibida Ostertagiae kenja oilasi tuziladi va uning tarkibida 9 ta avlod kiritiladi. *Ostertagia; Camelostrongylus* Orloff, 1933; *Hyostrongylus; Bidalkea* Monnig, 1931; *Obilescoides* Graybill, 1923; *Travassossius* Khalil, 1922; *Parostertagia* Shwarts et Alicata, 1933; *Pseudostertagia, Baylisiella* Skrjabin et Schulz, 1937.

Gelmintologik materiallar 2017-2021 yillar davomida Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlarini fermer va shaxsiy xo'jaliklari hamda shu hududlarda joylashgan qushxonalardan mayda shoxli hayvonlar (MSHH) va yirik shoxli hayvonlarning (YSHH) hazm qilish tizimidan gel'mintologik materiallar yig'ildi

Jumladan, uy qo'yidan 82 bosh, echkilardan 12 bosh, qora mollardan 56 bosh, hazm qilish organlari (shirdon va ingichka) ichaklarni to'liq va to'liq bo'limgan gel'mintologik yorib ko'rish K.I. Ckryabin (1928) uslubidan foydalanib tekshirildi.

Yig'ilgan nematodalarni 70% etanolda fiksasiya qilindi. Nematodalarni matriksdan ajratib olishda MBS binokulyar lupalarining turli okulyarlaridan foydalanildi. Petri chashkasiga ozgina matriks solib, biroz miqdorda suv qo'shildi va chashka zigzaksimon harakatlantirilib ichidagi bor narsalari kuzatildi

Bugungi kunda farmasevtika bozorida hayvonlar gel'mintoz kasalliklariga qarshi kurashishga mo'ljallangan kuchli ta'sir qiluvchi sun'iy preparatlar anchagini. Jumladan hayvonlar nematodozlarga qarshi ko'plab mahalliy va xorijiy organik antgel'mintik (albendazol, timbendazol, gel'misid, medapek va boshq.) dori

preparatlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. SHu bilan birga ularning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

Lekin, dorivor o'simliklardan tayyorlangan antigelmintik preparatlarni afzalligi shundaki, ular parazit organizimiga tez ta'sir qilib, ho'jayin organizimiga zararsiz xisoblanadi (Magerramov, 2008, 2013). Hozirgi vaqtga kelib, o'simliklardan tayyorlangan antigelmintiklar parazitlarga qarshi keng ko'lamda foydalanilmoqda. SHu bilan birga, chorvachilik xo'jaliklaridagi hayvonlarni oziqlantirishda yaylovlardagi dorivor o'simliklarni hayvonlar iste'mol qilishi orqali, ular organizmidagi parazit individlarning yo'qolishiga sabab bo'lgan (Utyaganov, 1969; Volkov, 1976; Eminov, 1982).

Tadqiqot ishida *in vitro* sharoitida parazit nematodalarga nisbatan yaxshi ta'sir etgan o'simlik ekstraktlarini mayda shoxli hayvonlarga ta'sirini o'rghanish maqsadida laboratoriya va dala tajribalari o'tkazildi.

Laboratoriya tajribasi. Oshqozon-ichak nematodalariga nisbatan 6ta turga mansub o'simlik ekstraktlari (Karimova va boshq., 2020) laboratoriya sharoitidagi zararlantirilgan qo'y va echkilarda sinab ko'rildi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi – O'zbekiston sharoitida voyaga etgan ostertagiya, marshallagiya va teladorsagia kabi kavsh qaytaruvchi hayvonlarda ostertagiinoz qo'zg'atuvchilariga qarshi keng ta'sir spektriga ega bo'lgan yangi dori vositalarini izlab topishdan iborat.

Mahalliy medapek (2,5% li eritmasi), albendozol (10% li suspenziyasi) va timbendazol (22%li fenbendazol donachalari) preparatlari berilganidan 10 kun o'tganidan keyin, tajriba va nazorat guruhidagi hayvonlar ahlati tekshirildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Jumladan, albendazol preparatining bir marta foydalanilishidan keyin samaradorlik qiymati 100%, timbendazol preparati uchun – 90,1% va medapek preparati uchun esa – 81,1% ga tengligi aniqlandi. Nazorat guruhida barcha hayvonlarda invaziya holati o'zgarishsiz qoldi. SHunday qilib, butun tajriba davomida 1 g miqdordagi hayvon ahlati tarkibida ostertigiin nematoda tuxumlarining o'rtacha soni 44,4–41,4 donani tashkil qilishi aniqlandi.

**1-jadval**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Axsi" fermer xo'jaligi ostertagiozga qarshi dori preparatlarining samaradorligini aniqlash,(M±m).

| Hayvon-lar guruhi | Dorilar (doza 50 kg tana vazniga) | Hayvon-lar soni | Zararlan-gan hayvon-lar | 1 g fekaliyda o`rtacha nematoda tuxumlari, soni |                    | Samara-dorligi (%) |
|-------------------|-----------------------------------|-----------------|-------------------------|---|--------------------|--------------------|
|                   |                                   |                 |                         | Davolash-dan oldin                              | Davolash-dan keyin |                    |
| 2                 | Gelmisid (1 dona)                 | 10              | 9                       | 44.2±2.33                                       | 4.4±0.12           | 90.0               |
| 3                 | Medapek (15 ml)                   | 10              | 10                      | 40.5±3.48                                       | 8.1±0.23           | 89.8               |
| 4                 | Nazorat                           | 6               | 6                       | 47.1  | 45.1±3.33          | 0                  |

Shunday qilib, amalga oshirilgan laboratoriya va dala sharoitida tajribalarda olingan natijalar asosida, qo'yilda ichak nematodasi (ostertagioz) sharoitida YZ-Alben 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 10 ml, Gelmisid donachasi 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 1 dona, medapek preparatini 50 kg tana vazniga ega hayvonlarga nisbatan 15 ml medapek preparatini bir marta *per os* usulidan organizmga kiritish) preparalaridan foydalanish tavsiya qilinishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Амиров О.О., Мирзаева Г.С., Кучбоев А.Э. *Teladorsagia circumcincta* ва *Teladorsagia davtiani* (Nematoda: Ostertagiinae) турларининг молекуляр-генетик таҳлили // Инфекция, иммунитет и фармакология журнали. –Тошкент, 2014.- №4.- Б.25-30.
- Андреева Н.К. Ревизия Остертагией (Трихостронгелид) жвачных // Тр. ин-та вет. Казахского филиала ВАСХНИЛ.- Алма-ата, 1957 Т.8. - С. 473–487.
- Андреева Н.К. Структура спикул у трихостонгилид и их диагностическое значение // Сб. раб. по гельминтологии к 60-летию со дня рождения проф. Р.С. Шульца. - Алма-Ата: Казахское гос. изд-во, 1958. – 577 с.

4. Асадов С.М. Гельминтофауна жвачных животных СССР и ее эколого-географический анализ. - Баку: Изд. АН АзССР, 1960. – 511 с.
5. Асадов С.М., Гусейнов А.Н. К распространению возбудителя гемонхоза у жвачных в Азербайджане // Изв. АН АзССР. Сер. биол. и мед. наук. Азербайджан. 1963. - № 5. - С.35-41.
6. Архипов И.А. Этапы создания антигельминтиков и перспективы развития экспериментальной терапии гельминтозов животных в России // Российский паразитологический журнал. – 2007. - № 1. – С.67-73.

**EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION**

---

*Fazliyev Jamoliddin Sharofiddinovich*

*Rajabova Mahliyo Mahmudovna*

*Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers*

*[jamolliddinfazliyev@gmail.com](mailto:jamolliddinfazliyev@gmail.com)*

**Abstract.** The article presents the results of theoretical studies and field trials of the author, conducted in ancestral - economic conditions. Field experiments were carried out on the territory of the Khuzhayakshanba IGC of the Kagan fog of Bukhara region. The technology of garden irrigation with clay water using drip irrigation has been developed. With the introduction of drip irrigation technology in intensive gardens, water resources are saved by 20-60%, mineral fertilizers up to 50% and fuel and lubricants up to 30%, the results of the work are analyzed and presented. In addition, the irrigation regime corresponds to the water needs of plants and excess water is not used, while water evaporation in the soil is insignificant, moisture will collect only near the root system of plants, as a result, water does not disperse throughout the field, due to the small absorption of water by the soil, the level of subsoil water will not rise.

**Key words:** irrigation, drip irrigation, irrigation methods, clay water, subsoil water, water resources, salinization, root, evaporation, agricultural technology, water scarcity, water saving technologies, irrigation rate, marginal field moisture capacity (FMC), pre-irrigation moisture capacity, mineralization, irrigation technique, vegetation period.

**INTRODUCTION.** Our Government has been paying a serious attention to progress of irrigation culture in our country, intensification of reforms in water resources, and material and technical strengthening of this sector. Large-scale activities associated with introduction of water-saving techniques, including drip irrigation, film irrigation and irrigation using the mobile flexible pipes have been put in practice. In this context, the Government resolutions “On Measures for Further Improvement of Irrigated Land Improvement and Efficient Use of Water Resources during 2013-2017” and “On Measures for Efficient Organization of Introduction and Financing of Drip Irrigation System and New Water-Saving Technologies“ were adopted.

**THE MAIN PART.** Scope of works to be undertaken in these directions and mechanisms of their implementation are clearly determined in these documents. Task of introduction of drip irrigation on 25 thousand ha, irrigation through polyfilm laying on 46.5 thousand ha and systems of irrigation using mobile flexible pipes on 34 thousand ha of land nationwide by 2018 had been set. During 2018-2023, introduction of the drip irrigation system on 21.5 thousand ha of land areas of the farms and other land users and provision of concessional loans with interest rate of 6% to agricultural producers by commercial banks from the resources of the Fund for Improvement of Irrigated Land under the Ministry of Finance. In addition, amendments and addenda to the Tax Code were introduced as to exemption of legal entities, which introduce drip irrigation techniques, from the Single Land Tax associated with land area covered by such techniques for the period of 5 years.

According to the International Irrigation and Drainage Committee, areas under crops, where drip irrigation systems were introduced, had grown from 436 thousand ha to 3.2 million ha globally over 1981-2000. Namely, such areas increased by 1 million ha in the USA and by 200 thousand ha in each of India, Australia, Spain, Israel, and China. Currently, drip irrigation technology has been introduced on the lands with total area of 4.5 million ha globally. Great attention is paid in our country to wide introduction of the drip irrigation system. Over the last 3 years, the drip

irrigation technology has been introduced on the lands with total area of 5.5 thousand ha. In 2013, this system was introduced on the lands with total area of more than 2.2 thousand ha. Namely, this system is applied on 255 ha of lands in Samarkand Region, 250 ha in Namangan Region and nearly 170 thousand ha in Ferghana Region.

Cotton growing technology under the drip irrigation system includes the following key indicators: Use of high-yield and fast-ripening varieties adapted to various soil climate conditions; rational system of main, pre-ploughing and interrow soil tillage; planting of high-quality cottonseeds, classified introduction of mineral fertilizers; a system, which helps in full automation of irrigation process and efficient use of water resources; harmonized system of plant protection from siseases, pests and weeds; mechanized calking and defoliation of cotton plants; and mechanized cotton harvesting. Main difference of the drip irrigation system lies in the possibility of partial introduction of mineral fertilizers and herbicides to thenpant through water and lack of interrow tillage during vegetation period.

**EXPERIMENTAL RESULTS.** Research studies had been undertaken at the Training and Research Center of the Bukhara Branch of Tashkent Institute of Irrigation and Melioration with the view of complex academic study and mass introduction of the drip irrigation technology. Soil of the experimental field was medium loamy, with the depth of ground waters of 2.2-2.5 metres, and 1.9-2.2 metres during the cotton vegetation period and was mildly saline. Irrigation was performed using the turbid water directly from the aryk (canal) without filtration.

According to the experimental results, drip irrigation system has a number of advantages over the interrow irrigation and studies identified the saving of 45-50%



of water and 40-50% of fuels and lubricants and mineral fertilizers. In addition, reduction of the number of interrow tillage by 6 times, and spending of 85 cubic metres of water per 1 ha for growing of 1 centner of cotton were observed.

We can observe the positive improvement of hydrophysical properties of the soil in the field under drip irrigation as compared with traditionally irrigated field; namely, reduction of volume mass, improvement of the soil's water conduction property. It was established that in case of drip irrigation productivity grew by 7.4 centners/ha. In addition, due to continuous maintenance of moisture on the areas under drip irrigation, salinity level increased just slightly and plants did not suffer the vilt disease. Soil at the experimental fields was medium loamy, and medium-fiber Bukhoro-6 cotton variety was planted with cotton interrow space of 60 cm. At the ploughed layer of the soil (0-30 cm) the soil volume mass was 1.38-1.41 g/cm<sup>3</sup>, and in the under plough layer (30-50 cm) this indicator somewhat increased to 1.49-1.58 g/cm<sup>3</sup>, and relative mass and total porosity indicators in these layers were correspondingly 3.14-3.21 g/cm<sup>3</sup> and 51.3-47.1%.

Hydrophysical properties of the soil were as follows: limited field water capacity at the soil layer of 0-100 cm was 20.3-21.4; natural moisture at ploughed layer was 17.2-18.5%, and under plough layer – 18.3-20.8%; cotton irrigation regime was formed based on the pre-irrigation moisture level and estimated soil layer of 0-50 cm as established in the experimental system. Obtained data evidence high efficiency of the drip irrigation as compared with furrow irrigation. For instance, while 5,200 m<sup>3</sup>/ha brutto water is spent per season in case of furrow irrigation, we can observe that 2,280 m<sup>3</sup>/ha of water in scenarios 2 and 3, and total of 2,760 m<sup>3</sup>/ha of water in the fourth scenario is spent in case of drip irrigation. Thus, upon drip irrigation under the 70-75-70% scheme water was saved by 53%, and upon drip irrigation according to 70-80-65% scheme water saving was 47%.

Features of agrotechnical case of cotton plants and crops included in its complex taking into consideration the traditionally irrigated meadowy alluvial soil conditions and use of new technologies and drip irrigation system have been

provided above. High water saving efficiency achieved in the course of these experiments has also demonstrated its ecologically positive properties. Regionally widespread irrigation erosion and wash-off of mineral fertilizers in meadowy alluvial soils are prevented. Through this method, there is a good opportunity for continuous moisture supply to the plant's root level and efficient utilization of water and nutrients. Advantage of drip irrigation is primarily demonstrated in saving of water resources. At the same time, a unique irrigation mode, low evaporation and prevention of water waste are achieved. Most importantly, since water is delivered to the plant through the pipes in drip irrigation, the surface of field soil is not dried and, as a result, there is no need for performance of interrow tillage.

Upon irrigation of cotton plants using the traditional method, i.e. through the rows, it was determined that part of water was wasted as a result of its partial ingress into lower soil layers in the main canals and its evaporation. Studies identified that 1.5-2.5 thousand cubic meters of water are wasted per one hectare due to evaporation and ingress. Development of modern land improvement and irrigation methods for the cotton and other plants grown on the rows and their introduction into practice with the view of preventing the negative aspects are among the urgent issues nowadays. Technique of irrigation through laying the polyfilm between the cotton plant rows serves as a factor, which enables the reduction of the demand for irrigation water and energy costs as well as increase of soil fertility.

Water saving by 42 percent in average and additional cotton yield of 7-9 centners per hectare or 23% increase has been observed upon irrigation through laying the black polyfilm between the cotton plant rows on the fields of the Training and Research Center of the TIIAME Bukhara Branch. Under this non-traditional irrigation technique, there is opportunity for even soil moistening across furrows, reduction in evaporation of soil moisture after irrigation, full utilization of nutrients by the crops due to prevention of washout of mineral fertilizers under pressure. Creation of favourable conditions for active development of the root system due to destruction of weeds because of prevention of sunlight impact on the furrow base,

prevention of soil compaction due to avoiding the tillage between the rows and quality moistening of the productive soil layer as a result of irrigation at reduced norms, and increase of productivity have been observed. Irrigation technique through laying the polyfilm between the cotton plants rows is a technological direction, which enables reduction of water demand and energy consumption by 35-40% and increase of soil productivity.

**CONCLUSION AND FUTURE WORK.** Saving of water by 15-20%, even water distribution along furrows and increased of useful area under crops by 1.5-2.5% and easening of irrigation works and reduction of manual labor by 2 times as compared with tradition irrigation methods has been observed as a result of irrigation of cotton field using the mobile flexible pipes instead of main irrigation channels. Such manufactured mobile flexible pipes are intended for a land site of 4 ha, this area is irrigated simultaneously using the hoses. Since the land plot is irrigation for a short period, soil preparation occurs evenly in all parts of the field. Since water is supplied to the field for a short time, normal growth of cotton plants and increase of productivity by 2.5-3.0 centners as compared with traditional irrigation method are observed.

### **Reference**

1. Худайев И., Фазлиев Ж., Шаропов Н. Капельное орошение-как водосберегающий способ орошения садов и виноградников //Школа Науки. – 2019. – №. 4. – С. 17-18.
2. Fazliyev J. MODERN IRRIGATION METHODS FOR GARDENS” iScience № 22 2г //Pereyaslav-Khmelnitsky. Ukraine. – 2018. – Т. 22. – С. 24-26.
3. Fazliyev, Z. S., Shokhimardonova, N. S., Sobirov, F. T., Ravshanov, U. K., & Baratov, S. S. (2014). Technology of the drip irrigation use in gardens and vineyards. The Way of Science, 56.
4. Fazliyev J. Drip irrigation technology in gardens //Интернаука. Science Journal. – 2017. – Т. 7. – №. 11.

5. Fazliyev J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING" ИНТЕРНАУКА //Science Journal. – 2019. – №. 21. – С. 103.
6. Xudayev I., Fazliev J. Drip irrigation-as a water-saving way irrigation of orchards and vineyards //Школа Науки. – 2019. – Т. 4. – С. 15.
7. Xudayev I., Fazliev J., Baratov S. Drip irrigation technology for orchards and vineyards //AGRO ILM. – 2019. – Т. 1. – С. 57.
8. Fazliyev J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г //г. Part. – 2019. – №. 21 (103). – С. 3.
9. Каримов Г. Х., Фазлиев Ж. Ш. Automation of intensive garden seedlings' drip irrigation //Молодой ученый. – 2015. – №. 10. – С. 212-214.
10. Фазлиев Ж. Ш. Болгарда томчилатиб суғориш технологияси //Интернаука. – 2017. – №. 7-3. – С. 71-73.

**BLOKCHEYN, BLOKCHEYNDА TARMOQLAR XAVFSIZLIGI VA  
BLOKCHEYNDА MOLIYAVIY XIZMATLAR SEKTORI**

---

*Bozorboyev Behro'zbek Bahodir o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Iqtisodiyot  
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabasi*

*[behruzbozorboyev13@gmail.com](mailto:behruzbozorboyev13@gmail.com)*

99-477-15-17

**BLOCKCHAIN, BLOCKCHAIN NETWORK SECURITY AND  
BLOCKCHAIN FINANCIAL SERVICES SECTOR**

**Annotation:** This article discusses the concept of blockchain, network, security in blockchain, open source code, protection of rights in blockchain, changes in financial services sectors in blockchain, value insurance and risk management.

**Keywords:** Blockchain, certification, open source, sidechains, cryptocurrency

**БЛОКЧЕЙН, БЛОКЧЕЙН СЕТЕВАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И  
БЛОКЧЕЙН СЕКТОР ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ**

**Аннотация:** В данной статье рассматривается концепция блокчейна, сетевая безопасность в блокчейне, открытый исходный код, защита прав в блокчейне, изменения в секторах финансовых услуг в блокчейне, страхование стоимости и управление рисками.

**Ключевые слова:** Блокчейн, сертификация, открытый исходный код, сайдчейны, криптовалюта.

**BLOKCHEYN, BLOKCHEYNDА TARMOQLAR XAVFSIZLIGI VA  
BLOKCHEYNDА MOLIYAVIY XIZMATLAR SEKTORI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada blokcheyn tushunchasi, blokcheynda tarmoq xavfsizligi, ochiq boshlang'ich kod, blokcheynda huquqlarning saqlanishi,

blokcheynda moliyaviy xizmatlar sektorlarining o'zgarishi, qiymatni sug'urta qilish va risklarni boshqarish haqida yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar :** Blokcheyn, attestatsiya, ochiq boshlang'ich kod, saydcheynlar, kriptovalyuta.

Blokcheyn (bloklar zanjiri) – taqsimlangan ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda ma'lumotlar saqlash qurilmalari umumiyligi serverga ulanmagan bo'ladi. Bu ma'lumotlar to'plami bloklar deb ataladigan va tartibga solingan qaydlar doimiy o'sib boradigan roy'xatda saqlanadi. Har bir blok vaqt belgisiga va bundan oldingi blokni havola etishga ega bo'ladi. Shifrlashni qo'llash foydalanuvchilarning ularsiz faylga yozuv kiritish imkonini bo'lmasligini kafolatlaydi. Foydalanuvchilarning ularsiz faylga yozuv kiritish imkoniyati yuq , shu sababdan yopiq kalitlar mavjudligi bloklar zanjirlarining ma'lum bir qisminigina o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, shifrlash barcha foydalanuvchilarda bloklar taqsimlangan zanjirlari nusxalarini sinxronlashtirishni ta'minlaydi.Ba'zida blokcheyn texnologiyasi “ qadriyatlar interneti “ deb ataladi va biz buni yaxshi metafora deb hisoblaymiz. Bloklar zanjirlari blokcheyn fayli yoki qandaydir qadriyatlar ochiq bo'ladigan dunyoning istalgan nuqtasiga ma'lumotlar jo'natishga imkon beradi. Biroq sizda faqat siz “ egalik “ qiladigan bloklarga kirish imkonini berish uchun kriptografik algoritm bo'yicha yaratilgan yopiq kalit bo'lishi lozim. Bu kalitni yo'qotishingiz yoki kimgadir berishingiz orqali siz blokda yashirilgan pulingizni ham yo'qotgan bo'lasiz. Bitkoinlar holatida, kalitlar to'g'ridan to'g'ri moliyaviy qiymatni ifodalaydigan valyutadagi ayrim so'mmalar saqlanadigan manzillarga ulanish uchun foydalaniladi. Xuddi shu bilan mablag'larni o'tkazishni qayd qilish funksiyasi amalga oshiriladi.

Xavfsizlik tadbirlari tarmoqqa shunday joriy qilinganki, uning umumiyligi inkor qilish nuqtasi bo'lmaydi, nafaqat maxfiylik, balki har qanday harakat bekor qilinmasligi va autentifikatsiyasi ham ta'minlanadi. Tizimda ishtirok etishni istagan har bir shaxs shifrlashdan foydalanishi lozim - bu muhokama qilinmaydi va

o'ylamasdan qilingan harakatlar oqibatlarini faqat shu harakatlarni amalga oshirgan shaxsgina his qiladi. Xakkerlik hujumlari, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, firibgarlik, kiberqo'rqtish, fishing, spam, ziyon keltiruvchi dasturlar, virus-tovlamachilar – bularning barchasi insonning jamiyatdagi xavfsizligiga tahdid soladi.

Raqamli valyuta oddiy faylda saqlanmaydi. U kriptografik xesh bilan belgilangan tranzatsiyalarda aks ettiriladi. Foydalanuvchilar o'z pullari uchun kriptokalitlarga ega bo'ladi va tranzaksiyalarni to'g'ridan to'g'ri bir-biri bilan birqalikda amalga oshiradi. Bunday xavfsizlik uchun ularning har biri mas'uliyatli bo'lishi-shaxsiy kalitlarni ishonchli himoya qilishi zarurlidir. Bu yerda xavfsizlik standartlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bitkoin blokcheynni AQSH Standartlar va texnologiyalar milliy instituti tomonidan chiqarilgan va axborotni qayta ishlash federal standarti sifatida qabul qilingan. U mashhur va puxta ishlab chiqilgan SHA-256 shifrlash standartida ishlaydi. Blok yechimini topish uchun zarur bo'lgan ko'p martalik matematik hisob-kitoblarni takrorlash murakkabligi hisoblash qurilmasidan masalani yechish va yangi bitkoinlar ishlab topish uchun ko'p elektr energiyasi sarflashni talab qiladi. Ba'zi bir boshqa algoritmlar esa ancha kamroq energiya sarflaydi. Bu unda ishtirok etish uchun to'siqlarni pasaytirish lozimligini anglatadi. Bu kapitalni qayta taqsimlash emas, balki qayta taqsimlangan kapitalizm uchun platforma yaratish kerakligini anglatadi. Bundan tashqari yangi kommunikatsiya vositasi hamma uchun farovonlik keltirishiga bo'lgan umidi oqlanmadni. U internet rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalarga, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, millionlab odamlarga ish taqdim etishga imkon berdi. U ancha eskirib qolgan, chunki yuqori dinamikali raqamli dunyodan ortda qolib ketmoqda va shu sababli ham u sekin va ishonchsiz ishlaydigan, o'tgan asrdan qolgan texnologiyalarga asoslanadi. U monopol bo'lib, milliardlab odamlarga bazaviy moliyaviy vositalarga ulanish imkonini bermaydi. U markazlashtirilgan bo'lib, shu sababli status-kvoni qo'llab-quvvatlashga intiladi va tadbirdorlarga ushbu kuchli platformada qiymat yaratishning yangi usullarini topgan holda shu va boshqa ko'plab muammolarni hal

qilishga imkon beradi. Jahon moliya mutaxassislari blokcheyn bilan bog'liq bo'lган quyidagi g'oyalar haqida puxta o'ylab ko'rishlari lozim:

Tarixda birinchi marta, turli subyektlat bir-birini bilmagan va bir-biriga ishonmagan holda bitim tuzishi va ishlarni yuritishi mumkin. Shaxsni tasdiqlash va ishonch o'rnatish moliyaviy vositachining huquqi va imtivozi bo'lmay qo'ydi. Boz ustiga, moliyaviy xizmatlar nuqtayi nazaridan ishonch bayonnomasi yangi ma'noga ega bo'ladi. Blokcheyn zarur bo'lgan paytda tranzaksiyalar tarixi (blokcheynda), nufuz qiymati ( agregatsiyalangan fikrlar asosida ) va boshqa umumiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida har bir tomonning aynan o'xshashligi va to'lov layoqatini tasdiqlab, ishonchli munosabatlar o'rnatishi mumkin.

Moliyaviy xizmatlar tarmog'i bu – eskirib qolgan tizimlarning ulkan texnologik to'plami bo'lib, istalgan payt qulashi mumkin. Uni texnologik jihatdan takomillashtirish qiyin, chunki har bir innovatsiya uchun qaytuvchan bo'la olishlik talab qilinadi. Blokcheyn esa, ochiq kodli boshlang'ich tizim bo'lgan holda, doimiy ravishda o'zgarishi rivojlanishi va tarmoq murosasi asosida, takomillashishi mumkin. Bu afzalliliklar –attestatsiya, ancha past qiymat, bir lahzali tezlik, risklarning pasayishi, katta inovatsiya, moslashuv operatsiyalarini, investitsion bank xizmatlari ko'rsatishni, buxgalteriya hisobi va auditni, venchurli investitiyalarini, sug'urtalashni, tadbirkorlik risklarini boshqarishni, xususiy shaxslarga bank xizmatlari ko'rsatish va tarmoqning boshqa asoslarini o'zgartirishi mumkin. Odamlar o'z ma'lumotlarini o'zlari nazorat qilishlari kerak. Har bir kishi o'z shaxsiyati haqida nimani, qachon, qayerda va qanchalik bat afsil gapirib berish haqida o'zi qaror qabul qilishga haqlidir. Shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizlik huquqini hurmat qilish – ikkalasi bir xil narsa emas. Bizga unisi ham, bunisi ham kerak. Bir-biriga ishonish zaruratinini bartaraf qilib, Satosi Nakamoto shu tariqa u bilan o'zaro aloqa qilish uchun ikkinchi tomon shaxsini yaxshi bilish zaruratin yo'qqa chiqaradi. Xususiy hayot daxlsizligi –insonning asosiy huquqi va erkin jamiyatning negizidir. Internet paydo bo'lgandan keyingini oxirgi yigirma yil davomida davlat miqyosida ham, xususiy sektorda ham ma'lumotlar markaziy

to'plamlari xususiy shaxslar va tashkilotlar haqida, jumladan, ularga ma'lum qilmagan holda, xilma-xil maxfiy axborotlar to'plangan. Hamma joyda odamlar korporatsiyalar axborot izlash asnosida butun raqamli dunyonи titib tashlagan holda qandaydir kiberklonlar yaratishdan xavfsiraydi. Blokcheynda esa qatnashchilar istagan holda ma'lum darajagacha noma'lumlukni saqlashi mumkin - ular qandaydr qo'shimcha ma'lumotlar xabar qilish yoki bu axborotlarni ma'lumotlar markaziy to'plamida saqlashga majbur emas. Bu holatning muhimligiga notog'ri baho berib bo'lmaydi. Blokcheynda shaxsiy ma'lumotlar ombori yo'q. Blokcheyn protokollari har bir muayyan tranzaksiya yoki vaziyat uchun kerakli bo'lgan no'malumlik darajasini tanlashga imkon beradi . Shu tariqa biz o'zimizning electron nuxxalarimizni va ularning dunyo bilan o'zaro aloqalarini yaxshiroq boshqaramiz. Mulk huquqi shaffof hisoblanadi va huquqiy himoya bilan ta'minlanadi. Shaxsiy erkinliklar hamma tomonidan tan olinadi va hurmat qilinadi. Bu haqiqat biz uchun oshkora bo'lib ko'rindi: har bir shaxs tug'ilgan paytidan boshlab ulardan mahrum qilinishi mumkin bo'limgan, ularni himoya qilish mumkin va lozim bolgan huquqlarga ega bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning birinchi davrida bu huquqlarni samaraliroq amalga oshirish usullarini izlab topishga harakat qilingan. Internet san'at, yangiliklar, koiigilocharliklar yangi shakllari uchun, she'r, qo'shiq, fotosurat, audio va videoyozuvlar uchun mualliflik huquqi o'rnatish vositasiga aylandi. Tarmoqda moddiy makondagi bilan bir xil narsalarga erishish uchun umumiyl savdo kodini qo'llashga to'g'ri keladi: Moddiy substantsiyaning qiymati qanchalik past yoki baland bolishidan qat'iy nazar, har qanday predmetni sotib olish uchun shartnomaga tuzish va uni muhokama qilish zaruratini bartaraf qilishga erishildi. Lekin bu holatda ham tranzaksiyalarni boshqarishda vositachilarga umid bog'lashimizga to'g'ri kelardi va vositachilar pulni o'z hisob raqamida ushlab turib (yo'ldagi pul mablag'lari) keyin o'tkazishi yoki uni o'tkazishi va so'ngra rad etishi mumkin bo'lgan holda tranzaksiyalarni rad qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Savdo

bitimlari qatnashchilarining ma'lum bir qismi esa firibgarlik qilishini kutadi va har qanday bitimda ma'lum darajadagi firibgarlik muqarrar deb qabul qiladi. Hozirgi paytda biz ishonch asosidagi munosabatlar o'rnatish va moliyaviy tranzaksiyada ikkinchi tomonning aynan shuligini tasdiqlashda yirik vositachilarga tayanamiz. Bu vositachilar bank hisob raqamlari va zayomlar kabi asosiy moliyaviy xizmatlarga ulanishda hakamlar rolini o'ynaydi. Blokcheyn ma'lum bir tranzaksiyalarga ishonch zaruratinini pasaytiradi va ba'zida hatto olib tashlaydi ham. Bu texnologiya shuningdek, qatnashchilarga tasdiqlanadigan, to'liq funksionalli va kriptografik himoya qilingan elektron profillardan foydalanish va zarur bo'lgan hollarda ishonch asosidagi munosabatlar o'rnatishga imkon beradi. Moliya tizimi har kuni pul mablag'larinibutun dunyo bo'ylab ko'chiradi va hatto bir dollar ham ikki marta sarflanmasligini ta'minlaydi. *iTunes* da bitta qo'shiqni 99 sentga xarid qilishdan tortib, kompaniya ichida fondlarni berish, aktivlar sotib olish yoki kompaniyalar xarid qilishgacha bo'lgan milliardlab bitimlarni tekshirib turadi. Blokcheyn har qanday qiymatlar - valyuta, aksiyalar, obligatsiyalar, huquqlarni - yirik va kichik miqdorda, uzoq va yaqin masofaga, ma'lum va noma'lum tomonlarga ko'chirish uchun umumi standart bo'lishga qodir. Shunday qilib, blokcheyn qiymatlarni ko'chirish uchun xuddi tovarlarni ko'chirish uchun kerak bolgan standart yuk konteyneri joriy qilish kabi ishlami bajarishi mumkin. Bu osa bahoni sezilarli ravishda pasaytirishi, operatsion tezlikni oshirishi, iqlisodiy o'sish va farovonlikka xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy institutlar xususiy shaxslar, tashkilotlar va davlatga tegishli boigan qiymatlar saqlanadigan ombor vazifasini bajaradi. O 'rtacha statistik fuqaro uchun bank ularni bank yacheykasi, jamg'arma yoki joriy hisob raqamida saqlaydi. Likvidlik zarur bo'lgan va naqd ekvivalentga kichik foiz talab qilinadigan yirik tashkilot uchun bu risksiz investitsiyalar, masalan, g'aznachilik obligatsiyalari yoki qisqa muddatli vositalar bozoriga investitsiyalar

hisoblanadi. Blokcheyn bilan xususiy shaxslar qiymatlarini saqlash, jamg‘arma yoki joriy hisob raqami xizmatlarini yagona taqdim etuvchilar sifatida banklarga tayanishga majbur bolmaydilar, tashkilotlarda esa risksiz moliyaviy aktivlar xarid qilish va ularga egalik qilishning samaraliroq mexanizmlari paydo boiadi. Moliyaviy institutlar ipotekadan tortib, qisqa muddatli veksellargacha kreditlar berishni: kredit kartalari, ipoteka kreditlari, korporativ, munitsipal va davlat obligatsiyalari, aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash jarayonini ancha soddalashtiradi. Kreditlash mexanizmi kredit layoqatini tekshirish, kredit tarixini yuritish, kredit reytinglarini tayinlash uchun bir qator qo‘sishimcha tarmoqlarni yuzaga keltirdi. Xususiy shaxslar uchun kredit tarixi muhim, tashkilotlar uchun esa -«investitsion sinf»dan to «axlat»gacha boigan kredit reytinglari mavjud. Blokcheynda istalgan shaxs an'anaviy qarz majburiyatlarini to‘g‘ridan to ‘g‘ri chiqarishi, ayirboshlashi va tartibga solishi, shu tariqa, risk va xarajatlarni pasaytirishi hamda tezlik va shaffoflikni oshirishi mumkin. Iste’molchilar bevosita boshqa iste’molchilardan qarz olishi mumkin boladi. Bu ayniqlsa, bank xizmatlari bilan qamrab olinmaganlar va butun dunyo bo‘ylab tadbirkorlar uchun juda muhim amaldir. Har kuni bozorlar butun dunyo bo‘ylab umumiy qiymati trillionlab dollarni tashkil qiladigan moddiy aktivlarni ayirboshlashga imkon beradi. Savdo bu - investitsiyalash, birjada o‘ynash, xedjirlash va arbitraj, jumladan, bitimdan keyingi kliring sikli, tartibga solish va saqlash maqsadida aktivlar va moliyaviy vositalar sotish va sotib olishdir. Blokcheyn har qanday tranzaksiyalarni tartibga solish vaqtini hafalta va kunlardan daqiqa va soniyalargacha qisqartiradi. Aktiv, kompaniya yoki yangi korxonaga investitsiya kiritish kapital qiymatining ortishi, dividendlar, foizlar, renta va ularning xilma-xil kombinatsiyalari ko’inishida daromad olish imkonini beradi. Tarmoq investorlarni tadbirkorlar va

kompaniyalar egalari bilan rivojlanishning «farishta»dan tortib, IPOgacha va boshqa turli bosqichlarida uchrashtirgan holda bozorlar vujudga keltiradi. Mablag'lar jalb qilish odatda vositachilarni, masalan, investitsion banklar, venchurli investorlar, huquqshunoslarni talab qiladi. Blokcheyn ularning ko‘plab funksiyalarini avtomatlashtiradi, to‘gridan to‘g‘ri pirringli moliyalashtirish uchun yangi modellardan foydalanishga imkon beradi, shuningdek, dividendlar yozish va kuponli tolovlarini yanada samarali, shaffof va ishonchli qiladi. Risklarni boshqarish va uning xususiy holati bo‘lgan sug‘urtalash xususiy shaxslar va kompaniyalarni ko‘zda tutilmagan yo‘qotishlar va halokatlardan himoya qilish uchun mo’ljallangan. Kengroq ma’noda moliya bozorlarida risklarni boshqarish oldindan aytish yoki nazorat qilish qiyin bo‘lgan hodisalarni xedjirlash uchun bir talay hosila, murakkab strukturalangan moliyaviy mahsulotlar va boshqa moliyaviy vositalami yuzaga keltirgan. So‘nggi hisob-kitoblarga ko‘ra, barcha ommaviy ochiq bo‘lgan hosila qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati 600 trln dollarni tashkil qiladi. Blokcheyn sug‘urta qilish nomarkazlashgan modeldarini qo’llab-quvvatlaydi, bu risklarni boshqarish uchun hosila qimmatli qog‘ozlardan foydalanishni yanada shaffof qiladi. Insonning ijtimoiy va iqtisodiy kapitaliga, uning harakatlari va boshqa nufuzga oid ko‘rsatkichlarga asoslangan nufuz tizimining o‘zi sug‘urta qiluvchilarga aktuar riskni yaxshiroq tushunish va qarorlardan xabardor bo‘lgan holda qabul qilishga imkon yaratadi.

**Xulosa:** Blokcheyn ham xavfsizligini ta’minalash sifatida peer-to-peer dan foydalanadi. Blokchaynning rivojlanishi natijasida soliq tizimi , yer-kadastr faoliyati bundan tashqari bank tizimi ham keng rivojlanmoqda. 2018-yil 12-noyabr kuni O‘zbekistonda ilk bor – “Dori vositalari , tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizatsiyasi va standartizatsiyasi Davlat markazi” DUK avtomatlashtirilgan reyestlar tizimida blokcheyn texnologiyasining pilot loyihasi joriy etildi. Bu esa blokcheyni farmaseftika sohasida ham o‘rni borligidan dalolat bermoqda.

Blokcheynni afzalliklari kabi xavfli tomonlari ham mafvjud. Nasha bozorida, ko'p miqdordagi oltinlarni sotishda bundan tashqari qul bozorida ham u ancha o'z ta'siri mavjud. Odatiy bo'limgan bu qora bozorda blokcheyn bozor xaridorlari va sotuvchilari uchun juda xavfsiz, maxfiy va qulaydir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 5 Chen, G., Xu, B., Lu, M., Chen, N.-S., 2018. Blockchain texnologiyasini o'rganish va ta'lim uchun potentsial dasturlar. Aqlli o'quv muhitlari 5, 1. <https://doi.org/10.1186/s40561-017-0050-x>
- 6 Geyts, M., 2017. Blockchain. Blatcoin bitcoin kriptografik aqlshartnoma va pulning kelajagini tushunish uchun eng yaxshi qo'llanma. CreateSpace Mustaqil Publishing Platform.
- 7 Ichikawa, H., Kobayashi, A., 2018. Avtonom tarqatilgan blokirovka targ'iboti bilan ishtirokchilar o'rtaсидаги xabarlarni uzatish uchun xabar protokoli, Ishlar - 2017 yil 5-Xalqaro hisoblash va tarmoq bo'yicha simpozium, Candara 2017. <https://doi.org/10.1109/CANDAR.2017.50>
- 8 Peters, GW, Panayi, E., 2016. Blockchain texnologiyalari yordamida zamонавија bankni boshqaruvchilarni tushunish: Tasca, P., Aste, T., Pelizzon, L., Peroni, N. (ed.). Banklar va pullarni tashqarida bank. Springer International Publishing, Cham, Sr. 239-278. [https://doi.org/10.1007/978-3-319-42448-4\\_13](https://doi.org/10.1007/978-3-319-42448-4_13)
- 9 Radziwill, N., 2018. Blockchain Revolution: Bitcoin orqasidagi texnologiya pul, biznes va dunyoni qanday o'zgartiradi. Sifat boshqaruvi jurnali 25, 64-65. <https://doi.org/10.1080/10686967.2018.1404373>
- 10 Yli-Huumo, J., Ko, D., Choi, S., Park, S., Smolander, K., 2016. Blockchain texnologiyasi bo'yicha hozirgi tadqiqotlar qayerda? - Tizimli ko'rib chiqish. PLOS ONE 11 (10), e0163477. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0163477>

YOSHIMOTO BANANANING “OSHXONA“ ASARIDA

QO’LLANILGAN い<(iku) • ゆく(yuku) (BORMOQ) FE’LLARINING

LEKSIK VA SEMANTIK TAHLILI



*Qo’ldosheva Gulmira Shuxrat qizi*

*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura  
bosqich lingvistika yapon tili yo’nalish 2-kurs talabasi*

[gulmirakuldosheva7@gmail.com](mailto:gulmirakuldosheva7@gmail.com)

**Tayanch so’zlar:** izohli lug’at, lug’atshunoslik, leksik tahlil ,semantik tahlil, kontekstli til, omonimlar,analiz,aspekt

**Ключевые слова:** толковый словарь, лексикология, лексический анализ, семантический анализ, контекстуальный язык, омонимы, анализ, аспект

**Key words:** explanatory dictionary, lexicology, lexical analysis, semantic analysis, contextual language, homonyms, analysis, aspect

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladan ko‘zlagan asosiy maqsad yapon tili o’rganuvchilar uchun yapon tilidagi い<(iku)• ゆく(yuku) (bormoq) fe’llaring farqli tomonilarini ochib berish hamda, qo’llanilish usullarini leksik tahlil qilish, so’ngra badiiy asar ichidan ushbu fe’llar qo’llanilgan gaplarni aniqlash,so’ngra ushbu gaplarni yapon tilidagi izohli lug’atlar asosida semantik tahlil qilib, o’xshash va farqli jihatlarini yoritilib berildi.

**Abstract:** The main purpose of this article is to explain to Japanese language learners the different aspects of the Japanese verbs い< (iku) • ゆく (yuku) (to go) and to lexically analyze the ways in which they are used, and then to use these verbs in a work of art. identification of the sentences used, followed by a semantic analysis

of these sentences based on explanatory dictionaries in Japanese, highlighting their similarities and differences.

**Аннотация:** Основная цель этой статьи — объяснить изучающим японский язык различные аспекты японских глаголов いく(iku) • 行く(yuku) (идти) и лексически проанализировать способы их употребления, а затем использовать эти глаголы в художественном произведении. выявление используемых предложений с последующим семантическим анализом этих предложений на основе толковых словарей японского языка с выделением их сходств и различий.

### **Kirish**

Yapon tili o‘zining murakkab tuzilishiga ega yozuvi va yuqori kontekstli til ekanligi bilan boshqa tillardan farq qiladi. Yapon tili kabi murakkab tilni o‘rganish katta mehnatni talab qiladi, shuningdek, katta mashaqqatni bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ijod yoki ish bo‘lganda ham avvalo kuchli xohish, gohida asliyat o‘rganayotgandan ko‘proq izlanish, mehnat, sabr-toqat talab qiladigan, turli xil materiallar ustida ijod qilishdir. Mana shuning uchun ham tilni o‘rganayotgan odamlardan, avvalombor, sabr kerak bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, millatlararo o‘zaro aloqa munosabatlarini kuchli o‘rnatish va yanada mustahkamlashga ehtiyoj kuchaygan sari, xorijiy tillarni o‘rganishga ham talab kengayib boraveradi. Xorijiy tilni o‘rganish tarjima amaliyotida ham muhim hisoblanadi. Xorijiy tilni o‘rganar ekanmiz, o‘sha xalqning urf-odatlari, madaniyati, kelib chiqishi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

Dunyodagi hech bir tilni lug’at boyligi hisoblanmish so’zlarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Har bir til o‘zining lug’at boyligi, grammatik qurilishi asosida vujudga keladi. Yapon tili ham dunyodagi murakkab tillarning biri hisoblanib, unda bir-biriga o‘xshash bo’lgan so’zlar talaygina. So’zlar millatning yashash tarzi, urf-odatlari, insonlar xarakteri, ichki kechinmalarini ko’rsatib beradi. Shularni hisobga

olgan holda har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash talab etiladi. Shuning uchun ham so'zlarning ishlatalish usullarini o'rganish muhimdir.

Hozirgi kungacha O'zbekistonda sharqshunos filologlari tomonidan yapon tilining grammatikasi bo'yicha salmoqli darajada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Afsuski, bu ilmiy izlanishlar orasida yapon adabiyoti, xususan, badiiy asarlarini o'rganib ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy ishlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, yapon adabiyotining jahon miqyosida tanilgan, mashhur yozuvchilarining asarlarini yapon tilidan o'zbek tiliga grammatik jihatdan taxlil ishlari ham juda kam.

Zamonaviy yapon adabiyoti olamida o'zining ko'p sonli o'quvchilariga ega bo'lgan, asarlari dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan, o'zining badiiy tasvirlash usuliga ega bo`lgan yozuvchilaridan biri – Yoshimoto Banananing "Oshxona" asarining o'zbek tili uchun yangiligi va asardagi fe'llalarlar ustidan izlanishlar olib borilmaganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Ushbu tadqiqot ishimizdan ko'zlagan asosiy maqsad yapon tili o'rganuvchilar uchun yapon tilidagi い<(iku)・ゆく(yuku) (bormoq) fe'llaring farqli tomonilarini ochib berish hamda, qo'llanilish usullarini leksik tahlil qilish, so'ngra badiiy asar ichida ko'rib chiqib semantik tahlil qilib, yoritib berish hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagilar asosiy vazifalarini etib belgilandi:

- Yapon tilidagi い<・ゆく(bormoq) fe'llaring ishlatalishini 5ta yapon tilidagi izohli lug'atlari asosida leksik tahlil qilish;
- Yoshimoto Banananing "Oshxona" asaridagi い<・ゆく(bormoq) fe'llari ishlataligan gaplarni aniqlash;
- "Oshxona" asaridagi い<・ゆく(bormoq) fe'llari qanday hollatlarda qo'llanilganligini semantik tahlil qilish;

-Yapon tilidagi \(\cdot\Phi\)(bormoq) fe'llaring 5ta yapon tilidagi izohli lug'atlaridagi va Yoshimoto Banananing "Oshxona" asarida qo'llanilgan holatlardagi o'xhash va farqli tomonlarini aniqlash;

Ushbu tadqiqotning maqsadi qo'yilgan masalalarni yoritish va bilimlarimiz doirasini kengaytirishdir.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning tavsifi.** Tadqiqot ishimizda nazariy va amaliy tarjimashunoslikning asosiy tadqiqot metodlari: qiyoslash, taqqoslash, adabiyotlardan foydalanish va nazariy xulosalarga kelish metodlaridan foydalandik. Shu bilan birga, yapon tili o'qituvchilar bilan suhbat qurib, internet saytlardan ma'lumotalar olib, yapon tilidagi \(\cdot\Phi\)(bormoq) fe'llaring ishlatalishi hamda ularning qo'llanilishi haqida ma'lumotlar olib, bilimlarni mustahkamlab, ma'lumotlar bilan ishslash ya'ni, analiz va tahlil qilish metodlaridan foydalandik.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot ishimizning nazariy ahamiyati shundan iboratki, ushbu ilmiy ishimizning tahlillaridan chiqadigan ilmiy xulosalar va yangilik shu soha vakillari hamda yapon tilini o'rghanuvchilari uchun to'g'ri va aniq lug'at sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, yapon tilida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda ishlatalishi, yapon tilini o'rgatish jarayonida darslik, qo'llanma va lug'at yaratishda, tarjimonlik sohasida ham keng qo'llanishi mumkin. . Ushbu ishimizda tahlil qilingan fe'llarning qo'llanilish usullari, o'xhash va farqli tomonlari kelgusida yaponcha-o'zbekcha hamda o'zbekcha- yaponcha lug'atlar yaratishda manba bo'lib xizmat qila olishi mumkin.

Tadqiqot ishimizning ilmiy ahamiyati shundan iboratki,biz yapon badiiy adabiyotlarida uchraydigan murakkab omonim so'zlarning ishlatalishi va farqli tomonlari hamda umum adabiy tilda tutgan o'rnini ko'rsatib beradi va bu sohadagi tadqiqot tamoyillarini yanada boyitadi. Bundan tashqari, tarjima nazariyasi, matn tahlili,lug'atshunoslik sohalarida ham unumli foydalanish mumkin.

## **XULOSA**

Ushbu tadqiqot ishimizda 「いく・ゆく」(bormoq) fe'llariga aloqador ham leksik, ham semantik tahlil yoritildi. Jumladan, kerakli ma'lumotlar taqdim etildi. Ushbu ma'no jihatdan bir xil bo'lgan fe'llarning o'xhash va farqli tomonlari o'rganilib chiqildi. Ko'rib chiqilgan tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsad amalga oshirish uchun yapon tilidagi 5ta izohli lug'at va Yoshimoto Banananing "Oshxona" asari olindi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ma'no jihatdan bir xil bo'lgan fe'llarni qiyoslab o'rganib ko'rganda, sodda qilib aytganda ,「いく」(bormoq) fe'li asosan, 「ish harakat, o'zgarish, sezish, his qilish 」kabi ma'nolarda, 「ゆく」 (bormoq) fe'li esa aksincha, 「vaqt, hi-tuyg'u, mavhuml narsalarning yo'nalishi」ni ifodalanda qo'llanilishi aniqlandi.

Bunday xulosaga kelishimizga sabab, yapon tilidagi 5ta izohli lug'atlar va Yoshimoto Banananing "Oshxona" asarida qo'llanilgan gaplarning ham leksik ham semantik tahlili natijasidir. Shunday ekan, ushbu tadqiqot natijasidan kelib chiqqan holda, uni yapon tilini o'rganuvchilar ichida tadbiq etish o'rini bo'lishi ko'zda tutilgan.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I. O'zbek tilidagi adabiyotlar:**

- 1.1. Ma'rufov Z.M. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1tom M., "Rus tili" 1981
- 1.2. Raxmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" T., "Universitet" 2000

### **II. Rus tili adabiyotlar:**

- 2.1. Лютерйохон М. Японский язык грамматика разговорник словарь. М.,ACT:Астрель, 2007

2.2. Алпатов В. М., Аркадьев П. М., Подлесская В. И. “Теоретическая грамматика японского языка”. М., 2008

**III. Yapon tilidagi adabiyotlar:**

3.1. 『チャレンジ小学国語辞典第三版』福武書店、1994年

3.2. 『小学新国語辞典第1版』光村教育図書、2002年

3.3. 『デイリーコンサイス国語辞典第3版』三省堂、2002年

3.4. 友松悦子・和栗雅子「初級日本語文法要点整理ポイント20」2004年

ズリー工-ネットワーク

3.5. 許明子・宮崎恵子「レベルアップ日本語文法」2008年

3.6. 『学研現代新国語辞典改訂第4版』学習研究社、2018年

**IV. Internet saytlar:**

4.1. <http://oshiete.goo.ne.jp/qa/3829178.html>

4.2. <http://dic.yahoo.co.jp/dsearch?enc=UTF-8&p=%E3%8...>

4.3. 吉本ばなな「キッチン」における主題の考察

[https://note.com/sumi\\_note/n/n03f3920f727d](https://note.com/sumi_note/n/n03f3920f727d)

4.4. 吉本ばなな「キッチン」における主 [https://note.com/sumi\\_note/n/n03f3920f727d](https://note.com/sumi_note/n/n03f3920f727d)

**АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ  
АСОСЧИСИ СИФАТИДА**

---

*ТДТрУ “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта укитувчиси - З. Н. Бобошев*

*ТДТрУ мустақил тадқиқотчилари - М.Н.Ҳасанов*

*ТДТрУ талабаси - Э.А.Нуруллаев*

*[mirshodhasanov02@gmail.com](mailto:mirshodhasanov02@gmail.com)*

*Тел. +998909511099*

### **Аннотация**

Ушбу мақолада Форобийнинг ҳаёти илмий-фалсафий қарашларида инсон ақл-заковатини бирламчи ўринга қўйғанлиги, Абу Наср Форобийнинг педагогика фанининг асосчиси эканлиги, шунингдек, унинг асарларида кўриб чиқилган педагогик тушунчаларга берилган таърифлар билан янада ойдинлашади. Форобий инсон, унинг дунё тарққиётининг энг мукаммал ва етук якуни сифада этирофи, унинг асарларида инсонга тарбия ва таълим бериш зарурлиги каби масалалар тахлил этилган. Педагогиканинг асосий тушунчаси бўлган ўқитиш ва тарбия ҳақида олим шундай изоҳ беради

**Калит сўзлар:** Форобий, инсон илмий-фалсафий қарашлари, таълим-тарбия, билиш, педагогика, диалектика, Ўқитиш, Ўрганиш, дунёқараш, Замонавий педагогика.

**Кириш.** Абу Наср Форобийнинг педагогика фанининг асосчиси эканлиги унинг асарларида кўриб чиқилган педагогик тушунчаларга берилган таърифлар билан янада ойдинлашади. Педагогиканинг асосий тушунчаси бўлган ўқитиш ва тарбия ҳақида олим шундай изоҳ беради: «Ўқитиш халқ ва халқларда назарий хайрия, таълим эса санъатга асосланган билимлар орқали уларга ахлоқий хайрия беришдир. Ўрганиш факат сўз орқали амалга оширилади, тарбияда инсон ва кишиларда билимга асосланган сифатларга

асосланган ҳаракатларни бажариш малакаларини шакллантиришга ўргатилади. Кўриниб турибдик, бу таърифларнинг метафорик маъноси замонавий педагогикадаги «таълим» ва «тарбия» тушунчалари билан узвий боғлиқдир.

Форобий меросида педагогиканинг асосий тушунчаси бўлган «тарбия» тушунчаси ҳам мавжуд. Замонавий педагогикадаги «Ўрганиш биз учун борлиқнинг келиб чиқишини билиш қуроли, улардан келиб чиқадиган хулосалар – илмий фанларни ўрганишнинг ибтидоси ва воситасидир» таърифи «таълим ўрганиш натижасидир, сўзма-сўз маънода ўз билимини шакллантишидир. Ижтимоий онг шакли сифатида санъат катта рол ўйнайди. Санъат орқали биз дунёни бадиий тан олишга, ҳаётга эстетик муносабатни шакллантиришга, шахснинг фуқаролик ва маънавий инсоний фазилатларини тарбиялашга эришамиз. Эстетик тарбия - инсон ҳаётига, санъатга, табиатга, гўзалликка муҳаббат, ҳислар орқали буюк гўзаллик, тўғри тушуниш, баҳраманд бўлмоқ. Бадиий асос меҳнатни янада муқаддаслайди, ҳаётни гўзаллаштиради ва инсоннинг юксак ахлоқий фазилатларини шакллантиради. Форобий: «Инсоннинг хулқ-атворини яхшилайдиган ҳаракатлар инсон танасини яхшилайдиган ҳаракатларга ўхшайди.

Тананинг комиллиги – саломатлик, агар саломатлик бўлса, уни асраш керак, бўлмаса, унга эришишга ҳаракат қилиш керак. Жисмоний фаоллик нормал даражада бўлса, соғликка эришиш мумкин. Худди шундай, агар биз ўртача даражада ҳаракат қилсанқ, улар орқали яхши хулқ-атворга эга бўламиз. « хулқ-атвори ижтимоий муҳит, тарбиявий таъсир, Инсон иродаси касаллик каби кўплаб объектив ва субъектив омиллар таъсирида шаклланади ва ўзгаради. Форобийнинг фикрича, тарбия топмайдиган, тузатиб бўлмайдиган, йиртилмайдиган ёш йўқ. «Ёмонлик рухнинг касаллигидир. Бу хасталикдан халос бўлиш учун маълум бир касалликни даволовчи шифокордек бўлишимиз керак», — деди олим.

Абу Наср Форобий асарларида ватанпарварлик тарбиясини эътибордан четда қолдирмаган. Форобий – «Бахтга йўл» рисоласида ёшларга қаҳрамонлик, саховат, хайр-эҳсон, қаноат, нотиқлик ва ҳоказолар ҳақида ҳикоя қиласди. бу хислатларни тарбиялаш усулларини баён қиласди. Бу хасталикдан халос бўлиш учун маълум бир касалликни даволовчи шифокордек бўлишимиз керак», — деди олим.

Абу Наср Форобий асарларида ватанпарварлик тарбиясини эътибордан четда қолдирмаган. Форобий – «Бахтга йўл» рисоласида ёшларга қаҳрамонлик, саховат, хайр-эҳсон, қаноат, нотиқлик ва ҳоказолар ҳақида ҳикоя қиласди. бу хислатларни тарбиялаш усулларини баён қиласди. Бу хасталикдан халос бўлиш учун маълум бир касалликни даволовчи шифокордек бўлишимиз керак», — деди олим. Абу Наср Форобий асарларида ватанпарварлик тарбиясини эътибордан четда қолдирмаган. Форобий – «Бахтга йўл» рисоласида ёшларга қаҳрамонлик, саховат, хайр-эҳсон, қаноат, нотиқлик ва ҳоказолар ҳақида ҳикоя қиласди. бу хислатларни тарбиялаш усулларини баён қиласди. Арастудан кейин «Иккинчи муаллим»га айланган жаҳонга машҳур мутафаккир, олим, ҳалқ даҳоси Абу Носир Форобий инсоният тарихида янги педагогик тизимни шакллантириш, уни ҳаётга татбиқ этишда алоҳида ўрин тутади. тарбиянинг умуминсоний ғоялари. Абу Наср Форобий илк педагогик ғоялар ютуқларини қайта тиклай ва такомиллаштира олди. У ҳалқ даҳосига, Шарқ маданиятининг энг яхши намуналарига эътибор бераб, ўзининг педагогик концепциясини ишлаб чиқди. Унинг педагогик концепцияси дидактика ва тарбия назарияси муаммоларини ўзида мужассамлаштирган фундаментал тизимdir.

Абу Наср Форобийнинг тарбиявий ғоялари назарий жиҳатдан ҳар қандай педагогик таълимотнинг бошланғич нуқтаси бўлиши мумкин. айниқса, унинг буюк жамиятни бутун инсоният жамияти сифатида тасвиirlайдиган инсонпарварлик платформаси замонавий педагогиканинг етакчи ғоясидир. Абу Наср Форобий етук инсонни тарбиялаш учун инсон биринчи билим эмас,

билимли бўлиши керак, тарбиясиз таълим инсониятнинг ашаддий душмани, бу эса келажакда унинг бутун ҳаётига фалокат келтиради, деган тамойилни илгари сурган. Аллома шундай улкан ишни амалга ошириди, бу ишга унинг ўтмишдошлари юзаки тўхталиб ўтган эдилар. Бу буюк инсон юонон фалсафасининг энг қийин масалаларининг сўнгги ўзгаришларигача қамраб олди ва кўра билди. Ғарбда қадр-қимматидан ортиқ мақталадиган Авиценнанинг ўзи тан олганидек, у Аристотелнинг метафизикасини орадан юз йилча ўтгандан кейин қўлига Абу Наср Форобийнинг шу китобга ёзилган шарҳи тушгандан кейингина тушунган. Шунинг учун Шарқда фалсафани ҳақиқий, қатъий илмий асосда ишлаб чиқсан киши деб фақат Форобийни ҳисобламоқ лозим». Абу Наср Форобий давлат бошқаруви механизмларини такомиллаштириш ва ҳокимиятни инсонпарварлаштириш учун жамоавий, гурухли бошқарувнинг намунали ғоясини, демократик, адолатли, ақлли раҳбар ғоясини таклиф қилди. Абу Наср Форобийнинг фикрича, жамиятнинг биринчи етук модели «шаҳар-давлат» бошқаруви эди. Яхши жамиятнинг энг барқарор хислати - бу билимдон олим таърифлаганидек, инсоннинг ахлоқий қадриятларига устувор аҳамият беришdir. Бу тамойил замонавий билимлар учун муҳим ва долзарбdir. Донишманд ҳукмдор тимсолида мужассамланган комил инсон ғояси ўзининг юксак чўққисида эди. Бу фикрлар Форобийнинг «Китоб ал-милла» «Дин ҳақида рисола»да ўрин олган. Худо бу дунёни инсон учун яратган. Инсон биринчи ўринда туради. Инсонга унинг инсонийлигини еслатувчи билим, тушунча, назария, шаблондан кўра «устоз» ва «ибрат намунаси»нинг таъсири кучлироқdir. Бу холосага кўра, у инсониятнинг биринчи устози Муҳаммад пайғамбарни «Раис ул-аввал» деб талқин етади.

Бу холоса буюк бобомиз ислом динини илмнинг егизаки деб эътироф етганлигини кўрсатади. Фан, таълим, дин ўртасидаги муносабатларга янгича ёндашувни шакллантириш каби асарлар миллий маънавиятни уйғотиш ва тиклашга катта ҳисса қўшмоқда.

Форобий Худонинг құдрати ва буюклигини таъкидлаган. У кечаю кундуз дуо қилиб, Худодан уни гунохларидан поклашини ва унга покиза ақл беришни сўради. Ўз бандангдан жаҳолат пардасини супуриб, уни барча нуқсонлардан тозала. Ўзинг рози бўлган ишингдан роҳат ол! Аллоҳим! Менинг мақомимни кўтаринг! Мен қилган барча яхшиликларнинг охири бўлсин! Мақсадларимни эзгу қилгин ва амалга оширгин! Эй Машриқу Магрибнинг Парвардигори! Мэнга олийжаноблик ва олийжаноблик бер, пайғамбарларнинг мўжизаларини кўрсат, бойларнинг баҳтини бер, менга доноларнинг ҳикматини, тақвадорларнинг тақвосини кўрсат! Менга ҳақиқатни кўрсатинг! Ёлғонни ёлғонга кўрсатгин Аллоҳим! Доноликнинг энг юқори даражасига олиб келинг ва муқаддас фаришталарингиз дунёсига яқинлашинг! Бу сатрларни таҳлил қилиб, буюк мутафаккирнинг бутун умри Худо томонидан қабул қилинган, деган хulosага келиш мумкин. Сабаби: Абу Наср Форобий дунёга машҳур сиймо, мутафаккир, олим, туркий, ислом олами фалсафасининг юлдузи,

Форобийнинг фикрича, «Ёмон хулқ – рухий касаллик, яхши хулқ-автор ва ақл-заковат асосий инсоний фазилатлардир», «Баҳт – ҳар бир инсон интилевчи мақсаддир», «Ўқитувчининг хатти-ҳаракати меъёри нормалдир». Унинг педагогикаси умумий тақдир тамойиллари: Абу Наср Форобийнинг «Яхши шаҳар аҳлиниң қарашлари» ва «Фалсафага дин керак эмас» ва бошқалар. Унинг фалсафий рисолаларида айланашаҳар табиати сайёрамиздаги ўн саккиз минг оламдан биридаги ҳаётнинг кичик намунаси сифатида олиниб, уни инсониятга баҳт-саодат келтирадиган эзгулик ваadolat сифатида кўрсатади. Бойлик, бойлик ўткинчи дунёнинг ягона ўлчовидир, мавзу, яхши баҳт тушунчаси эса абадийликка йўлдир. Эзгулик ва ахлоқ нури. Қалбида иймонини йўқотган, виждонини тиймаган инсон тақдир илми ва тажрибасини инсоният манфаати учун, яхшилик учун эмас, шафқатсизлик ва ёмонлик учун сарфлай олади. ҳаёт сири.

Абу Наср Форобийнинг ўз даврининг энг муҳим асари дин ва фалсафа ўртасида кўприк бўлган. Унинг фикрича, ҳақиқий файласуф билан пайғамбар ўртасида унчалик фарқ йўқ. Форобий дин ҳақиқатини талқин қилишда донишманд мутафаккирларни пайғамбарлар даражасига тэнглаштиради. Форобий фикрича, энг доно раҳбар тафаккур қобилиятига эгадир. Бу хислатлар Муҳаммад пайғамбарда ҳам бор эди. Шунинг учун Форобий Муҳаммад пайғамбарни «Биринчи раҳнамо» деб билган. Ахлоқий фазилатлар интеллектуал миллатни тарбиялаш, ватанпарварлик фазилатларини эгаллашнинг ягона асосий йўлидир. Абу Наср Форобий қалб поклиги, одамларга меҳр-оқибат, ҳар бир ишда еҳтиёткорлик ҳақидаги фикрлари билан ислом динини оддий одамлар ҳаётига яқинлаштиради. «Қалби иймонга тўла, покиза кишигина Аллоҳ таолонинг меҳрига лойиқдир.» Бундай инсон маънавий етук бўлади. Бинобарин, етук шахсгина (ақл кучи билан) маънавий онг орқали инсон онгидаги худонинг моҳиятини тан олади. Ва шу билан руҳий дунёни тортади. Абу Наср Форобий: «Оlamдаги нарса ва ҳодисаларни ҳиссий идрок етишга асосланган билиш инсон билишининг ташқи асосидир. Ва биз билимнинг ички қисмини мутлақо соф, муқаддас руҳда намоён бўладиган онг фаолияти билан боғлаймиз. Абу Наср Форобий: У фалсафа ва динни бир хил кўриб, ҳар иккисини онгли билимнинг бир тоифаси деб эътироф етиб, фалсафанинг асосий тамойили далил, диннинг ўзаги эса иймондан иборат эканлигини таъкидлаган. Иймон, одоб, ахлоқ, қадр-қиммат, эзгулик изларининг манбаи диний илм ва диндадир.

Дин инсонни гуноҳдан поклаш, одамийликка етаклаш, тарбиялаш воситасидир. Куръон инсоний фазилатларни сингдирувчи эзгу меросдир. Одоб, ҳақиқат ва ҳалолликни ҳурмат қиласидиган хазина. Инсон ҳақиқатларидан бири исботланса, «Куръон оцин», дейди. Лаънат текин эмас. Инсон фарзанди дунёси покиза, виждони мусаффо, бойни, оғзида худоси, қўлида Куръони «Имон жузди»ни ҳурмат қиласиди. Ёки «Ал хаяу шогбатун мин-ал-имон». Арастудан кейинги Буюк Устоз меросида инсон тарбияси билан боғлиқ

қимматли нарсалар кўп. Бинобарин, у нафақат мутафаккир, балки алломаларнинг жаҳон устозига ҳам айланди.

Абу Наср Форобий янги фалсафий тушунчаларни яратди ва шунга мос натижаларга еришди. Бу натижалар динда, диний қонунчиликда, сиёсат ва фанда. Бу киритилган «янгиликлар»да дин Абу Наср Форобий фалсафий тамойиллари ва фалсафий қарашларининг биринчи манбай сифатида қаралади, албатта, бу ерда дин алоҳида фалсафий фан сифатида қаралади. Дин ва фалсафа азалдан бир-бирига қарама-қарши бўлиб келган. Сукротга қўйилган айловлардан бири у диний қадриятларни тан олмагани ва қадрламаслиги (яъни фалсафани диндан устун қўйгани) эди.

Абу Наср Форобий фалсафа ва социология, сиёсат, педагогика, ахлоқ, диалектика ва сиёсат билан қизиқди. Мутафаккир ғоялари ўз давридан олдинда эди. Унинг иши ҳали ҳам долзарбдир. Абу Наср Форобий дунёдаги ҳамма нарсани 6 даражага ажратади. Улар бир-бири билан яқин алоқада эканликларини айтишди. Биринчи босқич - бу ҳамма нарсанинг туғилиши. Иккинчи босқич - ҳамма нарсанинг пайдо бўлиши. Учинчи босқич - ақл ёки ривожланаётган ақл. Тўртинчи босқич - бу рух. Бешинчи босқич - бу шакл. Бу олтинчи масала. Бу олти босқич инсон ва атроф-мухитнинг шаклланишига таъсир кўрсатди, деган фалсафий ғоядир. Буни ҳисобга олган ҳолда, ал-Форобийнинг таълим-тарбиявий таълимотида фалсафа, педагогика, дин барча фанлар йелкама-йелка туради. Ислом таълимоти ва Форобий мероси ўзаро боғланган. Дин инсоният онгини забт этганига қарамай, замон нуқтаи назаридан унинг фалсафадан кечроқ пайдо бўлганлигини кўришимиз мумкин.

### **Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendation).**

Хулоса қилиб айтганда, Абу Наср Форобий фалсафий меросида Форобий идрок ва ақл, унинг ичида, мазмуни ва чегаралари ҳақидаги саволларни ечиб, инсон билиш жараёнига чукур кириб борса, ақлни шунчалик аниқ англай пайдо бўлади, деган аниқга келади. Форобий асарларида онтология

муаммолари билан бир қаторда гносеология масалалари ҳам фаол ривожланишига. Демак, ал-Форобий борлиқ талқинининг муҳим қисмларидан бири, у Биринчи Сабабнинг Зотини қолган дунё борлигига қарши чиқмайди. Моҳиятан, бу икки мавжудот ёки борлиқнинг икки қутби бирдир. Форобий олинган таҳлил қилинган дунё худосининг ўзаро муносабатлари ҳақида ўзбек тадқиқотчиси М.Хайруллаев кўчириб олинган каби ўзининг барча хусусиятларини очади ва бўш кучиб, ўз ҳаётини мустақил равишда давом эттиреди.

**REFERENCES :**

1. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. –Т.: Ўзбекистон, 1971. 141-бет.
2. Бурабаев М.С., Кенесарин А.М., Курмангалиева Г.К. Проблемы бытия и познания в философии аль-Фараби.– С.59.
3. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата. 1973. –399
4. Мъянвият юлдузлари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 78.
5. Аль-Кифти. Таърих-ул-хукамо. – Техрон, б.г. – С. 379

**МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ**

***М.Н.Ҳасанов***

*ТДТрУ “Ижтимоий фанлар” кафедраси мустақил тадқиқотчи*

***Б.З.Зайниддинов***

***О.А.Абдухалилов***

***Д.Д.Джурайев***

*ТДТрУ талабалари*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Меҳнатда инсонни шакланишдаги аҳамият, Ҳар томонлама етук, баркамол авлодни етиштиришда меҳнат тарбиясининг роли ва ўрни беқиёс қаттадир. Инсоннинг кундалик турмуш тарзи меҳнат ва фаолият билан боғлиқдир. Шу сабабли, меҳнат бутун моддий ва маънавий бойликларнинг ижтимоий тараққиётнинг негизидир.

**Калит сўзлар:** Меҳнат, инсон, таълим-тарбия, тарбиялаш, Ахлоқ, диалектика, меҳнатсеварлик, Жамият, дунёқараш, ақл.

**Кириш.** Ҳар томонлама етук, баркамол авлодни етиштиришда меҳнат тарбиясининг роли ва ўрни беқиёс қаттадир. Инсоннинг кундалик турмуш тарзи меҳнат ва фаолият билан боғлиқдир. Шу сабабли, меҳнат бутун моддий ва маънавий бойликларнинг ижтимоий тараққиётнинг негизидир.

Инсон барча мавжудотлар ичida хатти – ҳаракатларининг, фаолиятларининг кўплиги ва хилма – хиллиги билин ажралиб туради. Меҳнат ана шу хатти – ҳаракатларнинг аниқ мақсадга йўналтирилган қисмидир. Ахлоқшунос Абдулла Шернинг “Ахлоқшунослик” китобида меҳнатсеварлик тамойилига қўйидагича тариф келтирилган:

Меҳнатсеварлик тамойили меҳнат жараёнида шахснинг ўз – ўзини намойиш этишга, ўзлигини рӯёбга чиқаришга, ўзгалар билан муносабат ўрнатишга имкон яратувчи ахлоқий фазилатдир. У инсондаги ҳалолликни, интизомни, иштиёқ ва интилишни талаб этади, меҳнатга нисбатан субектив

тарздаги ижобий муносабатни тақозо қиласи. Мехнатсеварликни тарбиялаб бориша, уни кучайтиришда рақобат алоҳида аҳамиятга эга. Зоро, рақобат фақат моддий устунликни эмас, балки маънавий устунликни ҳам тақозо этади, яъни унда моддийлик ва маънавийлик тенг иштирок этади. Мустақиллигимиз шарофати билан меҳнат яна эркин шахнинг ўзига ва атрофдагиларга индивидуал муносабатга айланди, “моҳиятан беш қўл баробар бўсин” деган тенглаштириш сиёсати барҳам топди. Мехнатсеварлик эса янги жамиятимиз кишисининг, жаҳонний кенглиқка чиқиш ҳуқуқига эга бўлган шахснинг севимли ва ҳузурбахш тамойилига айланди.<sup>1</sup>

Мехнатсеварлик тамойили меҳнат жараёнида шахснинг ўз-ўзини намойиш этишига, ўзлигини рўёбга чиқаришига, ўзгалар билан муносабатлар ўрнатишига имкон яратувчи ахлоқий фазилатdir. У инсондан ҳалолликни, интизомни, иштиёқ ва интилишни талаб этади, меҳнатга нисбатан субъектив тарздаги ижобий муносабатни тақозо қиласи. Мехнатсеварлик шахсни ҳар томонлама ривожлантиришнинг ажralmas қисмидир. Шунингдек, индивиднинг ҳар томонлама шаклланиш воситаси, унинг шахс сифатида улғайиш омили ҳамдир. Мунтазам қилинган меҳнат жараёнидагина инсон ўз ақлини иродасини, ҳиссиётини, характерини ривожлантириши, шахс сифатида шаклланиши мумкин. Ёшларимизларимиз мустақил Ўзбекистонимизнинг бўлғуси қурувчилариидир. Шу сабабли кадрлар тайёрлаш миллий дастури ва бошқа хужжатларда уларни меҳнатга қай даражада тайёрлашга алоҳида эътибор берилмоқда. Шундай экан, меҳнат ёшларимиз учун ҳам зарурат, ҳам бурч бўлиши, бунинг учун уйда ҳам, ўқув юртларида ҳам меҳнат қилиш учун шароитлар яратилиши лозим. Бу жараёнда катталарнинг ибрати муҳим рўл ўйнайди. Мехнатда инсон айни пайтда ҳам ақлий ҳам жисмоний томондан тарбияланиб, маънавий юксалиб боради. Бироқ меҳнат оғир мажбуриятга айланган жойда унинг бу хусусиятлари йўқолади. Шу сабабли меҳнат ҳар жиҳатдан юксак самара бериши учун эркин бўлиши, меҳнат жараёни ижодий ва қизиқарли кечиши лозим. Мехнат эркинлигини, унга эркин муносабатни

---

<sup>1</sup> Абдулла Шер, Ахлоқшунослик, “Ўзбекистон файласуфлари жамияти”, Т.: 2010 йил 85-86 бет.

шакллантириш қадим замонлардаёқ ҳам муҳим масала бўлиб келган. Меҳнатни енгиллаштириш, эркинлаштириш мақсадида инсон қадимдан уни бадиийлаштиришга, эстетиклаштиришга интилган. Бунга ҳалқ оғзаки ижодидаги меҳнат турларига бағишлиланган қўшиқлар яхши мисолдир. Шу орқали ота-боболаримиз эстетик меҳнат муҳитини яратишга, уни завқли бўлишига ҳаракат қилишган.

Бундан ташқари Ўрта аср мутаффакирларининг ахлоқий таълимотларида ислом дини муҳим аҳамият касб этади. Ислом дини, унинг муқаддас китоби «Қуръон»да ва Ҳадисларда Аллоҳга, унинг пайғамбари бўлмиш Муҳаммад алайҳиссаломга эътиқод қилиш билан бирга ота-онага ҳурмат, меҳнатсеварлик, илмга интилиш, аҳиллик, меҳр-оқибат, эҳсон, сабр-тоқат, камтарлик, вафо, садоқатлилик, одоб-ахлоқли бўлиш ҳақида кўплаб ахлоқий фикрлар айтилган.

Меҳнатнинг ахлоқий қиймати унинг жамият учун қанчалик аҳамиятга эга эканлиги билан белгиланади. Меҳнат хар бир инсонни ўз меҳнатининг ижтимоий аҳамиятини тушунтириб беради, унинг жамият хаётига кириб боришига, ўзини шу жамиятнинг аъзоси деб хис қилишига имкон яратади.

Меҳнатнинг ёшларни ақлий томондан ривожлантиришдаги аҳамияти шундаки, меҳнат жараёнида улар борлиқни фаол англай бошлайдилар, дунёни материалистик идрок этиш имконияти яратилади. Ҳар бир инсонга ёшлигидан меҳнат тарбияси бериш инсонни эстетик ва жисмоний жихатдан хам ривожлантиради.

Ақлий ва жисмоний меҳнат – кишилар ўртасида тарихан таркиб топган меҳнатнинг асосий шакллари. Жисмоний меҳнат кўпроқ кишиларнинг қўл кучи, жисмоний фаолияти билан боғлиқ. Жисмоний меҳнатдан фарқ қиласиган ақлий фаолият ҳам тарихий характерга эга бўлиб, жамиятнинг маънавий тараққиётидан бевосита келиб чиқади. Айни пайтда бундай қараш одамзотни иккита катта гурухга – моддий ва маънавий бойликларни ишлаб чиқарувчиларга ҳамда жисмоний меҳнат ва ақлий меҳнат кишиларига ажратишга сабаб бўлади, деган нотўғри қарашга келиб қолмаслик лозим.

Собиқ СССР даврида устувор бўлган бундай ёндашувларнинг барчаси ҳаётий заминдан ажралган бўлиб, масаланинг асл моҳиятини ифода этади. Аслида тараққиёт натижасида кишиларнинг ишлаб чиқариш фаолиятида ақлий ва жисмоний куч ўзаро уйғун тарзда намоён бўлади, бири иккинчисини тўлдиради ва тақозо қилади. Жамият равнақ эта боргани сари жисмоний меҳнат ходимларининг билим савияси, малакаси, иш унумдорлиги оша боради, шу билан бирга, ақлий меҳнат кишиларининг онги ҳам бойиб боради. Чунки зиёлининг ҳам, малакали ишчининг ҳам, фермер ёки дехқоннинг ҳам туб манфаатлари бир – Ватан равнақи, халқ фаровонлигидир. Уларнинг барчаси бир халқнинг фарзандлари, бир мамлакатнинг фуқаролариидир. Масаланинг моҳиятига шундай қараган ҳолда фикр юритмоқ зарур. Қолаверса, кишилик жамияти яралибдики, унда ижтимоий меҳнат тақсимоти сақланиб келмоқда. Бирор дехқончиликка ёки чорвачиликка, бирор савдога ёки саноатга, бирор муаллимликка ёки олимликка ва ҳокозо бошқа ҳунарларга табиатан мойил. Ҳар ким ўз лаёқати, қўлидан келадиган юмушни бажариш, ўзи танлаган соҳа билан шуғулланишга интилади. Ҳар бир фуқаро қонун имкон берган соҳаларда фаолият кўрсатиб, ҳалол меҳнат қилиб, фаровон яшаши, ақлий ёки жисмоний меҳнат билан шуғулланиши, тадбиркор бўлиши ёки мулқдорлар сафига қўшилиши мумкин. Бу ҳуқуқлардан, тили, дини ва миллатидан қатъий назар, барча фуқароларнинг фойдаланиши учун зарур шароит ва имкониятлар бор. Меҳнат тарбиясида ютуқларга эришишда ёшларни меҳнатга ҳам руҳан, ҳам амалий жиҳатдан тайёрлаш лозим. Шунинг учун уларнинг ёши ва имкониятларига мос меҳнат турларини бажаришга жалб қилмоқ лозим.

И.Логинованинг олиб борган илмий тадқиқот ишларида такидлашича ёшларга меҳнат тарбияси бериш учун улар меҳнат ва меҳнат малакалари тўғрисидаги билимлар системасини ўзлаштириб олишлари керак экан;

1. Меҳнат мақсад қўйиш ва унинг натижасини белгилаб олишдан бошланади; мақсад- меҳнат тасвири.

2. Мехнат қилишдан кўзланган мақсад бўйича керакли материалларни танлаб олиш.

3. Материални ишлаш учун керакли асбобларни танлаб олиш.

4. Натижага эришиш учун меҳнат харакатларини бажариш<sup>2</sup>.

Мехнат ижтимоий тараққиётнинг манбаи барча моддий ва манавий эхтиёжларни қондиришнинг асосий шарт – шароитидир, шу билан бирга инсон хаётий фаолиятининг асосий шаклидир. Мехнат қадимдан жамиятнинг аъзосининг вазифаси, шахс тараққиётининг асосидир. Мехнат қадимдан жамиятнинг ахлоқий принципи хисобланиб келинган.

Мехнат – фақат шахсий фаровонлик манбаигина эмас, балки халқа хизмат қилиш, ватанимиз гуллаб яшнаши унинг қудратини оширишнинг асоси хамдир. Маданиятли киши меҳнатсевар бўлиб етишади. Мехнатни севмайдиган ва қадрламайдиган одамдан маданиятли киши чиқмайди. Инсоннинг онглилиги тарбияланганлиги аввало меҳнатга бўлган муносабатида кўринади.

Мехнат инсонни улуғлайди, гўзалликка чорлайди. Мехнат қилмайдиган инсон хаёти зерикарлидир. У маънавий қашшоқ, жисмоний заиф бўлади. Узок умр кўриш сири хам меҳнатдир. Мехнат қилмасанг хатто буюк истедод хам сўнади, меҳнат хар қандай қобилятни ривожлантиради. Терлаб пишиб қилинган меҳнат эрта хосил беради, меҳнатдан қобилят, қобилятдан истедод, ундан кейин эса дахолик пайдо бўлади. Хаммасининг замирида сидқидилдан қилинган меҳнат ётади. Маълумки, меҳнат инсоннинг мақсадга мувофиқ тарзда ақл ёки куч воситасида амалга ошириладиган фаолияти. Ибтидоий даврларда меҳнат асосан мажбурийлик табиатига эга бўлган: Қадимги одам қорин тўйдериш учун кўп ва оғир меҳнат қилгани бизга яхши маълум. Кейинчалик иш қуролларининг такомиллашуви, янгидан янги ишлаб чиқариш воситаларининг олиб келди. Фан-техника тараққий топган ҳозирги даврда

---

<sup>2</sup> Абдураҳмонов К.Х., Холмўминов Ш.Р. «Мехнат иқтисодиёти ва сотсиологияси». Тошкент-2004 йил, 7-16 бетлар.

одамлар асосан муайян касбий тайёргарликдан кейин меҳнат фаолиятини бошлайдилар.

Меҳнат ибтидоий даврларда иш қуроллари безашдан бошлаб, бугунги кундаги дизайнгача санъат билан ёнма-ён келади. Ишлаб чиқариш макони, воситалари ва жараёнларининг гўзаллашиб бориши меҳнатни инсондан, инсонийликдан наридаги фаолият эмас, балки ички эҳтиёжга, маънавий ходисага айланиб бораётганлигини билдиради. Ана шу яратиш эҳтиёжи меҳнатни нафақат ижтимоий, балки эстетик эҳтиёж даражасига ҳам кўтаради.

Меҳнатнинг ана шу ижодийлик, бунёдкорлик хусусиятлари санъатда ўз аксини топиб келган. Меҳнат ва меҳнаткашлик улуғланган бадиий асарларни барча санъат турларида учратишимиз мумкин. Ҳозир ҳам барча санъат турларида меҳнат-баҳт манбаи, меҳнатсеварлик-юксак ахлоқийлик тарзида инъикос эттирилади.

Бу меҳнатнинг санъат билан билвосита боғлиқлиги, уларнинг бевосита алоқадорлиги ҳам мавжуд. Санъаткорнинг меҳнати бунга яққол мисол бўла олади. Масалан, Шукур Бурхон ижро этган “Шоҳ Эдип” спектаклидаги Эдип роли буюк актёрнинг улкан исътедоди билан бирга жуда катта меҳнатининг ҳам маҳсулидир.

Меҳнатга психологик, ахлоқий, эстетик ва амалий тайёрлаш жараёнида ёшларда меҳнатсеварлик, интизомлилик, шижаоткорлик каби ахлоқий иродавий хусусиятлар тарбияланиб боради, ёшларда жамоатчилик билан бирга меҳнат қилиш кўникмаларини ҳосил қилиш лозим. Чунки инсон бутун ҳаёти давомида кўпчилик билан меҳнат қиласиди. Бу жараёнда ёшларда меҳнат қилиш маданиятини ўстирмоқ даркор.

Ёшлар меҳнати дастлаб оиласада, кейин эса ўқув юртларида амалга оширилади. Таълим тўғрисидаги қонуннинг 13- моддасида таъкидланганидек, “касб-хунар коллеж ўқувчиларнинг касб-хунарга мойиллиги, маҳорати ва малакасини чукур ривожлантиришни танланган касблар бўйича бир ёки бир неча ихтисос олишини таъминлайдиган уч йиллик ўрта касб - хунар ўқув

юртидир.”<sup>3</sup> Ёшлар меҳнатининг мазмуни мамлакат олдида турган ижтимоий, сиёсий ва иқтисодий вазифалар, вилоят ва туманлардаги кадрларга бўлган эҳтиёж, ўқув юртларининг ички имкониятлари ва талаблари асосида белгиланади. Аввало, таълим жараёнида меҳнат ҳақида дастлабки билим ва тасаввурларга эга бўладилар, ўқиш ҳам меҳнат эканлигини тушуниб оладилар. Ўқув режасига киритилган меҳнат дарсларида эса, меҳнат қилиш малакаларини эгаллайдилар. Бу жараёнда ўз меҳнатларининг натижасини кўриб завқланадилар ва янада яхшироқ меҳнат қилишга ҳаракат қиласидилар. Этика ва эстетика фанлари меҳнат тарбиясини ташкил қилишда бир нечта талаблар қўяди: Жумладан, меҳнатнинг ижтимоий ахлоқий аҳамиятига алоҳида эътибор бериш, меҳнат инсоннинг ёши, ҳаёт тажрибаси ва имкониятларига мос бўлиши, уларнинг меҳнат фаолиятлари ижодий ҳаракатда бўлиши, ўз вақтида турли касблар ҳақида маълумотлар бериб борилиши, меҳнат ахллари билан доимо сухбат ва учрашувлар ташкил қилиш кабилар.

Меҳнат инсон ҳаётининг зарурий шартидир. У инсон учун фақат материал, ижтимоий зарурият эмас, балки маънавий-рухий эҳтиёж ҳамdir. Инсон боласининг ёшлигидан меҳнатга эҳтиёжий ҳаваси генетик физиологик асосга эга. Болаларда бир ёшдан бошлаб кенг ижодий фаолият шаклланади. Шу кенг фаолият жараёнида болаларнинг қизиқиши, имконият, қобилият ва лаёқатли қўринишларини топа билиш лозим. Эстетик англаш Ёшлигдан фаолиятга ижобий муносабатга ўргатиш лозим.<sup>4</sup> Меҳнат тарбияси фан асосларини ўрганиш жараёнида ёшларнинг олган билимларининг аниқ мақсадга йўналганлигини, ишлаб чиқариш жараёнининг илмий асосларини, билим ва касбий қизиқишларини кўзда тутади. Газзолийнинг гўзаллик ҳақидаги фикирлари қуйидагича “гўзаллик ҳақидаги фикрлари, моддий мадавният ва маънавий мадавният иккиласми табиат инсон томонидан меҳнати орқали яратилган гўзалликдир”.<sup>5</sup>

---

<sup>3</sup> «Таълим тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни». – Т., 1997 йил 29 август 20-29 б.

<sup>4</sup> Й. Садуллаев. Меҳнат тарбияси оиласдан бошланади. Илмий мақола. Н.: -2013 йил.

<sup>5</sup> А. Зуннунов. Оиласда бола шахсини шакллантириш. Кўлланма. Т.: -2006. 105-106 бет.

Меҳнат тарбияси оилада ғоят қўламдор ҳолда амалга оширилади. Оила бошлиқлари ва болаларнинг биргаликдаги меҳнатини ташкил қилиш ниҳоятда катта имкониятларга эга. Касб танлаш масъулиятли ишдир, ўз ҳаёт йўлларини жиддий суръатда белгилаб бориш муҳим масала. Бунинг учун ўқув даргоҳларидағи политехника системасида тўгараклар муҳим ўрин тутади, фан тўгаракларида ёшлар политехник савия, билимларини кенгайтиради, касб танлашга тайёрланишади. Касбга йўналтириш умумий ўқув тарбия жараёнида амалга оширилиши керак, ёшларни касбга йўналтиришда ота-оналар ҳам манфаатдор. Шунинг учун ҳам ёшларнинг ота-оналари билан алоқа бўлиши лозим. Меҳнат тарбияси эстетик тарбия билан чамбарчас боғлиқдир. Бугунги голбаллашув шароити ёшларда эстетик тафаккурни тарбиялаш айниқса муҳим. Зоро, бу тўғрида ғамхўрлик кўрсатилмоқда, педагогларимиз тадқиқотлар олиб бормоқда.

#### **АДАБИЁТЛАР:**

1. Абдулла Шер, Ахлоқшунослик, “Ўзбекистон файласуфлари жамияти”, Т.: 2010 йил 85-86 бет.
2. Абдураҳмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. «Меҳнат иқтисодиёти ва сотсиологияси». Тошкент-2004 йил, 7-16 бетлар.
3. Й. Садуллаев. Меҳнат тарбияси оиладан бошланади. Илмий мақола. Н.: - 2013 йил.
4. А. Зуннунов. Оилада бола шахсини шакллантириш. Қўлланма. Т.: -2006. 105-106 бет.

**ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-  
ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ**

*Тошкент давлат транспорт университетининг “Ижтимоий фанлар”*

*кафедраси мустақил тадқиқотчилари*

**М.Н.Ҳасанов**

*ТДТрУ талабалари*

**Б.Ж.Бекмуратов, Б.Ш.Турғунов, У.С.Маматқұлов**

[mirshodhasanov02@gmail.com](mailto:mirshodhasanov02@gmail.com)

Тел. +998909511099

**Аннотация**

Ушбу мақолада Форобийнинг илмий-фалсафий қарашларида инсон таълим-тарбиясига алохидат этибор қаратилғанлиги, Абу Наср Форобий инсоннинг мақсади баҳт, унга ақл билан эришиш мүмкін деб ҳисоблаган. Мутафаккир жамиятни давлат билан тенглаштирган. Жамият инсон организми. "Хайрихоҳ шаҳар барча аъзолари тирик мавжудотнинг ҳаётини сақлаб қолиш учун бир-бирларига ёрдам берадиган соғлом танага ўхшайди."

**Калит сўзлар:** Форобий, инсон камолоти, таълим-тарбия, тарбиялаш, педагогика, диалектика, Ўқитиши, Ўрганиш, дунёқараш, ақл.

**Кириш.** Барчамизга маълумки, Марказий Осиё уйғониш даври (Ренессанс) даври фалсафасида буюк қомусий олим, Фаробийнинг ўрни беқиёс. Шарқда “муаллим ас-соний” ( Аристотелдан кейинги иккинчи муаллим) унвонига сазовор бўлган аллома ижодига назар ташласак, Шарқда жамият ҳақида яхлит концепция яратган, Шунингдек, Комил инсон масаласи ҳақида муҳим фикрларни илгари сурган. Фаробийнинг фалсафий қарашларига кўра, ҳамма нарсанинг боши ҳар доимгидек Аллоҳдир. Ўртаси эса мавжудотларнинг иерархиясидир. Инсоният дунёни тушунадиган ва унда ҳаракат қиласидиган оддийгина ногирон деб таърифлайди. Унинг

қарашларининг охири эса ҳақиқий баҳтга эришишдир Абу Наср Форобий инсоннинг мақсади баҳт, унга ақл билан эришиш мумкин деб ҳисоблаган. Мутафаккир жамиятни давлат билан тенглаштирган. Жамият инсон организми. "Хайрихоҳ шаҳар барча аъзолари тирик мавжудотнинг ҳаётини сақлаб қолиш учун бир-бирлариға ёрдам берадиган соглом танага ўхшайди." Фаробий ҳақиқатан ҳам ўзининг ижодий ютуқларида араб, форс, юон, ҳинд ва ўз турк маданиятини ўрганган ва умумлаштирган жаҳон даражасидаги одам эди. Турк маданияти акс-садоси унинг машҳур Китоб ал Мусиқ ал Кабир (Буюк мусиқа китоби) асарида яққол қўринади. Абу Наср Форобий қўлёзмалари дунёning кўплаб кутубхоналарида мавжуд. Фаробий ижодини ўрганаётган олимларнинг сони ҳам шунча кенг. Абу Наср Форобий асарларини нашр этган ва унинг ҳақиқий энциклопедик меросининг турли қирраларини ўрганган олимлар фаробийшуносликка ўз хиссаларини кўшмоқдалар. Яхилий парадигмаси "мен ва бошқалар" ўртасидаги алоқа воситаси сифатида исломий покликда "табиий" (Қуръон) транссенденцияларнинг соддалиги ва равшанлигини очиб беради, олимнинг дунёни англашга бўлган қарашлари нақадар теран маъно касб этишини кўришимиз мумкин.

Дарҳақиқат, биз ислом антропологияси ҳақида гапирганда, биз шунчаки транссенденсия ғояси, катталаштирувчи маъно асосида очилган инсон муаммосини назарда тутмаймиз. Инсоннинг мақсади, одамнинг муаммоси, унинг инсонийлигини англаш истиқболларини кашф этишда намоён бўлади. Исломий гуманизм - бу контсепцияда "намоён бўлган" ҳодиса сифатида инсонга илоҳий ваҳийдир, аммо уни амалга ошириш кундалик ҳаёт амалиётида фақат бир марта, инсоний гуманизм қонун амалиёти сифатида амалга оширилганда содир бўлиши керак. Ҳатто менинг ўзимнинг намоён бўлишимни Мен ва бошқаларнинг инсонпарварлиги деб талқин қилиш мумкин, чунки мен фақат онгли равиша инсонпарварлик амалиёти бўлар эдим, шунингдек, замонавий шахсни шакллантириш коммуникатив алоқалардан ташқарида бўлиши мумкин эмас эди.

Агар насронийликда инсон ўзини ноёб одамга айлантириш учун Масих йўли орқали ўзини намоён қилган бўлса, демак, Исломда инсон кундалик турмуш тарзи туфайли шахсга айланади. Тақво ва солиҳлик инсоният ўлчови сифатида кундалик ҳаётда бирлаштирилиб, янада такомиллашиб боради.

Абу Наср Форобий идеаллари ва ижтимоий-гуманитар тараққиёт инсоннинг кундалик ҳаёт амалиётида аслида қандай бўлишининг моҳиятини очиб беради. Абу Наср Форобий нинг шахс ҳақидаги қарашлари ислом гуманизми инсонпарварлиқдан устунлигини бевосита тан олади. Олимнинг қуидаги сўзлари инсон антропологиясини чуқурроқ ўрганишда шубҳасиз долзарбдир:

Ўзига нисбатан ростгўйлик, инсон ўзига хос яхши фазилатларни, ўзида мавжуд бўлган яхши ишларни белгилагандагина пайдо бўлади. Агар бирор нарса ўзига хос бўлган нарсани эмас, балки ўзига хос бўлган нарсани ўзига боғлаб қўйса, у ҳолда у ўзини ўзи намоён қиласди. "

- "Инсон ақл туфайли одам бўлди".
- "Гўзалликка эришиш мақсади бўлган санъат дейилади фалсафа ёки мутлақ маънода донолик. "
- "Ҳар қандай нарса яхши бўлган вақтдагина яхши бўлади".
- "Тана шифобахш - шифокор, рухни даволовчи - давлат арбоби, ҳукмдор деб номланган. "
- «Рух, танага ўхшаб, соғлиқ ва касалликка хосдир. Рух саломатлиги ўзи ва унинг қисмлари ҳолатлари шундай эканлигига ётади ҳар доим яхши ишлар амалга оширилади, яхши ишлар ва ажойиб ҳаракатлар. "
- «Инсонга табиий равишда фазилат берилиши мумкин эмас, худди у туғма тўқувчи бўла олмаслиги каби.

Аммо у табиатан давлатларга мойил бўлиши мумкин, уни бошқасидан кўра бир ҳаракатни қилишга ундейди. "

- «Донолик - бу боғлиқ бўлган узоқ сабабларни билишдир мавжуд нарсаларнинг қолган қисми ва нарсаларнинг бевосита сабаблари,

сабаблари бор "[3,].

Бироқ, бу ерда бир асосий савол туғилади: Абу Наср Фаробий инсоннинг ҳақиқий борлиғи - унинг табиий борлигини табиий мавжудот ёки унинг ижтимоий борлиғи сифатида ифодалашни нима деб ҳисоблайди? Фалсафа билан профессионал равишда шуғулланадиган одамлар учун маълумки, ҳаётнинг табиий ва ижтимоий ўлчамлари ҳамма одамлар учун бир хил ва шу билан бирга ҳар бир инсонга хосдир. Бунда ҳар қандай шахс ҳаётнинг баъзи жиҳатларига устунлик бериши ва шу билан уларнинг мавжудлигини белгилаши мумкин. Абу Наср Фаробий антик давр фалсафаси таъсирида Юнонистон инсониятнинг ўзини англаш жараёнининг обектив асосларини аниқлашга ҳаракат қиласа мумкин. Инсон учун асосий нарса нима бўлиши керак - унинг табиий табиат эҳтиёжлари ёки ижтимоий талаблари? Бу саволга жавоб бериш осон туюлади. Амалий ҳаётда, одатда, одамлар ўзларининг шахсий эҳтиёжларини жамоат талаблари билан бирлаштиришга ҳаракат қилишади, уларнинг хулқ-атвори ва турмуш тарзини белгилайдилар. Инсон ўз-ўзини англаш ҳақиқатининг обектив асоси сифатида жуда зиддиятлидир. Ушбу қарама-қаршиликларни акс эттирувчи умумий тамойиллар бир-бирини истисно қилиши ва шу билан бирга борлиқ ҳақиқат моментларини ўз ичига олиши мумкин.

Инсон ва жамият ўртасидаги муносабатни ушбу йўналишда ҳисобга олган ҳолда, индивидуал, ижтимоий ва сиёсий тажрибани умумлаштирган ҳолда, Абу Наср Фаробий ўзининг асл ижтимоий-фалсафий контsepциясини ишлаб чиқди. Ижтимоий-сиёсий ҳаётни ўрганишда у Аристотел цингари қуидаги принципдан келиб чиқди: ҳамма жойда бўлгани каби, назарий қурилишнинг энг яхши усули бу бошланғич таълим предметларини қўриб чиқишидир. Бундай таълим, у одамларнинг биргалиқда яшашга ва сиёсий муроқотга бўлган табиий мойиллигини кўриб чиқади. Мутафаккирнинг фикрига кўра, инсон сиёсий мавжудотdir, яъни ижтимоий ва у биргаликда яшашга бўлган инстинктив истакни келтириб чиқаради. Аристотелнинг кучли таъсирида бўлган Фаробий, инсоннинг энг юқори яхшиликка эришиши,

In the twentieth century, metaphor became a phenomenon that unites research in various fields of knowledge and forms a new vector of scientific research. Works in the field of conceptual metaphor gave motivation to the study of cognitive processes of consciousness. Metaphorical thinking is manifested in the metaphorical nature of language, where metaphor acts as an important mental operation that forms a way of knowing, categorizing, conceptualizing, evaluating and explaining the world. [Grady, et al, 1999]. With the help of metaphor, a person thinks and learns about the world in which he lives.

Theory of conceptual metaphor (TCM) and theory of conceptual integration (TCI) are closely connected with each other. It should be noted that TCI was developed by J. Fauconnier and M. Turner on the basis of the theory of mental spaces [Fauconnier, 1997] in order to improve the theory of conceptual metaphor by J. S. Miller. Lakoff and M. Johnson [Lakoff, Johnson 1999]. This new search was prompted by TCM's inability to explain individual metaphors based on conventional relationships between the two conceptospheres. Thus, the first fundamental difference between these two theories is the number and quality of the basic sources of entry into the conceptual metaphor, which in TCM are called domains, and in TCI mental spaces.

In TCM, metaphors are analyzed as "a stable and systematic relationship between two conceptual domains" – the target domain (the conceptual sphere of the

target) and the source domain (the conceptual sphere of the source). The target domain, which is interpreted through a conceptual metaphor, is a conceptual referent, and the source domain being compared is a conceptual correlate. The referent and the correlate must belong to different conceptual spaces, that is, be "divorced in thought" [Grady et al, 1999]. Thus, in TCM we are dealing with a form of conceptualization that relates not to individual objects, but to areas of social experience, which in turn are correlated through metaphor with simpler spaces that can be observed through the transfer of the nature of the conceptualization of space.

In TCI, unlike TCM, the main element of cognitive organization is not the domain, but the mental space. Mental spaces are compact formats of knowledge interconnected within the discourse, which can be modified as it unfolds. Mental spaces are not equal to a domain, but rather depend on it: they represent certain scenarios that are structured by domains. This means that mental spaces are generated online in the process of communication and are unique to a particular situation, while domains represent more general structures of knowledge that are associated with permanent areas of the thinking space.

A significant difference between the two theories is also their structural organization. TCM analysis operates by mapping between two conceptual structures, while TCI provides for connections between several (at least four) mental spaces.

After analyzing TCM and TCI, the following conclusions can be drawn:

1. Both theories are based on metaphor as a cognitive mechanism, which provides the processes of perception, processing and transmission of information about the surrounding world;
2. In TCM, metaphors are analyzed as permanent relationships between two conceptual spheres, while in TCI metaphors are refracted through mental spaces, which are short-term formations that are modified as discourse unfolds;
3. TCM is based on conventional conceptual metaphors, and TCI explains new metaphorical conceptualizations that reflect the author's idiosyncrasies;

4. Both theories reveal the cognitive processes of both logical and imaginative thinking, making them a powerful tool for interpretation.

The cognitive approach to the analysis of metaphor occupies a leading place in modern science, and the application of the theory of conceptual metaphor and the theory of conceptual integration are inextricably connected. In our opinion, the application of TCM and TCI in our practical research should provide an impetus to the study of metaphor as a mechanism of cognition.

#### **REFERENCES:**

1. Fauconnier, G. *Mappings in Thought and Language* / Gilles Fauconnier. – Cambridge : Cambridge University Press, 1997. – 205 p.
2. Grady, J., Oakley, T., Coulson, S. *Blending and Metaphor* / J. Grady, T. Oakley, T. Coulson // *Metaphor in Cognitive Linguistics* / Ed. by R. Gibbs, Jr. and G. Steen. – Amsterdam; Philadelphia : John Benjamins, 1999. – P. 101–124.
3. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By* / G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
4. Lakoff, G., Johnson, M. *Philosophy in the Flesh: the Embodied Mind and its Challenge to Western Thought* / G. Lakoff, M. Johnson. – New-York : New York Basic Books, 1999. – 624 p.
5. [www.thoughtco.com](http://www.thoughtco.com)

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**

---

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika*

*fakulteti 1-bosqich magistri*

***Melliyya Dilfuza***

*Tel: +998 99 758 02 75*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi holati va uning bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan yoritib o'tilgan bo'lib, keltirilgan tavsiyalar bolalar aqliy rivojlanishida amaliy yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Aql, idrok, tafakkur, intellekt, mustaqil fikrlovchi, iqtidorli, bilim, ta'lif, irodasi baquvvat, iymoni butun.

So'ngi yillarda Yangilanib borayotgan O'zbekiston iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Bu yo'ldagi chuqur o'zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib bormoqda. Jumladan, tibbiyotmi, qishloq xo'jaligi sanoatimi, ta'lif tizimimi - barchasida tub islohotlar o'tkazish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, ta'lif sohasida tub islohotlar omiliga aylandi desak, xato bo'lmaydi. Ta'lif-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston sharoitida mustaqil fikrlovchi yoshlarning bo'lishi davr taqozosidir, chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan siyosatning bosh omillaridan biri ham teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgalar fikriga qaram

bo‘lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma’naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir.

Ta’limdagi yangilanish faqat o‘quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o‘zgartirishni ham ko‘zda tutadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan 28 yanvar 2022 yil videoselektor yig'ilishida "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz. Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, mutlaqo yanglishadi. Maktab ta'limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyorolar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin", - deb ta'kidlaganliklari, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan vazifalarni belgilab beradi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida 31- Avgust 2020 yil O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdilar. Uchinchi Renessans vakillari albatta irodasi baquvvat, iymoni butun, mustaqil fikrlaydigan komil insonlar bo‘lishlari lozim.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli-oliy natijasidir. U faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi. Narsa va hodisalarining mavjudligi aloqadorlikdan iboratdir. Aloqadorlik buzilsa, mavjudlikda ham o‘zgarish ro‘y berishini anglash, isbotlash, tushuntirish, fikrlash shakllanishining tadrijiy bosqichlaridir. Fikrlash insonga hayot baxsh etadigan kuchdir. Ya’ni, inson mustaqil fikrlash orqali tirik. Fikrsiz inson yaratish va o‘sishga qodir bo‘lmagan o‘lik jussaga aylanadi.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasalar, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir»<sup>1</sup> degan edilar birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Ta’limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligining past bo‘lishiga olib keladi. Fikrlash qobiliyati rivojlangan o‘quvchigina bilimlarni mustahkam o‘zlashtiradi. Shu sababli o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish juda muhim.

O‘quvchilar faqat darslik va o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida beriladigan ma’lumotlarga tayanib qoldilar. O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablar ularda mustaqil fikr yuritish ehtiyojini tug‘dirmaydi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida tegishli soha bo‘yicha davlat ta’lim standartlarida belgilangan minimal majburiy talablarga tayanish lozim. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatish zaruriyati, qolaversa, mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko‘zlab, xalq ruhiyatiga singib qolgan mute’lik, jur’atsizlik kabi illatlarni tugatish uchun ham lozimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta’lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o‘quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta’lim jarayonining obyekti bo‘lib qolmasdan, ta’lim jarayonida o‘qituvchining teng hamkoriga aylansin va mustaqil fikrlay olish malakasini ham egallay borsin.

Inson tafakkurining beqiyos kengliklari xususida «Qur’oni Karim» va «Avesto»da diniy asosda talqin qilingan bo‘lsa, o‘rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar ilmiy-badiiy usulda talqin

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999-y. – 410 b. 5-bet.

qilganlar. So‘nggi davrlarga mansub olimlarning asarlarida esa ilmiylik uslubi ustunlik qiladi.

Shavkat Mirziyoyev 2019-yil sentabr oyida Toshkentda prezident maktabining ochilishi munosabati bilan o‘quvchilarining ota-onalari, ilm-fan arboblari bilan o‘tkazilgan uchrashuv vaqtida O‘zbekistonda uchinchi Renessans davri boshlanganini ta’kidlagan edilar.

Mustaqil mushohada yuritish inson hayoti va faoliyatida muhim omil ekanligini Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyoning «Kitob tib ar-Ruhoniy» asarida ham uchratish mumkin. U mustaqil fikrlay olish qobiliyati va uning hayotiy mohiyati xususida shunday deb yozadi: «Nafaqat o‘qish, balki o‘qiganini muhokama qila olish, o‘qiganini ba’zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatigina tabibni tabib qiladi».

Roziy asarlarida inson bilan hayvon o‘rtasidagi farq ham fikrlash uchun berilgan aqlida ekanligi haqida fikr yuritiladi: «... Bizga foydali bo‘lgan ishlarda o‘zimiz hukm yurita olishimiz uchun bizga hayvonlarga nisbatan ustunlik aql bilan berilgandir».

Xuddi shunday dunyoqarash Yaqin va O‘rta Sharqdagi ilg‘or pedagogik ta’limotning asoschisi Abu Nasr Forobiy asarlarida ham mavjuddir. U bilim o‘zlashtirish jarayoni haqida shunday deydi: «Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo‘lga kiritadi ... seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi...<sup>2</sup> ».

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslariga oid izlanishlar davomida o‘quvchilarining fikrlash faoliyatida individual va tipik xususiyatlari mujassamlashadi. Voqeа va hodisalar inson ongida aks etar ekan, inson idrok qilgan va xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma’lum ma’no va mohiyat kasb etadi. Aks holda u eslab qololmaydi.

---

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185- bet

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi erkin, demokratik vaziyatning yaratilishi o‘quvchini bilim, ko‘nikma va malakalar egallash jarayoniga rag‘batlantiradi. Umumiy ta’lim maktablari ta’lim-tarbiya tizimida o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv asosida o‘rgatishga yetarli e’tibor qaratilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999-y. – 410 b. 5-bet.
2. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006-y.
3. Karimova V. Psixologiya. –Toshkent: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y.

**INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI**

---

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika  
fakulteti 1-bosqich magistri*

***Qodirova Oysoat***

*Tel: +978085419*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning bugungi kundagi holati va uning bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan yoritib o'tilgan bo'lib, keltirilgan tavsiyalar bolalar aqliy rivojlanishida amaliy yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Aql, idrok, tafakkur, intellekt, mustaqil fikrlovchi, iqtidorli, bilim, ta'lif, irodasi baquvvat, iymoni butun.

Yangilanib borayotgan Yangi O'zbekistonimizda olib borilayotgan barcha islohotlaming maqsadi davlatimz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Ta'lif sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'lif-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Inklyuziv ta'lifning barqarorligini ta'minlash maqsadida “Ta'lif to'g'risida”gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lif jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lif maktablari, maktabgacha ta'lif muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lifni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatida imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasi, inklyuziv ta'lifning hamma uchun ochiqligi, ta'lif tizimining o'quvchilarning rivojlanish

salohiyatlari, o'ziga hos xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi, imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalarini, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish va bir qancha tamoyillar asosida tashkil etish belgilab berilgan.

Inklyuziv ta'limni shakllantirish va amaliyotga jori etilishi yo'zasidan pedagogika va psixologiya sohasi olimlari XX asrning ikkinchi yarimdan ilmiy izlanishlar olib borib, XXI asrda ko'p rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekistonda ham joriy etildi. 2003 yilda Respublikamizda "Talim hamma uchun" Milliy dasturi ishlab chiqildi. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib muammolarni isloh etish va istiqbollari tahlil qilindi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim mакtablarining katta bo'lмагan qismlari sifatida faoliyat yuritardi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimda o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'r ganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga

oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan ilmiy jihatdan ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir.

Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun mutaxassislar bo'limganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integrasilashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun - moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtaсидаги то'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

Rus psixologi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi, boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiylar va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni etirof etgan.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, xoh u maxsus maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lsin, xoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruuhlar bo'lsin, xoh uyda ta'lim olish bo'lsin - o'qitishning barcha shakllari -ta'lim

sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi. Chunki, o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasinig huquqi hisoblanadi.

Psixologlarning fikricha iqtidor ham, ruhiy nuqsonlar ham go'yoki tug'ma alomatlardir. Buyuk shaxslardagi talantni rivojlantirib, ruhiy nuqsonlarni hech bo'lmasa kamaytirish mumkinmi? Psixogenetiklar bu muammo ustida bosh qotirmoqdalar, tarbiya va ta'limning buyuk shaxslarni voyaga yetkazishga ta'sirini o'rganmoqdalar. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda bu muammoga katta e'tibor qaratish kerak. Zero, har bir buyuk shaxs yoki daho millionlab odamlarning taqdirini hal qiladi, chunki siyosat bilan shug'ullanadigan ba'zi "dohiyalar" xalqlar ustiga kulfatlar yog'dirgan va yog'dirmoqdalar.

Inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyatlari cheklangan bolalarning har tamonlama rivojlanishi, jamiyatga moslashuvi va o'z o'rniga ega bo'lishi, tarbiyachining bilim va mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi - pedagog ta'lim beradigan sinfida imkoniyatlari cheklangan bola bo'lsa, unga mehrubonlik ko'rsatib, sinf jamoasidan uni qo'llab quvatlashlarini so'rab samarali psixologik muhitni tashkil eta olsa, imkoniyatlari cheklangan bola ruhlanib rivojlanish jarayoniga amaliy ta'sir etkazadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. T.: 2008 yil.
2. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi.-Toshkent . «Iqtisod-moliya» 2008 yil.
3. Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi. T., 2005 yil.
4. Solso K. Kognitivnaya psixologiya. M.:2002.

*O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti  
“Sotsiologiya” yo'nalishi talabasi  
Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi*

**Annotatsiya:** Inklyuziv ta'lif bu barcha bolalarning ijtimoiy holatidan qat'i nazar bolalarga normal hayotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarning erishishiga imkon berish jarayonidir.

**Аннотация:** Инклюзивное образование – это процесс, позволяющий детям приобретать знания, необходимые им для развития нормальной жизни, независимо от их социального статуса.

**Annotation:** Inclusive education is a process that allows children to acquire the knowledge they need to develop a normal life, regardless of their social status.  
**Annotation:** Inclusive education is a process that allows children to acquire the knowledge they need to develop a normal life, regardless of their social status.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lif, qonun, "Umum ta'lif", "Maxsus ta'lif", "Inklyuziv maktab".

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, право, «Общее образование», «Специальное образование», «Инклюзивная школа».

**Keywords:** Inclusive education, law, "General education", "Special education", "Inclusive school"

O'tgan yillar davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida ma'lum bir sezilarli ishlar amalga oshirildi. Biroq inklyuziv ta'lif tizimini joriy qilish faqatgina asosan shahar miqyosida bo'lib qishloq hududlarida hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'lifdan chetda qolib ketmoqda.

Bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Inklyuziv ta'lim tushunchasi rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Umuman olganda, inklyuziv ta'lim umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha uchun ta'limning mavjudligini nazarda tutadi, bu alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim mahalliy ta'lim tizimi uchun ma'lum bir yangilikdir, shuning uchun uni modellashtirish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida malakali boshqaruvni talab qiladi. Inklyuziv ta'lim shakli ta'lim jarayonining barcha sub'ektlariga taalluqlidir: nogiron bolalar va ularning ota-onalari, normal rivojlanayotgan o'quvchilar va ularning oilalari, o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi boshqa mutaxassislar, ma'muriyat, tuzilmalar va boshqalar. Shu sababli, umumiy ta'lim muassasasining faoliyati nafaqat nogiron bolani o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratishga, balki o'qituvchilar o'rtaida o'zaro tushunishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim va tarbiya uzoq muddatli strategiya bo'lib, mahalliy ish sohasi sifatida emas, balki umumiy ta'lim tizimining barcha sohalarda faoliyatini tashkil etishga tizimli yondashuv sifatida qaraladi.

Inklyuziv ta'limning jahonda rivojlanishiga qaraydigan bo'lsak bevosita rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaymiz. Masalan:

Buyuk Britaniyadagi inklyuziv ta'lim bu mamlakatda uzoq tarix va an'anaga ega bo'lган maxsus ta'lim bilan birgalikda ishlaydi. Garchi inklyuziv ta'lim qonuniy ravishda mustahkamlangan va rivojlangan bo'lsa-da, lekin maxsus alohida maktablar o'z faoliyatini davom ettirmoqda va ota-onalari ular uchun ushbu ta'lim yo'lini tanlagan bolalar uchun ta'lim maydonining bir qismi sifatida qaraladi.

30 yildirki, nogironligi bois e'tiborga muhtoj millionlab amerikaliklar "Nogiron shaxslar uchun ta'lim qonuni" doirasida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqda. 1970-yil AQSh maktablarida nogiron bolalarning har beshtasidan faqat bittasi ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lган xolos. 1979-yili "Barcha nogiron bolalar uchun ta'lim " qonuni qabul qilingandan so'ng vaziyat o'zgardi va ular ham

barcha bolalar singari ta'lim olish imkoniyatini berdi. Bugun esa AQShda oliv o'quv yurtlarini bitirgan imkoniyati cheklangan mutaxassislar ish topishda barcha qatori teng huquqlarga ega.

Yuqoridagi jumlalardan rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'limning qaydarajada rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiylim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "Maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilar, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida erkin ta'lim olishi va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni shakllantirish hamda ularni ijtimoiy muhitdan uzilib qolmasligini ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ma'lum bir afzalliklari mavjud:

- Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shila boshlashadi;
- Fikrlash qobiliyati teran ravishda o'sadi;
- Sifatli ta'lim olishda hamda kelajakda Universitetlarda o'qishi, o'zi xohlagan kasbni tanlash va mana shu kasb doirasida ishslash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati;
- Maktab yoki bog'chaga o'z uyidan, ota – onasining bag'ridan qatnash imkoniyati;
- Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari bo'lgani kabi kamchiliklari ham mavjud. Masalan: maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo'lgan pedagog, psixolog hamda boshqa mutaxassislarning yetishmasligi, o'quv binolarining ehtiyojli bolalarning

imkoniyatidan kelib chiqqan holda jihozlanmaganligi, maxsus darslarning yetishmasligi va boshqalar.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, O’zbekistonda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish har bir fuqarolarning ijtimoiy jihatdan teng ekanliklarini yana bir bor o’zida aks ettiradi. Inklyuziv ta’limning zamirida INSON QADRI atalmish buyuk tuyg’u yotadi. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Inson qadri barcha narsadan ulug””.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. <https://www.unicef.org>
2. <https://xs.uz>
3. <https://hozir.org>

**BUXORO SHARQ DURDONASI**

*Fayzullayeva Sohiba Rasulovna.*

*Buxoro viloyati, Buxoro shahri, 2-sonli umumiy o`rta ta`lim  
maktabi Tarix fani o`qituvchisi  
Kuybisheva Oydin Pulatovna.*

*Buxoro viloyati, Buxoro shahri, 2-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi  
ingliz tili fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro shahri nomi tarixiy obidalari va dunyoga mashhur taniqli bo`lgan shaxslari haqida yoritilgan .

**Kalit so`zlar:** Nyumi, so`g`d, tarix ,estetik, masjid, madrasa,zindon, Injil, Zardushtiylik, Ayub , Islom cho`qqisi, Buxoroi sharif, muqaddas shahar.

Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma`lumotlarga ko`ra, Buxoroga miloddan avvalgi VI asrda asos solingan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara –Hayvonat, o`simlik dunyosi betakror , ko`l va oqar suvlarga boy bo`lib, tarixchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi ” asaridagi ma`lumotlar buni tasdiqlaydi.

Shuningdek, shaharning yoshini aniqlash maqsadida butun Buxoro vohasi bo`ylab – Poykent qo`rg`oni, Vardonze, Romitan, Varaxsha, Xo`jabo`ston, Oqsochtepa va boshqa shahar xarobalarida keng arxeologik qazishmalar olib borildi va quyidagicha xulosaga kelindi: ”Zarafshon daryosining quyi oqimidagi manzilgohlar (Miloddan avvalgi 2-ming yillikning 2-yarmi ) dayoq vujudga kelgan”.

Buxoro shahri qadimda qanday nomlangani noma`lum. Milodiy V asrga oid Xitoy manbalarida Buxoro shahri **Nyumi** tarzida tilga olinib kelgan . Binobarin, shaharda shu nomdagi mulk hukumdorining qarorgohi ham bo`lgan.Tan imperiyasining VII asrga oid salnomalarida Buxoro shahri An (Ango), Ansi, Bixo,

shaklda qayd etib o`tilgan. Keyinchalik shahar har xil nomlana boshlagan. Arab qadimiylarida u Bumiskat , Madinat us-sufriya, Numijkat ( so`g`dcha numij yoki namich degani mashhur degan ma`noni anglatadi) tarzda keltirilgan. Qadim zamonalarda yashagan mahalliy mualliflarning fikricha , shaharning nomi Buxor , ya`ni “Sanamlar turgan ibodatxona’ ma`nosini anglatuvchi bir so`zdan kelib chiqqan. Etimologlarning fikriga ko`ra Buxoro nomi sug`diylarning “buharak” so`zidan kelib chiqqan va “baxtli joy ” deb tarjima qilingan.

O`rta asrlarda Buxoro Markaziy Osiyodagi barcha Musilmونlarning muqaddas shahri bo`lgan edi, bunda nafaqat diniy hurmat e`tabor, balki estetik tuyg`ular ham ifodalangan.

Yirik poytaxt-markaz bo`lgan Buxoro shahri nafaqat o`zining masjid-u madrasalari, maqbara-yu mozorlari bilan, balki saroylar-u, hashamatli uylar,karvon-saroylar, hammomlari va ko`p gumbazli savdo majmualari bilan mashhur edi. Shaharda ko`chalarning kesishuvida –guzarlarda qurilgan Toqi Zargaron (“Zargarlarning Gumbazi”), Telpakfurishon (“Telpaklar sotuvchilarning gumbazlari”) va Toqi Sarrafon (“Pul almashtiruvchi sarroflarning gumbazlari”) saqlangan, ular hozirgacha savdo rastalari sifatida ishlatilmoqda.

Buxoroda Samoniylar davri inshoatlaridan Samoniylar maqbarasi - Markaziy Osiyodagi eng ko`hna musilmon me`moray inshoati va butunlay pishiq g`ishtdan ilk bino bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Samoniylar davridayoq Buxoro o`tmishiga bag`ishlangan asarlar paydo bo`la boshlagan. Shunday asarlardan biri Muhammad Narshaxiy tamonidan Samoniy Nuh ibn Nasr uchun yozilgan ”Buxoro tarixi ” asaridir.

Islomda eng Muqaddas shaxslardan biri shayx Bahovaddin Naqshband, so`filer ta`limotining asoschisi, buxorolik misgar edi. Shayxning go`rini ziyorat qilish Makkaga borib bajariladigan haj marosimiga tenglashtirilar edi. Bahovaddin Naqshbandning maqbarasi hozir ham shaharning eng muqaddas joyi deb hisoblandi. Buxoroda dunyoga taniqli bo`lgan Narshaxiy,Yirik shoir Rudakiy va Daqiqiyalar yetishib chiqqan.

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi.

1997-yilda YuNESKO ning qaroriga ko`ra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishollagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo`lishini tarixiy shaxs Zardushtiylik xudolaridan biri- Siyovush bilan bog`laydi. Buxoroning eng qadimgi qismi uning qal`asi- Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar Milloddan avvalgi IV-III asrlarga oid bo`lgan ba`zi topilmalar borligini aniqlashgan. Bu balandligi 20 metr bo`lgan tepalik bo`lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning xarami, xazinasi, qurol-yarog`i saqlanadigan xonalari, o`ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo`lgan. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda.

Buxoroning eng qadimgi yodgorliklaridan biri X-asrning boshida Samoniylar sulolasining asoschisi tamonidan qurilgan Ismoil Samoniy maqbarasidir. Samoniylar maqbarasi O`rta Osiyoning memorchiligida bizgacha yetib kelgan, pishiq g`ishtdan qurilgan birinchi bino bo`lib, bunda g`ishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlatilgan.

Shaharning asosiy va eng baland ko`tarilgan inshoati – 1227-yilda qurilgan Kalon minorasidir. Buxoroning sathidan 47 metr ko`tarilib turgan ulkan minoradir.

Chashma-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII-asrga oid. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg`ambarlardan biri Ayub (lov) Buxoroning bu suvsiz qismidan o`tayotganda hassasi bilan yerga urgan- natijada bu yerda toppa-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo`lgan. XIV asrda Amur Temur o`zining yurishlaridan birida olib kelgan Xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo qilgan.

Bundan tashqari Buxoroda Bo'yonqulixon maqbarasi, Ulug'bek madrasasi, Mir Arab madrasasi, Qo'shmadrasa majmuasi, Chor Bakr me'moriy majmuasi, Xo'ja Zayniddin masjidi, Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi xonaqohi, Abdulazizzon madrasasi kabi inshoatlari bor

Musilmon allomalari, Mutafakkirlarning , me`morlarning va shoirlarning ko`p asrlik ijodiyoti tufayli shahar “Islom cho`qqisi”, “Buxoroi sharif”, “Muqaddas shahar” kabi faxrli unvonlarda musharraf bo`lgan. O`ylaymizki Buxoro shahri haqiqatdan ham shu unvonlarning barchasiga loyiq.

Xulosa o`rnida, hozir Buxoro hududida bir asrdan ko`proq vaqt oldin qurilgan, turli davrlarga tegishli bo`lgan 140 dan ortiq yodgorliklar, daha va mavzelar saqlanib qolgan . Buxoro nazm va ertaklar shahri deb ham ataladi, chunki butun eski shahar afsonalar va hikoyalar bilan o`ralgan .

Qadimiy sharqona ertakning muhitiga tushib qolishni istasangiz , Buxoroning eng diqqatga sazovor joylarini ziyyarat qiling.

- Poi-Kalon me`moray yodgorligi
- Ark qal`asi
- Samoniylar maqbarasi
- Chashmai Ayub maqbarasi
- Magaki Attari masjidi
- Mirzo Ulug`bek madrasasi
- Mir arab madrasasi
- Labi Hovuz ansambili va boshqalar.

Shaharning tarixiy qismi 1993 yilda YUNESKOning Umumjahon merosi ro`yxatiga kiritilgan.

Biz mana shunday go`zal shaxarda yashar ekanmiz bundan unimli foydalanib ingliz tili fani o`qituvchilari bilan birgalikda shaxrimizga kelgan chet el fuqorolari va turistlarga qo`limizdan kelguncha yordam berib shaxrimiz haqida qiziqarli ma`lumotlar berishga harakat qilamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Herman Vamberi “Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi”. 1990-yil
2. Hushboq Rahim “Buxoro qasidasi” Toshkent 2010-yil G`afur G`ulom nashriyoti.
3. Samoviddin Husenov “Chor Bakr” Toshkent 2001-yil Sharq nashryoti.
4. “Buxoro sharq durdonasi” Sharq nashryoti 1997-yil 318-bet

POLIMERLARNING HAQIDA UMIY TUSHUNCHALAR

*Surayyo Absoatova Erkin qizi*

*Denov tabdirkorlik va pedagogika instituti, Kimyo fani o'qituvchisi*

*Xadicha Mengliyeva Abduxamit qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Kimyo fani o'qituvchisi*

*Aziza O'ktamova Azamat qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazukur maqola Polimerlar erishdan oldin bo'kishi, yuqori bo'kish erishning birinchi bosqichiligi. Bo'kishni boshqarish yuqori darajadagi molekulyar modda operatsiyani yutadi harakatlari ortishi haqida.

**Kalit so'zlar:** Erituvchi molekula, kinetik effekt, g'ovaklarda joylashishi, polimerning erishi.

Yuqoridagi molekulyar birikmalar, foydalanish quyi molekulyar moddalarga o'xshab, har qanday sharoitlarda erimaydi. Ba'zi bir nazoratlarda polimer o'z-o'zicha erisa, bazilarida umuman erimasligi mumkin. Masalan, polistirol benzolda o'z-o'zicha eriydi, lekin suvda erimaydi. Jelatina esa suvda yaxshi erib, spirtda erimaydi. Demak, birinchi navbatda ishlash polimer va erituvchi orasida o'zaro moyillik kuzatiladi, boshqa sharoitlarda ham moyillik kuzatilmaydi. Yuqorimolekulyar birikmalarning erishi quyi molekulyar birikmalarning erishilishidan farq qiladi. Polimerlar erishdan oldin bo'kadi, yuqori bo'kish erishning birinchi bosqichidir. Bo'kishni boshqarish yuqori darajadagi molekulyar modda operatsiyani yutadi harakatlari ortadi, yashash va cho'ziluvchan bo'lib qoladi. Hajmi hatto 10-15 marta ortadi. Yuqoridagi molekulalarni birlashtirgan holda amalga oshiriladigan molekulalari kutilayotgan polimer modda o'rtasida tarqaladigan natijalarga erishildi. Erituvchi molekula asosan amorf polimerlarining makromolekulalarida ishlaydigan g'ovaklarda joylashadi va asta-sekin makromolekulalarni bir-biridan ajrata qiladi. Vaqt o'tishi bilan makromolekulalar ko'rib bog 'lanish susayadi va makromolekula asta-sekin erituvchi molekulalari o'rtasida tarqaladi, natijada chin eritma hosil bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, bo'kish erish oldidan bo'ladigan kinetik effektdir. Polimerlarni molekulyar massasi katta katta bo'ladi, uning erishi va bo'kishi shunchalik qiyinlashadi va aksincha, harakat molekulyar massa kamaysa shunchalik polimerning erishi quyi molekulyar modlalaming erishiga o'xshab ketadi. Haqiqatdan ham, quyi molekulyar modda eriganida erigan moddaning molekulalarini erituvchi molekulalari atrofida tarqaladi, yaxshi bo'kish jarayoni kuzatilmaydi. Bo'kish chekli va cheksiz bo'ladi. Cheksiz bo'kish. Yuqorida aytib o'tilganidek cheksiz bo'kish erishning birinchi bosqichi bo'ladi, umumiy polimer

zanjirlari bir-biridan ajraladi va quyi molekulyar erituvchi molekulalari bilan aralashadi. Polimerlarni sotib olishning asosiy xususiyati shundan iborat, erish davridagi aralashgan komponentlarning molekulalari katgaligi va harakatchanligi bo'yicha bir-biridan bir necha ming marotaba farq qiladi. Ishlash quyi molekulyar eritish molekulalari juda harakatchan bo'ladi va polimerga erituvchi o'zaro munosabatda bo'lgan molekulalari polimer orasiga kira ish va polimer zanjirlarini bir-biridan ajratadi, yaxshi bo'kish sodir bo'ladi; kam harakatchan bo'lgan makromolekulalarning quyi molekulyarlarni rivojlantirish fazasiga tarqalishi va ma'lumot vaqt talab qiladi. Demak, polimerning erishilgan jarayonidan oldin doimiy ravishda kuzatiladi. Bo'kkан polimeri, keng miqyosli quyi molekulyar operatsiyaning polimeridagi eritmasi, ma'lumot vaqtini tozalash bilan birga mavjud bo'lish mumkin. So'ngra makromolekulalar bir-biridan ajralib turadi va asta-sekin erituvchi molekulalari orasiga tarqalib bir jinsli eritma hosil qiladi. Demak, cheksiz bo'kish ikki nazoratining ézaro aralashmasiga o'xshagan jarayondir. Uning bajarilishi uchun xos bo'lgan farqli komponentlardan birining zanjirsimonligi va bukiluvchanlidigadir. Buning uchun agar polimer molekulalari sferik tuzilishga ega bo'lsa, ular erishilgan bo'lolmaydi. Masalan, molekulyar massasi 800000 bo'lgan glikogen molekulalari sferik tuzilishga ega bo'lganligi uchun erishilgan bo'lolmaydi. Chekli bo'kish. Bo'kish har doim ham erish bilan tugayvermaydi. Xtagdi. Buning sababi polimer bilan eritilishini cheklash aralashtirildi. Ish jarayonini boshqarish tizimida ikkita faza hosil bo'ladi, yukorimolekulyar birikmaning erituvchidagi to'yingan eritmasi va eritmasining polimeridagi to'yingan eritmasi (iviq). Bunday chekli bo'kish doimiy ravishda muvozanatda bo'ladi, yuqori darajadagi darajaga binoan polimerning kattaligi o'zgarmas bo'lib qoladi (agar tizimda ishlamaydi). Bo'kishning bunday turi xavflarning chekli aralashishiga ta'sir qiladi. Chekli erish bilan boradigan bo'kishni polivinilxlorid-aseton va polixloropren-benzin va boshqa tizimlarda kuzatish mumkin. Chiziqli va to'rsimon polimerlaming bo'kishi bir-biridan farq qiladi. Chiziqli polimerlar uchun bu jarayon ikki bosqichning chekli aralashishiga ta'sir qildi. cheklangan sharoitda cheklangan erishga o'tishi mumkin. Chekli bo'ktirish sabablarini ko'rib chiqish: polimer zanjirlarining o'zaro ta'sirlanish energiyasi ulaming erituvchi molekulalari bilan ta'sirlanish energiyasidan kelib chiqishi, natijada zanjirlar bir-biridan to'liq ajratilmaydi. Haroratning ortishi zanjir molekulalari ishlab chiqarishni uzadi va chekli bo'kishga yordam beradi. Chekli bo'kishni yana bir sababi, polimer zanjirlarining choklanishidadir. Choklanish holati polimeri to'rsimon moddaga aylanib qoladi va molekulalararo hamkorlikdagi polimer molekulalarining eritmasiga o'tishga xalaqit beradi. Misol tariqasida vulkanlangan kauchukning benzolda bo'kishini ko'rish mumkin.

Bo'kish jarayoni bo'kish darajasi  $\alpha$ - bilan tavsiflanadi:


$$\alpha = \frac{m - m_0}{m_0} \quad \text{еки} \quad \alpha = \frac{V - V_0}{V_0} \quad \text{еки} \quad \alpha = \frac{V - V_0}{m_0} \quad (4.1)$$

bu yerda:  $m_0$ ,  $V_0$ - polimerning bo'kishgacha bo'lgan massasi va hajmi;  $m$ ,  $V$ - polimerning bo'kkandan keyingi massasi va hajmi.

Bo'kish darajasi  $\alpha$  vaqt bilan o'zgaradi. Polimer b'ekishining kinetik egrisi chizig'i 13-rasmida keltirilgan. Egrini chiziqning abssissa o'qiga parallel bo'lgan qismiga to'g'ri kelgan qismi maksimal yoki muvozanatli bo'kish darajasi  $\alpha_{max}$  deyiladi.  $\alpha_{max}$  qiymati polimerning bo'kishga bo'lgan qobiliyatini miqdoriy baholovchi o'lchov hisoblanadi. Bo'kishning vaqt bilan o'zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{d\alpha}{dt} = K(\alpha_{max} - \alpha) \quad (4.2)$$

bu yerda:  $d\alpha/dt$ - bo'kish tezligi;  $K$ - bo'kish tezligi konstantasi;  $dt - t$  vaqtda yutilgan suyuqlik miqdori.



13-rasm. Choklangan polymerlarning kinetikasi.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Polimerlarning bo'kishi va erishi (71-75 betlar.)

**ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНО-РАЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ  
УЧРЕЖДЕНИЙ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА**

*Акрамова Чинора Алишер кизи*

*Магистрант I-курса*

*«Ташкентский Архитектурно-Строительный Институт»,  
Узбекистан.*

**Аннотация:** В статье рассмотрены вопросы совершенствования культурного досуга поселенческих структур, которая должна соответствовать общемировыми тенденциям стремительного инновационного развития всех сфер жизнедеятельности человека, сменой его досуговых приоритетов и, проблемами организационно-управленческого и ресурсного характера, в частности моральным, материально-техническим износом существующих культурно-досуговых учреждений города, их финансовой недоступностью для многих категорий горожан и сосредоточением в центрально-производственной локации городского пространства

**Ключевые слова:** культурно-развлекательные объекты, пространственная кластеризация, пространственная неоднородность, образ города, публичное пространство.

**Введение**

С быстрым развитием городов потребление культуры и развлечений стало важной частью жизни жителей. То схемы пространственного распределения объектов культуры и развлечений стали важными показателями для измерения качества жизни жителей и уровня социально-экономического развития. В связи с нагруженными рабочими днями и тяжелой жизнью люди остро нуждаются в культурных и развлекательных

мероприятиях для удовлетворения своих духовных и культурных потребностей.<sup>1</sup>

Рост производства и богатства еще больше высвобождает социальные потребности людей и стремление к развлечениям. Потребление культуры и развлечений не только ограничено развитием социальной экономики, но и взаимодействует с социальной атмосферой.

Поэтому понимание распределения культурных и развлекательных объектов полезно для понимания региональных особенностей культуры в определенной степени. Являясь важной функцией города и важной частью городской пространственной структуры, пространственное распределение культурных и развлекательных объектов не только связано с пространственной структурой города, но даже влияет на восстановление городских функций.

В условиях быстрого экономического развития и пространственных изменений существуют огромные различия в предоставлении культурных услуг между различными регионами и между городскими и сельскими районами, а также в пределах города существуют разнообразные группы с различными потребностями в культурных и развлекательных услугах. Поэтому понимание того, как оптимально организовать культурные и развлекательные объекты, имеет важное значение для того, чтобы жители могли наслаждаться сбалансированной культурной жизнью. Это стало важным вопросом, который все больше волнует географов, ученых-градостроителей и правительственные ведомства.<sup>2</sup> Деятельность градостроителей, фокусируется на двух основных аспектах: во-первых, характеристиках пространственного распределения индустрии культурных развлечений в городах и, во-вторых, ее эволюции и влияющих факторах пространственного распределения (распределение местоположения и выбор места), с конечной целью анализа культурного и индустрии развлечений на

---

<sup>1</sup> Стратегии развития старопромышленных городов: международный опыт и перспективы в России – тема научной статьи по социальной и экономической географии

<sup>2</sup> <39335FD8E5F0E5F8E5E2E02E696E6464> (msu.ru)

местном уровне . Масштаб исследования обычно ограничивается городом или главным городским районом города. Прежде всего, при анализе пространственного распределения и эволюционных характеристик индустрии культуры и развлечений используются различные инструменты пространственного анализа

Эффект городской кластеризации заключается в наиболее значимый фактор в главном городском районе; разные типы кафе имеют разные характеристики пространственной кластеризации.

С точки зрения анализа влияющих факторов пространственного распределения индустрии культуры и развлечений, городской социальной и культурной среде и потребностям жителей в культурном отдыхе уделяется больше внимания. Для улучшения качества жизни населения Узбекистана президентом принимаются ряд указов и постановлений. Правительство Узбекистана утвердило комплекс мероприятий по формированию в 2013-2018 годах современных центров культуры и досуга населения и развитию их материально-технической базы.

Постановление Кабинета министров Узбекистана также утвердило положение о центрах культуры и досуга населения.<sup>3</sup> Согласно постановлению, на базе 1777 домов культуры и клубных учреждений планируется создать 894 центра культуры и досуга населения, 38 из которых будут организованы для лиц с ограниченными возможностями. Центры будут образованы во всех районах (городах) Республики Каракалпакстан, областей и города Ташкента, с учетом обеспечения доступности предоставляемых ими культурно-массовых услуг широким слоям населения.

Основной деятельностью Центров является изучение культурных потребностей населения и предоставление разнообразных услуг культурно-просветительского и развлекательного характера, создание условий для

---

<sup>3</sup> [178-сон 25.06.2013. О мерах по формированию в 2013-2018 годах современных центров культуры и досуга населения \(lex.uz\)](#)

любителей занятий самодеятельным, художественным творчеством и прикладным искусством.

Центры создаются в целях изучения и удовлетворения общественных потребностей в сохранении и развитии национальной традиционной культуры, поддержки художественного творчества, другой самодеятельной творческой инициативы и социально-культурной активности населения, организации его досуга и отдыха.

Таким образом основной задачей градостроителей является совершенствования существующих и формирование новых пространственных структур для быстро развивающихся и меняющихся форм культурной деятельности особую остроту приобретает для условий крупнейшего города, где сконцентрирован большой научный и культурный потенциал, где социальные функции приобретают наиболее многообразные и сложные формы. Культурная деятельность молодежи в свободное время все больше приобретает целенаправленный характер, она связывается с выбором соответствующей информации, с поиском социальных контактов - общение по духовным и профессиональным интересам, с увеличением подвижности молодого человека в городе. Результаты социологического обследования культурных интересов молодежи отражают возрастание потребностей и разнообразие форм их удовлетворения. Реализация досуговых процессов осуществляется через организацию: - различных клубных объединений в сферах науки, искусства, прикладных ремесел и спорта; - потребления духовных и материальных ценностей; - свободного нерегламентированного общения и развлечений.

### **Литература:**

1. <sup>1</sup> Стратегии развития старопромышленных городов: международный опыт и перспективы в России – тема научной статьи по социальной и экономической географии

2. <39335FD8E5F0E5F8E5E2E02E696E6464> (msu.ru)
3. 178-сон 25.06.2013. О мерах по формированию в 2013-2018 годах современных центров культуры и досуга населения (lex.uz)
4. УСМАНОВ М. С. « ДОСУГ МОЛОДЕЖИ-ФУНКЦИИ И ПРОСТРАНСТВО» 2021г
5. <https://www.uzdaily.uz/ru/post/16249>

FATVOLARDA MAVJUD TERMINLARNING SHAKLLANISH VA  
QO'LLANISH O'RINLARI

*Qurbanov Salohiddin O'rmonbek o'g'li*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti 2-bosqich magistranti*

+998997485399

*Ilmiy rahbar: Arab filologiyasi kafedrasи dotsenti*

**Begmatova Buzahro**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola islom huqiqiga oid masalalarning fatvo borasida ishlataliganteminlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda terminlarning semantik, leksik-morfologik jihatlari tahlil qilingan. Fiqh manbalari asosida fatvolarda mavjud terminlarning shakllanishi va qo'llanishiga doir lingvistik tahlillar, ularning leksikasidagi farqlar haqida qiymatli ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** fatvo, sahih, ifto, hukm, asah, as-sahih.

Ushbu maqolada biror fiqhiy masalada ikki xil rivoyat kelgan bo'lib, ularning qaysi birini hukm sifatida olish kerakligini aniqlash uchun qo'llangan termin, iboralar haqida so'z boradi.

Fatvoni ifoda etadigan terminlar:

Avvalambor, "fatvo" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak;

الْفَتْوَى: الْجَوَابُ عَمَّا يَشْكُنُ مِنَ الْمَسَائِلِ الشَّرْعِيَّةِ أَوِ الْفَقْوَنِيَّةِ.<sup>1</sup>

Shar'iy masalalardan yoki qonuniylardan yuzaga kelgan mushkulliklarga javob berishga aytildi. Ko'pligi "қўло" "فَّلَو" dir.

وَالْفَتْوَى: تَبَيِّنُ الْحُكْمُ الشَّرْعِيُّ عَنْ دَلِيلٍ لِمَنْ سَأَلَ عَنْهُ

<sup>1</sup> Sa'diy Abu Jiyb. "Al-Qomus al-fiqhiy lug'atan va istilahan". Damashq: "Dorul fikr"; 1988-yil ikkinchi bosma. – B.281.

Masala so‘rab kelganga biror dalildan hukmini yoritib berishdir<sup>2</sup>. Aytish joizki, hanafiy ulamolari bunday iboralarni ko‘p ishlatishgan. Ularning hammasini bu o‘rinda ifoda etish biroz mushkul, shu bois qisqacha berib o‘tishga harakat qilamiz:

الإِحْتِيَاطُ، الْأَحْوَاطُ، الْأَسْبَهُ، الْأَصْحُ، الْأَظْهَرُ، الْأُوْفَقُ، الْأُولَى، وَبِهِ أَخَذَ عَلَمَانَا، وَبِهِ جَزِي الْعَرْفُ، وَبِهِ نَأْخُذُ، وَبِهِ يُعْتَمِدُ، وَبِهِ يُفْتَنُ، الصَّحِيحُ، وَعَلَيْهِ الإِعْتِمَادُ، وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْأَمَّةِ، وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْيَوْمِ، وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى، وَعَلَيْهِ فَتْوَى مَشَائِخُنا، وَالْفَتْوَى عَلَيْهِ، وَهُوَ الْمُتَعَارَفُ، وَهُوَ فِي زَمَانِنَا، وَهُوَ الْمُعْتَمَدُ، وَهُوَ الْوَجِيْهُ، وَغَيْرُهَا مِنَ الْأَفَافِ

“Va a’layhil fatva” – bu so‘z “fatvo ungadir” degan ma’noni anglatadi. Birikmadagi “zamir”ning qaytish joyini aniqlab olamiz-da masalaning hukmi qanday ekanligini bilib olamiz<sup>3</sup>. – “وَعَلَيْهِ الْإِعْتِمَادُ” \* “وَبِهِ يُأْخُذُ” \* “وَبِهِ يُفْتَنُ” – bu sanab o‘tilganlarning hammasi garchi lafzlarida farq bo‘lsa-da, bir ma’noni ifoda etadi.

– “وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْيَوْمِ” – bu ibora agarchi zohiriya ma’nosidan “Bugun amal shunga ko‘radir”, deya bir kunga xos qabilidagi ma’noni berayotgan bo‘lsa-da, zamon bu o‘rinda mutloqdir, ya’ni bugungi kunlikka qaydlanib qolmaydi. Bu birikmani lafziy tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda “masdar”ni zamonga izofa qilish bordir, “ramozon ro‘zasi” deyilganidek<sup>4</sup>.

– “الْمُخْتَارُ” \* “الْأَظْهَرُ” \* “الْأَصْحُ” \* “وَهُوَ الصَّحِيحُ” \* “وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْأَمَّةِ” – bu iboralarning deyarli ma’nolari farqli emas, agar lafzi e’tiborga olinmasa. Lekin hukm e’tiboridan bir-birlaridan quvvatli bo‘lishi mumkin, biroq hammasi fatvo ma’nosini ifoda etadi.

“الْأَسْبَهُ” (Ashbah) – bu iboraning mazmuni shundayki, u dalillari rivoyat jihatdan o‘xhash, lekin diroyat jihatidan ustun bo‘ladi. Ya’ni, hukmi ustun bo‘ladi.

“الْأُوْفَقُ” (Avjah) – bu so‘zdan chiqadigan hukmining dalili, boshqasidan ko‘ra dalolati kuchliroq bo‘ladi. Bu yerda biroz zehnni olib qochadigan narsa bor, ya’ni kalimani “yuz” ma’nosidagi “وَجْهٌ” dan olingan deb ma’no berilsa buziladi, lekin biz bu yerda kalimaning asosidagi ma’no “yo‘nalish, tarz, jihat” degan ma’nolari ham

<sup>2</sup> “Mavsu’atul fiqhiyya al-Kuvaytiyya”. Vaqf va Islomiy ishlar tashkiloti tomonidan tuzilgan. –J.32. –B.20.

<sup>3</sup> Ahmad Muhammad Nasiruddin An-Naqiyyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabutur rushd” birinchi bosma: 2001. –J.1. –B.368-369.

<sup>4</sup> Doktor Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. “Al-Fathul mubiyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyyin”. Beirut: Dorul kutub ilmiya. 2004 yil. –B.28.

borligini e'tibordan qochirmasdan ish tutsak, mazmun: "dalolati jihatidan kuchliroq" ko'rinishida chiqadi va chalkashlikning oldi olinadi<sup>5</sup>.

Ibn Obidiyn bularni sanab o'tib yana quyidagilarni ham qo'shimcha qilgan: "وَبِهِ أَخَذَ عُلَمَائِنَا", "وَهُوَ الْمُتَعَارِفُ", "وَبِهِ جَرَى الْعُرْفُ". Bu o'rinda urfda shakllanib ketgan ishlarga amal qilishga fatvo berilishi durustligiga ishora bor. Haskafiy: "Shayximiz Ramliy o'zining fatvolarida: "Ba'zi lafzlar ba'zisidin kuchliroqdir, masalan: وَعَلَيْهِ "اَلصَّحُّ" وَالْأَشْبَهُ", وَالصَّحِّيْحُ" <sup>6</sup> وَالْفَتْوَى" so'zi "اَلصَّحُّ" va boshqa kalimalardan ta'kidliroq, ya'ni kuchliroqdir" degan edilar" deya bu atamalarni izohlaydi. وَعَلَيْهِ "وَبِهِ يُفْتَنُ" birikmasi وَالْفَتْوَى" atamasidan ta'kidi kuchliroqdir. Shuningdek, "اَلصَّحُّ" istilohi "الصَّحِّيْحُ" istilohidan ta'kidliroqdir, "اَحْوَاطُ" "اِلْحِتِيَاطُ" kalimasidan ta'kidliroqdir. Bu atamalarni bir necha xil tasnif etish mumkin. Misol uchun quvvatliyligi, dalili ustunligi kabi bir necha ko'rinishda. Biz esa shu quvvat, ustinklik e'tiboridan tasnif etmoqchimiz. Bu iboralarning ulamolarning ijmo'si, ittifoqiga ishora qiladiganlari ham bor. Masalan, "وَعَلَيْهِ عَمَلَ الْأَمَةُ" va shuning ma'nosidagilar kabi. Ma'nosi "quvvatli" ekanligini ifoda etadigani ham bor va bu ma'nosida ustunlik borlaridan ko'proq ma'no ifoda etadi. Masalan, "وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى" birikmasi kabi, bu iboraning o'zini xoslab qo'ymaymiz, balki "فَوْ" harflari qatnashgan har qanday atamani shu ikkinchi qismga qo'shaveramiz. Misol uchun, "وَبِهِ يُفْتَنُ" birikmasini olishimiz ham mumkin, ya'ni bularning mazmun-mohiyati bir xil, biroq o'zaro tafovutlari ham bor.

"Ustunlik" ma'nosini ifoda etadiganlari, ya'ni bu atama bilan atalganlari o'z zimmida "ustunlik" ma'nosini saqlaydi. Masalan, "اَلصَّحُّ" va "الصَّحِّيْحُ" istilohlari. Lekin ulamolar bu ikkisini ham o'zaro ustunlik jihatlarini tahlil qilib, bir necha fikrlarni aytgan<sup>7</sup>.

Xulosa qilib aytganda atamalar tushuncha va mazmunlarni bir-biridan farqlashga ahamiyat qaritishni nazarda tutsada, lekin bir mazmunga oid tushunchalarni terminlashtirilganida ularni tasniflash zarur ekan. Hamda ayrim

<sup>5</sup> "al-Fathul mo'biyn fi ta'rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyyin" Doktor. Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. Misr: "Dorus salom": 2009 yil. –B.28.

<sup>6</sup> Ya'ni "فَوْ" harflari qatnashgan har qanday atama "sahih" dan kuchlidir.

<sup>7</sup> Doktor Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. "Al-Fathul mubiyn fi ta'rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyyin". Beirut: Dorul kutub ilmiya. 2004 yil. –B.58.

davriylik mazmuniga ega terminlarni esa davriy bosqich va katigoriyalarga ajratish terminlarning leksikasini yana ham ochib beradi.

**Foydalilanilgan manba va adabiyotlar:**

1. “Mavsu’atul fiqhiiyya al-Kuvaytiyya”. Vaqf va Islomiy ishlar tashkiloti tomonidan tuzilgan. – J.22 –B.50.
2. Sa’diy Abu Jiyb. “Al-Qomus al-fiqhiy lug‘atan va istilahan”. Damashq: “Dorul fikr”; 1988-yil ikkinchi bosma. – B.52.
3. D.Muhammad Ahmad Saroj, D.Ali Jum'a Muhammad. “Rosailu ibn Nujaym va al-musommatt ar-rosail az-ayniyya fi mazhab al-hanafiyya”. Misr: Qohira: “Dorussalom”: 1999\1998. – B. 589.
4. “Fathul bobi inoya bi sharh an-niqoya”. Aliy ibn Sulton Muhammad al-Qori. Liavan: Bayrut: “Dorul Arqam ibn Abul Arqam” 1997. – J. 2. – B. 557.
5. “Sharhul viqoya ma’ muntahan niqoya”. Ubaydulloh ibn Masu’d tojush sharia. Do‘ktir Saloh Muhammad Ubul haoj. 1-juz. 2006-yil bosma. 108-bet.
6. Ahmad Muhammad Nasiruddin an-Naqiyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabutur rushd” birinchi bosma: 2001. 1-j. –B.289.
7. “Al-Fathul mo‘biyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyyin” Doktor. Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. 28-bet.
8. Ahmad Muhammad Nasiruddin an-Naqiyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabutur rushd” birinchi bosma: 2001. –J.1. –B.295.
9. Xolid Ramazon Hasan. “Mu’jamu usulul fiqh”. Misr: “Ravza” nashriyoti; 1998-yil. – B. 343.
10. Vahba Az-Zuhayliy. “Al-Vajiz fi usulil fiqh”. Suriya: Bayrut: “Dorul fikr”: 1999-yil birinchi bosma. – B.133.
11. Doktor Ahmad al-sharbosiyy. “Al-mo‘jamul iqtisodiy al-islomiy”. “Dorul jiyl”: 1981-yilgi bosma. 499 bet.
12. D. Muhammad Ahmad Saroj, D. Ali Jum'a Muhammad. “Rosailu ibn Nujaym va al-musommatt ar-rosail az-ayniyya fi mazhab al-hanafiyya”. Misr: Qohira: “Dorussalom”: 1999\1998. 635-bet.
13. “al-Maktaba ash-shomila”. Fiqh, hadis
14. Imom Saraxsiy. “Mabsut”. Bayrut: “dorul fikr”: 2000. 236 bet.
15. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Quroshiy. “Al-Javahirul muziyya fi tobaqotul hanafiyya”. Riyoz: “dorul ulum” ikkinchi bosma:1993. 5 jild. 3326

**MEVA-SABZAVOTLARNI SAQLASHDA VA QAYTA ISHLASHDA  
INNOVATION TECHNOLOGY ALARDAN FOYDALANISH  
MASALALARI**

---

*Xudoyberganova Dilnoza Anvarjon qizi*

*“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi*

*Farg‘ona politexnika instituti*

*Tel: 998944993322*

*Email: [Dildil677091@gmail.com](mailto:Dildil677091@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Muallif o‘z maqolasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni hisobga olgan holda ushbu sohaga oid dolzarb masalalarni ko‘rib chiqadi.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva-sabzavot, innovatsion texnologiyalar, eksport

Keyingi yillarda Respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va yetishtirish bo‘yicha hamda qishloq xo‘jalik xom ashyolarini qayta ishlashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilinib, amalda tadbiq etilmoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Paxta ekin dalalarini qisqartirib, meva-sabzavot ekinlarining maydonlarini kengaytirish” va “meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlashni rivojlantirish”ga bag‘ishlangan qonunlari shular jumlasidandir. Shu sababli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni qayta ishlashni samarali tashkil etish aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishga yordam beradi.

Ma’lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor

yo‘nalishlar sifatida katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Xususan, so‘nggi yillarda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Bularga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagи “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 va 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmonlari hamda 2018 yil 17 oktyabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3978, 2019 yil 14 martdagи “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239 qarorlarini keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagи PF-5388-son «O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2018 yil 26 apreldagi PQ-3680-son «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 12 yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2716-son «2017-2018 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlarini tashkil etishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ma’ruzalar matni ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Ayni paytda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Ma’lumki, O‘zbekistonning bu boradagi salohiyati juda

keng va rang-barangdir. Bu soha mutaxassislarining fikricha, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari ichki bozorimizni ana shu mahsulotlar bilan to‘ldirishi, qo‘sishma ravishda mazkur mahsulotlarning ma’lum bir qismini eksport qilish imkoniyati ham bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishda esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalardan foydalanishga e’tibor qaratish lozim. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga tegishli. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish seryog‘in bahor va jazirama yoz oylariga to‘g‘ri keladi. Shu boisdan bu mahsulotlarni imkoniyati boricha, nobud qilmasdan yig‘ib olish va birlamchi qayta ishlashni to‘g‘ri tashkil qilmasdan turib, aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlab bo‘lmaydi. Dala ekinlarining hosili ortib borgan sari ularni saqlash va qayta ishlash ham takomillashib, yangi zamonaviy omborxonalar va qayta ishlash korxonalari bunyod etilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish salohiyati ancha keng va uni aholi farovonligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda har tomonlama rivojlantirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Musaevna, U. Z., & Anvarjonqizi, X. D. (2021). To the Issues of Improving Personnel Motivation in Industrial Enterprises. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 1, 70-80.
2. Xamdamova, U., & Khudoyberganova, D. (2020). IMPACT OF THE PANDEMIC ON THE INTRODUCTION OF ELEMENTS OF THE DIGITAL ECONOMY. *Экономика и социум*, (7), 70-75.
3. Худойберганова, Д., & Шарафуддина, Н. (2020). ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЫНОК ТРУДА: МИРОВОЙ ОПЫТ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ. *Экономика и социум*, (7), 468-474.
4. Худойберганова, Д. А. (2020). Фарғона вилояти саноат тармоқларига инвестицияларни жалб қилишнинг долзарб масалалари/Д. Худойберганова.

5. Худойберганова, Д., & Кодирова, С. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (7), 475-481.
6. Khudoyberganova, D. (2020). TO THE PROBLEMS OF INNOVATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 396-399.
7. Usmanova, Z. M., & Khudoyberganova, D. A. (2021). TO IMPROVEMENT OF EXISTING PERSONNEL MANAGEMENT MECHANISMS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES. *Frontline Marketing, Management and Economics Journal*, 1(08), 41-46.
8. KHUDOYBERGANOVA, D. A. (2021). CURRENT TRENDS IN TRADE AND INTERMEDIARY ACTIVITIES ON WORLD MARKETS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 271-278.
9. Xudoyberganova, D. A. Q. (2022). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEVASABZAVOTCHILIKKA IXTISOSLASHGAN KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 282-287.
10. Muminova, E. A., & Solijonov, S. (2022). FEASIBLE FUTURE OF APPLYING BLOCK CHAIN TECHNOLOGY TO DIGITALIZED NATIONAL ECONOMY. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(1), 70-76.
11. Musaevna, U. Z. (2021). To Improve The Approaches Of The Personnel Management Mechanism In The Light Industry. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(1), 296-299.

**ТОШКЕНТДАГИ УККОША МАСЖИДИНИНГ МЕЪМОРИЙ  
ЖИҲАТЛАРИ ВА ҚУРИЛИШ ТАРИХИ**

**УСМОНОВ ФАРРУХ ФАРҲОД ЎГЛИ**

*Toшкент архитектура-қурилиши институти*

*“Архитектура тарихи ва назарияси” кафедраси 2-босқич магистранти*

Ушбу мақолада Тошкент шаҳридаги XV асрларга оид бўлган “Мўйи-Муборак” “Уккоша” масжидининг архитектураси ва қурилиш услуби, ўзига хос жиҳатлари, қурилиш материаллари хақида сўз боради. Бу масjid ҳалқ орасида “Кўхна намозгоҳ” ёки “Эски намозгоҳ” ҳам деб тилга олинган, XX асрнинг бошларига қадар масjid хонақоҳида Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг муборак соқол толалари шиша идишга солиниб юқори қисмига осилган ҳолда сақланиб турганлиги ҳақида маҳалла кекса ёшли отахонлари томонидан ривоят қилинганлиги учун масjid “Мўйи-Муборак” деб хам номланган.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Масjid, минбар, пештоқ, ёдгорлик, меъморчилик, намозгоҳ, хонақоҳ, айвон

**АРХИТЕКТУРА И ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА МЕЧЕТИ УККОША  
В ТАШКЕНТЕ**

*В данной статье рассматриваются архитектурный и строительный стиль, особенности и строительные материалы мечети «Муйи-Муборак» или «Уккоша» XV века в Ташкенте. Мечеть также известна как «Старая Молитва Намазгах» или «Старая Молитва», ее называют «Муйи-Муборак».*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Мечеть, минбар, портал, памятник, архитектура, молитвенный зал, ханаках, навес айван.

## ARCHITECTURE AND HISTORY OF CONSTRUCTION OF THE UKKOSH MOSQUE IN TASHKENT

*This article discusses the architectural and construction style, features, building materials of the mosque "Muyi-Muborak" or "Ukkosha" of the 15th century in Tashkent. The mosque is also known as "Old Namazgah". or "Old Prayer", it is called "Muyi-Muborak".*

**KEYWORDS:** Mosque, minbar, portal, monument, architecture, prayer hall, khanaqah, ivan.

### КИРИШ

Тадқиқотларга қараганда, мусулмон ўлкаларда масжидлар қуриш Умавий халифалар ҳукмронлиги йилларида (661-749) кенг тарқалган. Хусусан, халифа Валид (705-715) даврида, аниқроғи, 709 йилда Дамашқдаги авлиё Иоан черкови ўрнида Византиядан таклиф қилинган усталар иштирокида катта масжид қурилган. Византияликлар масжид меъморий тузилишига ўзларининг эллинистик услубларини олиб кирган бўлсаларда, кейинчалик мусулмон усталар томонидан ўзлаштирилиб, янгича кўриниш касб этган. Айни шу даврлардан ибодат учун танланадиган бинонинг ҳолати ёки қуриладиган масжидлар юзасидан маълум бир меъёрлар ишлаб чиқилган<sup>1</sup>

Ўзбекистон ҳудудига Ислом дини кириб келгач, бу ерда масжидлар дастлаб шаҳарларда, кейинчалик қишлоқ ва маҳаллаларда барпо этилган.

Масжидларнинг тўрида, Маккага қараган (қибла) томонида меҳроб, бир ёки бир неча минора бўлади. Айрим йирик масжидлар меҳробининг ўнг томонида ваъзхонлик учун мўлжалланган минбар баъзиларида эса Қуръон ўқиладиган маҳсус жойлар ҳам бўлади, баъзи масжидлар ҳузурида мактаблар ҳам бўлган. Масжидларда жума ва ҳайит намози кунлари имом-хатиблар хутба ўқиб, турли диний масалалар бўйича ваъзхонлик қилинади. Ўзбекистонда 13.12.2021 йил ҳолатига кўра 2100 дан ортиқ масжидлар мавжуд<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Ориентировка первых мусулманских мечетей // Ежегодник Российского института истории искусств. Т.І. Вып. 2. – Петербург-Москва, 1922. – С.113-117; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л., 1966. – С.87.

<sup>2</sup><http://www.muslim.uz/index.php/rus/novosti-2018/item/30137-eshche-odna-mechet-otkrylas-v-karakalpakstane>

Масжидлар VII—VIII асрлардан турли мусулмон мамлакатларнинг маҳаллий меъморлик анъаналарида етакчи ўринни эгаллаб, ўзига хос услубда қурила бошлаган.

Масжидлар орасида учта асосий турлари ажратилади. Улардан энг иириги – **Жума ёки Жомеъ масжидлари** хафтада бир кун жума намозини йирик жамоа бўлиб ўқишга мўлжалланган. Улар асосан мурабба ёки тўғри тўртбурчак тарҳли, қибла томонида қиши масжид зали – мақсураси бўлган, ўртадаги ҳовли атрофи равоқли айвонлардан иборат бўлиб тош, ёғоч, ғиштлар воситасида қурилган ва баъзида рангли кошин билан ҳашамдор безатилган.

Ўрта асрларда жомеъ ва кичик масжидлар ўзида мусулмон шаҳарларининг энг муҳим қиёфасини мужассам қилган. Ислом тамаддунни тадқиқотчиларидан Д.Сурдел ва Ж.Сурдел ўзларининг изланишлари давомида, жомеъ масжидлар мусулмон шаҳарларининг энг характерли жиҳати бўлиб, уларнинг мавжудлиги шаҳарнинг мавқеи, кенгайиши, демографик ўсишига бевосита таъсир қилганини қайд қилиб ўтишган эди<sup>3</sup>.

XVI—XVII асрларда масжид қурилишида гумбазлар тузилиши анча мураккаблашган. Пештоқ, равоқ ва минораларнинг турли шакллари яратилган. Безакларида муқарнас нақшлар, кошинкори безаклар қўлланилган.

**Масжиднинг иккинчи тури** – бу кунда беш маҳал намоз ўқишга мўлжалланган маҳалла ёки гузар масжидлариdir. Улар намоз залининг 1-2-3 томонидан ёғоч устунли айвонлари билан қурилар эди. Буларга мисол қилиб, Ўзбекистоннинг Бухоро, Самарқанд, Шаҳрисабз шаҳарларидағи кўплаб маҳалла масжидларини келтириш мумкин. Масалан, Бухородаги Баланд масжида ва Хўжа Зайнiddин масжид-хонақоҳидир.

**Масжидларнинг учинчи турига Намозгоҳ, Ийдоҳ ёки Мусалло деб номланган хайит масжидлари** киради. Улар шаҳар ташқарисида қурилган ва йилда икки марта хайит кунлари намоз ўқишга мўлжалланган. Булар сирасига

---

<sup>3</sup> Сурдель Д., Сурдель Ж. Цивилизация классического ислама. – Екатеринбург, 2006. – С.382, 387.

XVI асрга оид маҳобатли Бухоро ва Қарши шаҳарлари Намозгоҳ масжидлари киради.

**Ўрганилганлик даражаси.** Уккоша масжидини ўрганиш жараёнида масжидларга ва Ислом динига бўлган эътибор, кучайиши натижасида диний биноларни ва шу жумладан, Уккоша масжидини ўрганишга ҳам алоҳида эътибор берилгани кузатилган. Уккоша масжиди ҳақида ва Тошкентнинг махалла масжидлари тарихи билан боғлиқ айрим мақолаларда маълумотлар келтирилган. М.Е.Массон, А.Ўринбоев, О.Бўриев, А.Муҳаммадкаримов, Р.Шигабиддинов, У.Алимов, А.Зияев сингари муаллифларнинг Тошкент тарихига бағишлиланган ишларида ҳамда “Тошкент” энциклопедиясининг 1992 ва 2009 йилги нашларида ҳам ёритилган<sup>4</sup>.

## **АСОСИЙ ҚИСМ**

Тошкент масжидлари орасида ўзига хос меъморий тузилишга эга ушбу меъморий обидалардан бири шаҳарнинг қадимий намозгоҳи бўлиб, Муҳаммад Солиҳхўжа уни «Кўхна намозгоҳ», «Бароқхон ийдгоҳи» ва «Дарвишхон ийдгоҳи» номлари билан ҳам тилга олган. Унинг ёзишича, Бароқхон<sup>5</sup> Тошкентнинг Чорсу бозори яқинида сахобалардан Ҳазрат Уккоша ва унинг сафдошлари жангда ҳалок бўлиб, дафн қилинган жойда Намозгоҳ қурдирган экан. Мазкур намозгоҳ тўрт томони девор билан ўралиб, қибласи пишиқ ғиштдан кўтарилиган, томи эса ёғочдан ишланган. Намозгоҳнинг 170 та устуни

<sup>4</sup>Массон М.Е. Прошлое Ташкента (археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Изв. АН УзССР. 1954. №2. – С.104-132;Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. – Т., 1983. – Б.32-34; Тошкент. Энциклопедия. – Т., 1992; Тошкент. Энциклопедия. – Т., 2009; Муҳаммадкаримов А. Тошкентнома. – Т., 2004; Шигабиддинов Р.Н. Татары, татарские мечети и медреса в Туркестанском крае в XIX - начале XX вв (по материалам архивов Узбекистана) // Россия, Сибирь и Центральная Азия: Взаимодействие народов у культуры. Вып.5. – Барнаул, 2005. – С.218-225; Алимов У. Ҳазрати имом (Ҳастимом). – Т., 2008; Зияев А. Базары Ташкента. В прошлом и настоящем. Историко-архитектурный очерк. – Т., 2008. – С.45-46, 76. Тошкент масжидлари тарихига доир айрим ишлар биз томонимиздан ҳам эълон қилинган. Қаранг: Султонов Ў. Ҳожа Аҳрорнинг Тошкентдаги мадраса ва масжидлари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004. №3. – Б.185-186; Ўша муаллиф. XIX асрдаги Тошкент жомеъ масжидлари // Ўзбекистоннинг ислом цивилизациясига кўшган ҳиссаси. – Т., 2007. – Б.265-267; Ўша муаллиф. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидай Тошканд” асари (Тўлдирилган иккинчи нашр). – Т., 2009. – Б.163-172; Ўша муаллиф. Ялангқари масжиди вақғномаси хусусида // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Халқаро илмий конференция материаллари. – Т., 2009. – Б.217-219; Ўша муаллиф. Масжид // Тошкент. Энциклопедия. – Т., 2009. – Б.319-322.

<sup>5</sup> Бароқхон – шайбонийлардан, 1525-1551 йилларда Тошкент, 1551-1556 йилларда Мовароуннаҳр хукмдори. Унинг ўғли Дарвишхон 1556-1578 йилларда Тошкент ва Туркистан ҳокими бўлган.

нақшланган чинор дарахтидан бўлган. Атрофи шамшод ва бошқа мевали дарахтлардан боғ қилиниб, ўртада бир таноблик ҳовуз қазилган. Бароқхоннинг ўғли Дарвишхон даврида эса Намозгоҳда пишиқ ғиштдан, пештоқлари ва равоқлари баланд бир масjid қурилган. Бу пайтда масжиднинг устунлари 1400 тага етган<sup>6</sup>. Лекин бу масjid хозирги кунгача етиб келмаган.

Тошкентдаги Ҳазрати Уккоша мозорининг қайси даврдан шакллангани ҳақида аниқ фикр айтиш қийин. Ҳар ҳолда Ҳазрат Уккоша мозорида Бароқхон давригача ҳам намозгоҳ-масjid мавжуд бўлган. Мазкур намозгоҳдан аҳоли XVII аср давомида ҳам фойдаланилиб келган. Хусусан, аштархоний Субхонқулихон (1681-1702) муҳри босилган Хожа Аламбардор мозорига мутавалли тайинлаш ҳақидаги бир ёрлиқда Тошкент намозгоҳи замини тилга олинади. Намозгоҳ қалмоқларнинг Тошкентга ҳужумидан кейин (XVIII асрнинг 20-йиллари) қаровсиз қолган ва XIX асрга келиб ёзма манбаларда «Кўхна намозгоҳ» ёки «Эски Намозгоҳ» деб тилга олинади. Ҳатто бу ном кўча ва маҳалла номи сифатида ҳам муомалада бўлган. Бу даврда Ҳазрат Уккоша қадамжойи ва мозор яқинидаги шифобахш булоқ шаҳардаги гавжум зиёратгоҳлардан бўлган. Эски Намозгоҳ ўрнида кейинчалик Бешёғоч маҳалласида маҳалла юзага келган. XIX асрнинг 80-йилларида ушбу маҳаллада иккита масjid ишлаб турган. Улардан бири маҳалла одамлари тарафидан, иккинчиси Сайдбобо Имомхожи ўғли тарафидан бунёд этилган бўлиб, уларнинг қадимий намозгоҳга алоқаси борми йўқми, аниқ фикр айтиш қийин<sup>7</sup>. Бугунги кунда ҳам ўша қадимий Намозгоҳ ерига қисман яқин ерда Ҳазрат Уккоша номида жомеъ масjid фаолият юритмоқда.

---

<sup>6</sup>Муҳаммад Солиххўжа. Тарихи жадидай Тошканд. – 200аб вараклар.

<sup>7</sup><https://ukkosha.shosh.uz/uz/2017/04/30/ukkosha-ibn-mihson-roziyallohu-anhu/>



**1-расм.** Уккоша масжидининг жойлашган жойи



**2-расм.** Уккоша масжидининг шакланиши босқичлари

- 1) XVI асрда қурилган хонақоҳ;
- 2) 2006-йилда қурилган янги хонақоҳ;
- 3) 2021-2022 йиларда барто бўлган ёрдамчи бино.

Юқоридаги (2-расмда) масжиднинг асрлар давомида шакиланган ҳамда ҳозирги кундаги мавжуд ҳолати кўрсатилган. Масжид атрофи кўп қаватли турар-жой бинолари билан ўралган, дўкон ҳамда автотураргоҳ унинг чегара ҳудудида жойлашган. Аҳоли демографиясининг ортиши сабабли масжид биноси ҳам кенгайиб борган. Бинонинг кўп устунли интерьерида ёғоч хомашёларидан кенг фойдаланилган.



**3-расм.** Уккоша масжидининг аввалги кўриниши



**4-расм.** Уккоша масжидининг аввалги кўриниши



5-расм. Уккоша масжидининг  
ҳозирги кўриниши



6-расм. Уккоша масжидининг  
ҳозирги кўриниши

Ҳозирги Уккоша масжиди Тошкент шаҳар Шайхонтоҳур тумани Самарқанд дарвоза кўчаси «Чорсу» маҳалласи 13-А манзилида жойлашган. Ёдгорлик XIX асрда қайта таъмирланган, сабик иттифоқ даврида масжид сифатида ёпилган ва бошқа вазифаларга мослаштирилган. Масжид ўз фаолиятини 1991 йил май ойидан қайта бошлаган.

### **ХУЛОСА**

Қурилиш даври кўра ўрта асрларга оид бўлган, Уккоша масжиди ҳозирги қунгача ҳам ўз вазифасида фаолият кўрсатаётгани юртимизда азалдан бундай жойларга эътибори натижасидир. Мазкур масжид ўзининг қулай жойлашувига кўра, маҳалла, бозор, маъмурий ҳудудларга хизмат қилиб келмоқда.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Бартольд В.В. Ориентировка первых мусулманских мечетей // Ежегодник Российского института истории искусств. Т.І. Вып. 2. – Петербург-Москва, 1922.
2. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л., 1966.
3. Сурдель Д., Сурдель Ж. Цивилизация классического ислама. Екатеринбург, 2006.
4. Массон М.Е. Прошлое Ташкента (археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Изв. АН УзССР. 1954. №2.

5. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида. – Т., 1983.
6. Муҳаммадкаримов А. Тошкентнома. – Т., 2004;
7. Шигабиддинов Р.Н. Татары, татарские мечети и медраса в Туркестанском крае в XIX - начале XX вв (по материалам архивов Узбекистана) // Россия, Сибирь и Центральная Азия: Взаимодействие народов у культур. Вып.5. – Барнаул, 2005.
8. Алимов У. Ҳазрати имом (Ҳастимом). – Т., 2008;
9. Зияев А. Базары Ташкента. В прошлом и настоящем. Историко-архитектурный очерк. – Т., 2008.
10. Султонов Ў. Хожа Аҳрорнинг Тошкентдаги мадраса ва масжидлари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004. №3; Ўша муаллиф. XIX асрдаги Тошкент жомеъ масжидлари // Ўзбекистоннинг ислом цивилизациясига қўшган ҳиссаси. – Т., 2007; Ўша муаллиф. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари (Тўлдирилган иккинчи нашр). – Т., 2009; Ўша муаллиф. Ялангқари масжиди вақфномаси хусусида // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Халқаро илмий конференция материаллари. – Т., 2009; Ўша муаллиф. Масжид // Тошкент. Энциклопедия. – Т., 2009.
11. Муҳаммад Солиҳхўжа. Тарихи жадидайи Тошканд. – 200 бет.
12. <https://ukkosha.shosh.uz/uz/2017/04/30/ukkosha-ibn-mihson-roziyalohu-anhu/>
13. <http://www.muslim.uz/index.php/rus/novosti-2018/item/30137-eshche-odna-mechet-otkrylas-v-karakalpakstane>

**ADOLATLI BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ISLOM  
KARIMOV MA’NAVIY MEROSINING O’RNI**

*Shaxnoza Sadullayeva Bahodirovna*

*SamDCHTI Gumanitar fanlar va Axborot texnologiyalari kafedrasi  
o‘qituvchisi, Falsafa. Samarqand viloyati, Samarqand shahri*

*Tel: 90250030*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning o‘tgan davr mobaynida yoshlarga oid olib borgan siyosati, yosh avlodni butun jahon hamjamiyati tarkibida munosib o‘rin egallashida asosiy e’tibor qaratgan masalalari keng yoritilgan.

Bundan tashqari, maqolada yoshlar ma’naviy tarbiyasida ilm o‘rganishning ahamiyati to‘g‘risida, yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatining mazmun-mohiyati ham o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so’zlar:** Yosh avlod, adolat, ma’naviy, barkamol, Islom Karimov, mustakillik, xalq, oila, taraqqiyot, ta’lim, strategiya

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol va adolatli qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratgan edi. Shu o‘tgan davr mobaynida yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, ularni yuksak ma’naviyatlari, zukko, bilimdon, yurt taqdirini o‘z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo qilindi. Yoshlarga qaratilayotgan e’tiborning zamirida jamiyatimizning kelgusidagi taraqqiyoti, uning butun jahon hamjamiyati tarkibida munosib o‘rin egallashi masalasi turibdi. Yana masalaning muhim tomoni shu bilan izohlanadiki, mamlakatimiz aholisi qatlaming 62 foizidan ortig‘ini yoshlar tashki etadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamtakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusini ro‘yobga chiqarish maqsadida ta’lim tizimini

tubdan isloh etishga jiddiy ahamiyat berildi. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida bir yo‘la ikkita muhim hujjat, ya’ni “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bu dasturning strategik ahamiyati to‘g‘risida I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadlarga ega bo‘lgan bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi”[1.208S ]. Ayni paytda ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Jahon tajribasida bu ko‘rsatkich esa o‘rtacha 6-7 foizga tengdir. Ta’lim sohasiga yo‘naltirilgan ulkan sarmoya hisobiga yurtimizda har yili yuzlab ta’lim muassasalari — maktab, kollej va liseylar, oliy o‘quv yurtlari qayta ta’mirlanib, zamonaviy moddiy-texnika bazasiga ega bo‘layapti. Demak, ta’lim tizimini isloh qilish uchun qilingan harakatlar zoye ketmaydi va kelajakda o‘zining ijobjiy samarasini beradi.

Oliy ta’limda erishilgan natijalar ham salmoqlidir. Istiqlol yillarida yurtimizda oliy ta’lim muassasalari soni 2 barobarga ko‘paydi. Ularning yettitasi nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallaridir. Qolaversa, yoshlarimizning minglab iqtidorli vakillari Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya va boshqa mamlakatlarning yetakchi universitetlarida ta’lim olayapti, bu esa ularning bilim hamda malakasini oshirishda keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida respublikamizda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, “Nihol” mukofoti, “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi hamda Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy nomidagi qator davlat stipendiyalarining ta’sis etilishi “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lishlari shart!” degan ezgu g‘oyaning hayotiy ro‘yobini ta’minladi. Bugun bu shior yoshlarimizni mazkur ezgu tashabbusning taraforigina emas, balki faol ishtirokchilari bo‘lishga undaydi.

Xalqimiz o‘zining qisqa muddat, ya’ni yigirma besh yilda erishgan barcha yutuqlarini haqli ravishda aynan Birinchi Prezident Islom Karimov nomi bilan bog‘laydi. Islom Karimov mamlakatimizda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o‘zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosidir. Eng muhimi, ertangi kunimizning tayanchi va suyanchi bo‘lmish yosh avlodning yangicha, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, shu yurtning haqiqiy egasi, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetishishida I. Karimovning xizmatlari benihoyadir. Jamiyatning bo‘lajak bunyodkorlari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi naqadar uzoqni ko‘zlagan tarixiy qadam bo‘lgani tobora ayon bo‘lmoqda.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o‘z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o‘zini ayamaydi. Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayat maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi. O‘zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o‘zining tarixan shakllangan qiyofasini yo‘qotmadi. Ulug‘ adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining: “Bu xonadondan xech kim norizo bo‘lib ketgan emas”, deya aytgan gaplarida elimizga xos katta xayotiy falsafa mujassamdir. Bugungi kunda istiqlol sharofati tufayli ana shunday olivjanob an’analarning qaytadan mustahkam qaror topishi va rivojlanishi uchun eng qulay muhit yaratildi. Bu, shubhasiz, biz, ota-onalar va mustaqil, buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas’uliyat yuklaydi[2. 9S].

Islom Karimovning farzandlarimiz bizdan ko‘ra bilimli, kuchli, dono va albatta, baxtli bo‘lishi shart, degan teran ma’noli so‘zlarida mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatining mazmun-mohiyati o‘z ifodasini topgan. Zero, o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarga erishishimiz, yurt kelajagi, avvalo, yoshlarimizga bog‘liqdir.

Buyuk kelajak sari dadil odimlayotgan jamiyatdagи islohotlar va

yangilanishlar yuksak intellektual salohiyatga ega, g‘ayratli, faol aholi qatlamiga tayanadi. Tub yangilanishlar jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatimizda ana shunday ma’naviy, ijtimoiy voqelik qadriyatga aylanganini va O‘zbekiston yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda dunyoga ibrat bo‘ladigan tajriba to‘plaganini xalqaro hamjamiyat ko‘rib, kuzatib turibdi. I.Karimov yoshlar ma’naviy tarbiyasida ilm o‘rganishning ahamiyati to‘g‘risida quyidagi qimmatli fikrlarni bildiradi: “Men yoshlarimizga, mening bolalarimga qarata, o‘rganishdan hech qachon charchamanglar, deb aytmoqchiman. O‘rganish, intilish hech qachon ayb sanalmaydi. Nimanidir bilmasang, uni o‘rganish zarur. Avvalambor, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarga nima lozim? O‘rganish, o‘rganish va yana bir bor o‘rganish kerak. Kasb o‘rgangan, ilm o‘rgangan kishi, o‘zbekona aytganda, hech qachon kam bo‘lmaydi”[3.240S]. Islom Karimov 2014 yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzuidagi xalqaro konferensianing ochilish marosimidagi nutqida “Men yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: “Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g‘ururlanishimiz kerak deb aytaman.

Ayni vaqtida Faqat g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas, kelinglar, o‘zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebahosha merosga o‘z hissamizni qo‘saylik deb takrorlayman”, deb ta’kidlagan edi.

Xullas, Birinchi Prezidentimizning barcha da’vatlari O‘zbekistonimizdagи millionlab yoshlarni doimo yuksak marralar sari dadil qadam tashlashga undaydi. Ularda yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi. Bu o‘z navbatida, mustaqil Vatanimizni har tomonlama eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda navqiron yoshlarni yetuk qilib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, umumbashariy qadriyatlar ruhida qaror toptirishda Islom Karimovning bebahosha ma’naviy merosi katta ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar:**

1. “Barkamol avlod orzusi”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, T-:2000 y, 208 b.
2. “Barkamol avlod orzusi”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” (Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust) T-:2000 y, 9 b.
3. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir. — T.: “O‘zbekiston”, 2015. 240-bet.

**KICHIK GURUHLARDA ISHLASH METODINI QO'LLASH ORQALI  
TABIIY TOLALARNI O'RGANISH**

*Qo`qon shahar 21-maktab o`qituvchisi*

***Tojiyeva Manzuraxon***

*Buvayda tuman 2-maktab o`qituvchisi*

***Tojiyeva Maxbubaxon***

*Toshkent davlat texnika unversiteti, Qo`qon filali talabasi*

***Saxobiddinova Farog`atxon***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanining tikuvchilik materialshunoslikidan tabiiy tolalarни kichik guruhlarda ishlash metodida o`rganish haqida malumot beriladi

**Kalit so`zlar:** Zig’ir tolasi, paxta tolasi , ipak tolasi, iplar, gazlamalar.

Kichik guruhlarda ishlash metodi o`quvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o`quv materiallarini o`rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagijodiy ishdir. Ushbu metod qo'llaniladiganda o`quvchilar kichik guruhlarda ishlab darsda faol ishtirot etadilar,boshlovchi rolinida bo'lishga'bir-biri bilan fikr almashishga va turli nuqtai nazarniqadrlash imkoniga ega bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o`qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi.Chunki, o`qituvchi bir vaqtini o`zida barcha o`quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va barcha o`quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Darsni tashkil qilib olinib o'tgan mavzu takrorlanib olingandan so'ng,o`qituvchi o`quvchilarga yangi mavzuni bayon qiladi. Yangi mavzu bauonidan so'ng, sinfdagi o`quvchilarni guruhlarga bo'lib olinadi.1-guruh Paxta tolasi 2-guruh Jun tolasi 3-guruh Ipak tolasi 4-guruh Zig’ir tolasi deb nomlab olamiz. So'ngra o`qituvchi guruhlarga mavzudan kelib chiqib guruh nomlarini yoritib berish topshirig'ini beradi. Bir guruh o`quvchilari javob berayotganda ikkinchi guruh o`quvchilari tinglab noto'g'ri jumlalarni

to'g'irlashga hamda kamchiliklarini to'g'irlash imkoniga ega bo'lishadi. Shu tarzda dars davom etadi. Guruh nomlarini yaxshi tariflay olgan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va darsda yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Ushbu metoddan darsda foydalanilsa, o'quvchilarni darsda faolligi oshadi va bir-birlari bilan raqobotlashadi. Raqobat bor joyda esa o'sish bo'ladi. Barcha bo'lajak o'qituvchilarga shu metotdan foydalanishlarini tavsiya etaman. Tikuvchilik materialshunoslikgi bilan bog'liq, ularda tolalarni, iplarni va gazlamalarini olinishi, xususiyatlari, ishlatilishi haqida ma'lumotlar berib boriladi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchlarning faolligini oshirish uchuun kichik guruxlarda ishlash usulining rolli o'yin ko'rinishini qo'llash mumkin. Bu usulni qo'llash uchun talabalarni to'rt guruxga bo'linadi. Bunda 1- guruh "Tolalar", 2- guruh "Iclar", 3- guruh "Gazlamalar", 4- guruh "Nazoratchilar" deb nomlanadi. Nomlanishidan ham ayon bo'ladiki, "Tolalar" guruhi a'zolari tabiatda qanday tolalar borligi, tarkibi, tuzilishi va ularning olinishi haqida; "Iclar" guruhi tola turlaridan iplarni olinishi turlari va ishlatilishi haqida ma'lumotlar berishadi; "Gazlamalar" guruhi esa to'quvchilik o'rilişlar, gazlama turlari va ularni ishlatilishi, gazlama qoldiqlaridan unimli foydalanish haqida ma'lumotlarni o'rganib, o'sha tolalar, iclar va gazlamalar timsoliga kirib gaprib berishadi. "Nazoratchilar" guruhi esa yuqoridağı ishlarga ball qo'yib boradilar.

Yana shunday usullardanbiri musobaqa usulini 5-sinfdag'i servis xizmati yo`nalishining gazlamalarga ishlov berish bo`limida ko`rib chiqamiz. Texnologiya fanida o'quvchilar to`la ravishda politexnik xarakterdag'i umummehnat tayyorgarligi olishlari hamda xalq xo`jaligining turli tarmoqlari to`g`risida tasavvurga ega bo`lishlari lozim. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta`lim berish uchun umumiyl bo`lgan quyidagi vazifalar hal etilishi lozim; o`qishga nisbatan ongli munosabat hosil qilish, fuqaro bo`lib etishish, shaxsning ma`naviy va intellectual kamol topishi, jismoniy rivojlanishi; mehnatsevarlik, mehnatga ehtiyoj, mehnat kishilariga hurmat; tejamkorlik, sifatli, ijtimoiy mulk hamda tabiatga nisbatan g`amxo'rlik bilan munosabatda bolish xislatlarini tarbiyalash; ijtimoiy foydali va unumli mehnatda ishtirok etish uchun

zarur bo`lgan mehnat malakalari va o`quvchilarda texnik, texnologik va boshlang`ich iqtisodiy bilimlar hosil qilish, fan asoslaridan olingan bilimlarni, mehnat faoliyatida qollay olishi. Bu vazifalarni ijobiy hal etishda mehnat ta`limi darslarida olib boriladigan amaliy mashg`ulotlar ham katta ta`sir ko`rsatadi. Umumta`lim maktablarida texnologiya ta`limi darslarining asosiy qismini amaliy mashg`ulotlar tashkil etadi. Amaliy mashg`ulotlarni tog`ri tashkil etish va olib borish, uning samaradorligini oshirish o`quvchilarning qobiliyati, konikma hamda malakalarini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda amaliy mashg`ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri bo`lib qolmoqda. Amaliy mashg`ulotlarni noan`anaviy tarizda olib borish o`qituvchidan qo`shimch mehnat talab etsada, dars samaradorligini va o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi. Biz taklif etmoqchi bo`lgan noan`anaviy dars usuli darsni musobaqa tarizda o`tkazishga asoslangan. Ma`lumki o`quvchilar orasida musobaqa sharoitini yaratish ulardagi intilish, qiziqish, talabchanlik, jamoa uchun jonkuyarlik singari sifatlarni namoyon etadi. Bu usulda darsni tashkil etishda servis xizmati yo`nalishining « Sarja (polotno) to`qish. Gazlamaning o`ng va teskari tomonlarini, bo`ylama va ko`ndalang iplarini aniqlash» mavzusi misolida ko`rib o`taylik. O`qituvchi darsni nazariy qismini o`tib bo`lgandan so`ng, o`quvcilarni 4-5 kishilik guruhlarga bo`ladi va sardor tayinlaydi. Har bir guruhga bittadan ish stoli ajratiladi. Guruh a`zolari qo`ra tashlash yo`li bilan nomerlanadi. O`qituvchi bajarilgan ish uchun beriladigan ballarni e`lon qiladi. Shundan so`ng o`quvchilar amaliy ishning bajarish tartibini yana bir bor o`rganib chiqishadi va o`qituvchining ro`xsati bilan o`quvchilar ishni bajarishga kirishishadi. 1-operasiya 1-nomerli o`quvchilar tomonidan, 2-operasiya 2-nomerli o`quvchilar tomonidan va hokazo tartibda bajariladi. 1-nomerli o`quvchilar 1-operasiyani batamom tugatganidan so`nggina 2-nomerli o`quvchilarga ishni boshlashga ro`xsat beriladi. Agar 1-o`quvchi 1-operasiyani bajara olmasa, uning o`rnini ikkinchi 2-o`quvchi egallaydi, lekin bunda bu guruhga jarima ball belgilanadi. Ishni 1-bo`lib bajargan guruhga yuqori ball beriladi. Shu tariqa qolgan guruhlar ham baholanadi. Ish davomida

guruh, a`zolari tomonidan to`plangan ballar ularning bajargan ishlari sifati va hajmiga ko`ra guruh sardorlari tomonidan taqsimlanadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, o`quvchilarni guruhlarga bo`lishda ularni bilimi va mehnat malakalarini yaqin bo`lishiga e`tibor berish kerak. Bunday guruhlarning o`quv yili davomida doimiy faoliyat ko`rsatib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bunda o`quvchilar guruhlarda kichik-kichik jamoa bo`lib ishlash orqali berilgan topshiriqlarni o`z vaqtida sifatli bajarishga o`rganadilar, ayrim ish usullarini bajarishga qiynalib qolgan o`rtoqlariga yordam beradilar. Shu orqali o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash, o`zaro yordam ko`satisf xislatlari tarkib topadi, ularda mehnat malakalari yanada mustahkamlanadi. Bu esa o`quvchilarning kelgusida mustaqil va ijobjiy ishlashiga asos bo`ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodini darslarda olib borish jarayonida quyidagi yutuqlarga erishiladi;

- 1) o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash, bir-biriga yordam ko`satisf va nazorat qilish xislatlari shakillanadi;
- 2) musobaqa sharoiti yaratilganligi sababli o`quvchilarning qiziqishlari, talabchanliklari va intiluvchanliklari ortadi;
- 3) dars davomida barcha o`quvchilarni baholash mumkin;

Bunday usullardandan foydalanish darsda yaxshi natijalar beradi. O`quvchilar darsni yaxshi tushunadilar va ularning nutqi o'sadi. Bunday usulda dars o'tish o`quvchilarda darsga qiziqish uyg'otadi. O'qitish metodlarini ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Q.M. Abdullaeva, M.A. Maksumova, M.Raximjonova «Gazlamaga badiiy ishlov berish» - T.,2006y.
2. Bulatov S.S. Uzbek xalk amaliy-bezak san'ati. O'uv uslubiy qo'llanma. T. 1991y
3. Qosimov.K. Naqqoshlik. T. «O'qituvchi» 1992y
4. T.I. Yeryomenko «Sexrli igna»T. «O'qituvchi»,1990.

O'ZBEKISTON YOSHLARIDA IQTISODIY BILIMLAR ASOSIDA  
TADBIRKORLIK MADANIYATINI YUZAGA KELTIRISH

*Toshkent viloyati, Toshkent tumani, 6-umumiy o'rta ta'limgakani, Tadbirkorlik fani o'qituvchisi  
Qambarova Umida*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlarni kichik biznes, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid davlat siyosati samarali tarzda amalga oshirib kelinayotganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** tadbirkorlik, biznes, yuksak intellect, ma'naviy salohiyat, xususiy tadbirkorlik, g'oya, yosh avlod tarbiyasi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb biz yoshlarga yuksak ishonch bildirdi. Bu esa bizga yanada yuksak majburiyatlar yuklaydi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, hamda huquqiy tarbiya berish, shaxsning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib Mirziyoyev. Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq "O'zbekiston" NMIU olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi. Demokratik jamiyat qurish jarayonida mamlakatda tinchlik va xotirjamlikni xukmron bo'lishi jamiyat va davlatni boshqarishda qonun

ustuvorligiga erishilganligi, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini tashkil etayotgan yoshlari kelajagimizning buniyodkorlari bo'lib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha: "Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir". Darhaqiqat, mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini tanlab, farzand tarbiyasi bilan bir qatorda hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan yoshlari soni tobora ortib bormoqda. 2018 yil Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili", 2019 yilni - "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", 2020 yilni esa - "Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" - deb atalishining zaminida ham "tadbirkorlik,raqamli iqtisodiyot, innovatsion g'oyalar, texnologiyalarni rivojlantirish, xalq baxt-saodati va farovon turmushini ta'minlash yo'lida mamlakatga xorijiy investitsiyalar olib kirish" masalalari yotganini va doim davlatimizning diqqat markazida bo'lib kelayotganini ko'rish mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik biznes iqtisodiyotning tanasi bo'lsa, kichik va o'rta tadbirkorlik uning qon tomirlari, demakdir. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar samarasi o'laroq, iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariiga erishilayotgani hamda pirovardida xalqimiz turmush farovonligi tobora yuksalib borayotganligini fahr bilan tilga olsak arziydi. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim masalalaridan biri bo'lgan bandlik muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Hunarmandchilik, kichik va xususiy tadbirkorlik taraqqiy etishi hisobiga yakka tartibda ish bilan band bo'lganlar soni ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tobora ortishi barobarida, aholi bandligi izchil ta'minlanmoqda. Ayni paytda hozir ish bilan band aholining 78% i aynan shu sohada mehnat qilayapti. Bu natijalar o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Sohaning mustahkam huquqiy asosi yaratilgani va tobora takomillashtirilayotgani tahsinga sazovordir. Ayni paytda

xususiy mulkdorlar huquqi himoyasini kuchaytirish bo'yicha qabul qilingan dasturning ahamiyatini aytib o'tib, unda tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish 2 Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunida ta'riflanishicha «Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) - yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy ma'suliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir». Tadbirkor ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot istiqbollarini o'zi shaxsan belgilaydi. Bunday vazifani bekamu ko'st amalga oshirish undan barcha holatda yuqori malakali qobiliyat va faol tashabbus ko'rsatishni talab qiladi. "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan xollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin"- deb ko'rsatilgan. SHunga ko'ra tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, xo'jalik sub'yektlari faoliyati qonun bilan himoya qilinadi. Konstitutsiyada belgilab qo'yaniga qaramay noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslar uchrab turibdi, hozirda ularni davlat ro'yhatidan o'tkazish va qonuniy asosda mazkur faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar, ya'ni profilaktik tadbirlar olib borilmoqda. Korrupsiya barcha ijtimoiy institut va mexanizmlarning izchil faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi,fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib keladi.Ayni chog'da fuqarolarda demokratik institut va qadriyatlar adolatga bo'lgan ishonchni susaytirib, amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan salbiy munosabat

va davlat hokimiyatiga ishonchsizlik kayfiyati tug'ilishiga sharoit yaratadi. SHunday ekan bunga panja orasidan qarash hech bir jihatdan o'zini oqlamaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, yoshlarining tadbirkorlik faoliyatini faollashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- birinchidan, yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularda axloqiy va mehnat ta'limini tadbirkorlik bilan bog'lashga o'rgatish zarur;

- ikkinchidan, yoshlarning tabiatni ham uning ma'naviy-axloqiy yuksalish darajasini ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik bevosita kishilar ehtiyojiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning rivojlanishiga intilishi tadbirkorlikda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodiy holatning qay darajada rivojlanganligi tadbirkorlar tashabbuslariga ham bog'liq bo'ladi;

- uchinchidan, iqtisodiy tarbiya bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib yoshlarda iqtisodiy bilimlar asosida tadbirkorlik madaniyati yuzaga keladi. Aholi tarkibida tadbirkor yoshlarning ko'payishi jamiyat rivojini va iqtisodiy taraqqiyotni nihoyatda kuchaytiradi.

Yoshlarimizning Vatan ravnaqi, yurt farovonligi uchun amalga oshirayotgan ezgu ishlari, har bir inson, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, shaxsiy manfaatlarini xalq va Vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi. Yuqoridagi mezonlar asosida esa pedagoglar bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini, barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borishi taqozo etiladi. Shunday qilib, O'zbekistonda yoshlarni kichik biznes, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid davlat siyosati samarali tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston,2014 y
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni.Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida.
3. Karimov I.A."Tadbirkorlar va ishbilarmonlar ijtimoiy qatlami O'zbekiston siyosiy maydonida o'z o'rmini egallashi lozim" T."O'zbekiston", 2003 y.
4. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. // Xalq so'zi, 2012, 8 dekabr.
5. Mirziyoyev SH.M. "Tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2017 yil 1 fevral kuni matbuotda e'lon qilingan
6. Макконнелл К., Брю С. Экономика. Принципы, проблемы и политика.-М.: Республика, 1992, с.38.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA  
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA  
ULARDAN FOYDALISH TARAQQIYOT POYDEVORIDIR. SURXONDARYO  
VILOYATI**

---

*Jarqo'rg'on tumani, 39-son "Majnuntol"  
maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachisi,*

*Chariyeva Saodat Mamarasulovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda bolalarni maktabgacha ta'lism tashkilotida tabiyalash, maktab ta'limga tayyorlash jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolaning aqliy qobiliyatini, xotira va diqqatini rivojlantirishda o'rni va afzallikkari yoritib berilgan.

**Kalit so'lar:** Axborot, kommunikatsiya, intelektual, metodika, innovatsiya, texnologiya, individual, interaktiv.

### **KIRISH**

Maktabgacha ta'lism sohasi uzlusiz ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lishi bilan birga keyingi ta'lim tizimida, bolani maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda intelektual salohiyatni

ro'yobga chiqarish va ularni har tamonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkishdavlatimiz siyosatini ustivor yo'nalaishiga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi. Xalqimizning boy madaniyati, rivojlanayotgan iqtisodiyoti, fan texnika va texnologiya sohasida erishilgan yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllnatirish, Vatanimiz rivojlanish taraqqiyotining muhim shartidir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev bu tizimni chuqr tahlil qilib, shu paytgacha nazardan chetda bo'lgan eng kichik jihatlarigacha e'tibor qaratdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lism tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish bilan

birgalikda ta'lim tashkilotida tarbiyalonayotgan farzandlarimizni har tomonlama yetuk, komil qilib tarbiyalsh dolzarb masalaligicha qolayotganligi aniqlandi.

Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimini yanada takomillshtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, Maktabgacha ta'lim tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagoglar bilan ta'minlash bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tamonlama intelektual, axloqiy estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabrdagi 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ 2707 sonli hamda 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-soni, 2018 yil 30 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-soni kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjatlari yaratildi. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'yingki, hayotimizning barcha jarayonlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz (AKT) tasavvur qilish murakkab bo'lib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lган qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Shuningdek Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lган qiziqishlarini sezilarli darajada oshirish mumkin. Haqiqiy narsalar yoki hodisalarning rang harakat va tovushda qayta yaratishga imkon beradi. Ularning qobiliyatlarini kengroq ochishga yordam beradi va aqliy faoliyatini kuchaytirib boradi. Kompyuterning bir vaqtning o'zida matn, grafik tasvir, ovoz, nutq, videorolik, esdalik va jurnali ma'lumotlarini katta tezlikda takrorlash qobiliyati mutaxassislar uchun bolalar uchun barcha mavjud o'yinlar va o'yinchoqlardan tubdan farq qiluvchi yangi faoliyat vositalarini yaratishga imkon beradi. Bularning barchasi maktabgacha ta'limning

sifat jihatidan yangi talablari - hayot davomida ta'limning birinchi bo'lagi bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri boyitilgan bolaning rivojlanish salohiyati. Shuning uchun, axborot texnologiyalarini maktabgacha ta'lim va ta'lim tizimiga joriy etish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot texnologiyalaridan foydalanish va joriy etishning asosiy shartlaridan biri shundaki, tarbiyachi bolalarga kompyuterning texnik imkoniyatlarini biladigan, ular bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, kompyuterdan foydalanish qoidalariga aniq rioya qiladigan va maktabgacha yoshdagi bolalarni yangi axborot texnologiyalarini qanday tushintirishni biladigan mutaxassislardan bo'lishi kerak. Shuni hisobga olib bugungi kunning talabi har bir tarbiyachi, har bir pedagog, mashg'ulotlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarni darslarni sifat jihatidan yangi bosqichiga tayyorlash va o'tkazish uchun dasturiy ta'lim tizimlari, internet global kompyuter tarmog'i resurslari bilan ishlashni taqazo etmog'i darkor. Bugungi kunda har qanday maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi AKTdan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazishi kerak. AKTdan foydalangan dars ko'rgazmali, rang-barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, tarbiyachi va bolalarning vaqtini tejaydi, tarbiyachiga bolalar bilan har xil va individual ravishda ishlashga imkon beradi, o'quv natijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni kompyuterlashtirish samaradorligi, ishlatilayotgan vositalarining sifati va ularni o'quv jarayonida, mashg'ulotlarida oqilona va mohirona ishlatilish qobiliyatga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborotlashtirish tarbiyachi pedagogga o'quv jarayonining innovatsion g'oyalarini amalga oshirishga qaratilgan yangi uslubiy ishlanmalarini amalga oshirishga qaratilan yangi uslubiy ishlanmalarini pedagogik amaliyotga keng joriy etish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan: Bolalarni kompyuterli ta'limiy o'yinlar orqali ham bilim berish mumkin."Kim birinchi topadi ?" o'yinida ekranidagi turli tartibda joylashtirilgan rangli tasvirdagi sonlardan qaysi biri katta, qaysi biri kichikligini aniqlash, shuningdek rasmlardan keraklisini topish kabi topshiriqlar bajariladi. Bunda Maktabgacha ta'lim tashkilotida multimedia vositalari, ovozli, musiqa

harakatlanuvchi jozibali bo'lishi shart, anashundagina ta'lim- tarbiya jarayonida samarali foydalanishga va ta'lim sifatini yuksak darajaga ko'tarishga hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Har qanday bola jamiyatda o'z o'rnini topishi, mamlakatimiz ravnaqi uchun komil inson qilib voyaga yetkazish, haqida qayg'urish har bir pedagog tarbiyachining axloqiy va ijtimoiy burchidir. hozirgi kunda Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktab ta'limiga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim -tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozosidir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatlarni yanada o'stirish, bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyachi mashg'ulotlarda, dasturlardan, ekektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalanish tarbiyalanuvchi o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatiladi, bolalarning harakteri kengroq ochiladi, kuzatuvchanlik, xotira diqqat kuchayadi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son qarori.
2. R.R.Boqiyev, R.Yu. Mehmonov, D.K.Xusniddinova Bolalar bog'chasida kompyuter savodxonligi
3. Abduqodirov A.A, Begmatova N.N Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma).

ИНВЕСТИЦИОН ШАРТНОМАЛАР ҲАР ДОИМ ФОЙДАЛИ(МИ?).  
ТАНГАНИНГ ИККИНЧИ ТОМОНИ

*Термиз шаҳридаги Президент мактаби ўқув  
ишлари бўйича директор ўринбосари  
Бегамов Мухриддин Камолиддин ўғли*

**Аннотация:** Халқаро савдо ва инвестиция шартномалари одатда томонларнинг стратегик узоқ муддатли режаларига эришиш учун хизмат қилсада, танганинг бошқа томони сифатида улар қашшоқлик, тенгсизлик ва атроф-муҳитнинг ифлосланиши каби глобал соғлиқ учун салбий оқибатларга олиб келиши ҳам мумкин. Ушбу мақолада саломатлик ва умумий фаровонлик мақсадларига эришиш учун инвестиция муносабатларини тартибга солиш контекстида халқаро ҳуқуқнинг келажақдаги ривожланиш тамойиллари ва стратегиялари таклиф этилади.

**Калит сўзлар:** ТИА, ЖСТ, ЖССТ, FTA, интеллектуал мулк ҳуқуки, аҳоли саломатлиги, юқумли ва юқумли бўлмаган касалликлар, халқаро ҳуқуқ.

Маълумки, халқаро савдо ва сармоявий битимлар мамлакат фаровонлигига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин, бироқ айни пайтда унинг нотўғри имплементацияси қашшоқлик, тенгсизлик ва атроф-муҳитнинг ифлосланиши каби глобал ривожланишга таъсир қилувчи салбий оқибатларга олиб келишини ҳам унутмаслик зарур. Ушбу мақолада халқаро ҳуқуқнинг кенг қамровли истиқболли тамойиллари ва стратегияларини ишлаб чиқиш орқали мамлакатларнинг умумий фаровонлиги ва барқарорлигини ошириш бўйича таклифлар келтирилган.

Халқаро савдо ҳуқуқи товарлар ва хизматларни сотишини тартибга солади, инвестиция ҳуқуқи асосан активларни (капитални) қамраб олади ва интеллектуал мулк ҳуқуқи, интеллектуал мулк турлари ва уларнинг муаллифлик ҳимояси ҳамда муддатлари ҳақидаги қоидаларни ўз ичига олади.

Бу соҳаларда бир қанча савдо ва инвестиция шартномалари (*International trade and investment agreements - TIAs*), жумладан, Жаҳон Савдо Ташкилоти (ЖСТ) томонидан бошқариладиган қўп томонлама шартномалар ва ЖСТдан ташқари бошқа икки томонлама ва минтақавий келишувлар (*Free Trade Agreements - эркин савдо битимлари*) мавжуд.

Савдо ва инвестиция шартномаларининг қатор ижобий ва салбий оқибатлари мавжуд. Масалан, молиявий инвестициялар қашшоқлик ва тенгсизлик каби ахоли саломатлигининг юқори даражадаги детерминантларига чуқур таъсир кўрсатади. Шунингдек, мамлакатлар ўртасидаги ва мамлакат ичидаги тенгсизликни кучайтириши мумкин, масалан, бадавлатлар янада бойиши, камбағал қатламнинг янада қашшоқлашиши. Аниқроқ айтганда, турли хил инвестиция шартномаларининг вужудга келишида унинг давлат бюджетига, давлат бошқарувига, оммавий фаровонлик йўлидаги мақсадлар, давлатнинг ривожланиш стратегиясига ҳамда юқумли ва юқумли бўлмаган касалликларга нисбатан турли даражада таъсир кўрсатади.

**Давлат бюджети.** Халқаро инвестиция шартномалари божлар ва савдо тарифларини пасайтириш натижасида давлат бюджетига, айниқса ривожланаётган мамлакатларга таъсир қилиши мумкин.<sup>1</sup>

**Бошқарув сиёсати.** Халқаро инвестиция шартномалари муайян тийилиш усуллари орқали давлатнинг белгиланган сиёсий режаларини амалга оширишга таъсир қилиши мумкин. Яъни, бунда давлатнинг сиёсий танловлари чекланади ва носоғлом сиёсатга олиб келадиган контекстлар вужудга келади.<sup>2</sup>

**Оммавий фаровонлик йўлидаги мақсадлар.** Халқаро шартномалар баъзи ҳолларда ижтимоий, соғлиқни сақлаш, инсон ҳуқуқлари ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш каби умумий фаровонлик стратегияларига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Умуман олганда, савдо ва инвестицияларни либераллаштириш маълум даражада иқтисодий ва ижтимоий сиёсат, бандлик

---

<sup>1</sup> Labonte R, Mohindra KS, Lencucha R. Framing international trade and chronic disease. Glob Health. 2011;7:21. <https://doi.org/10.1186/1744-8603-7-21>.

<sup>2</sup> Schram A, Ruckert A, VanDuzer JA, et al. A conceptual framework for investigating the impacts of international trade and investment agreements on noncommunicable disease risk factors. Health Policy Plan. 2018;33(1):123–36. <https://doi.org/10.1093/heapol/czx133>.

ва меҳнат шароитлари,<sup>3</sup> халқаро ва ички меҳнат бозорлари, иш ўринлари яратиш, иш ҳақи ва меҳнат стандартларига таъсир қилиши мумкин. Шу билан бирга, ерга эгалик қилиш,<sup>4</sup> қишлоқ хўжалиги,<sup>5</sup> маданий анъаналар, хусусийлаштириш, соғлиқни сақлаш, давлат харидлари,<sup>6</sup> аёллар ва маҳаллий халқларнинг ҳуқуқлари<sup>7</sup> каби соҳаларни ҳам четлаб ўтмайди.

**Ривожланаётган мамлакатлар.** TIA келишувлари одатда ушбу мамлакатларга чуқурроқ таъсир кўрсатади. Даромад ва бойликни глобал тақсимлашдаги тенгиззиклар жуда қўп сабабларга эга бўлсада, улар “жуда жиоддий хатоларни ўз ичига олган тарихий жараён”дан келиб чиқади.<sup>8</sup> Бунда шуни англашимиз мумкинки, глобал институционал тузилмаларнинг тобора зич ва таъсири тармоғи шу каби тенденцияларни яралишига олиб келиши мумкин.

**Касаллик детерминантлари.** Халқаро инвестиция шартномаларининг яна бир нозик томони шундаки, иқтисодий ўсиш императивлари ва ахоли саломатлиги ўртасидаги асосий кескинликлар юқумли ва юқумли бўлмаган касалликлар (*NCDs - communicable and noncommunicable diseases*) детерминантлари учун бевосита оқибатларга олиб келади. TIA келишувлари маҳсулотлар ва одамларнинг глобал тарқалиши (ҳаракати) орқали юқумли касалликларни осонлаштиради.<sup>9</sup> Мисол қилиб айтрадиган бўлсак, антибиотикларга чидамлилик билан боғлиқ муаммолар қисман савдога асосланган,<sup>10</sup> яъни интеллектуал мулк қонунчилиги терапевтик дори

---

<sup>3</sup> Friel S, Hattersley L, Townsend R. Trade policy and public health. *Annu Rev Public Health*. 2015;36:325–44.

<sup>4</sup> Thrasher R, Bevilacqua D, Capaldo J. Trade Agreements and the Land: Investment agreements and their potential impacts on land governance global development and environment: background paper no. 15-01. Metford ma: Tufts University: global development and environment institute, 2015. Accessed March 2, 2022. <http://ase.tufts.edu/gdae/pubs/wp/TradeAgreementsLand.pdf>

<sup>5</sup> Cotula L, Vermeulen S, Leonard R, et al. Land grab or development opportunity? Agricultural investment and international land deals in Africa. London & Rome: Food and Agriculture Organization, 2009. Accessed March 4, 2022. <http://www.fao.org/docrep/011/ak241e/ak241e00.htm>

<sup>6</sup> Shaffer ER, Waitzkin H, Brenner J, et al. Global trade and public health. *Am J Public Health*. 2005;95(1):23–34.

<sup>7</sup> Special Rapporteur of the Human Rights Council. United Nations a/70/301 general assembly. Geneva: UN human rights council 2015. Accessed March 22, 2022.

[http://www.un.org/ga/search/view\\_doc.asp?symbol=A%2F70%2F301&Submit=Search&Lang=E](http://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A%2F70%2F301&Submit=Search&Lang=E)

<sup>8</sup> Pogge T. The Health Impact Fund: how to make new medicines accessible to all. In: Benatar R, Solomon; Brock, Gillian, ed. Global health and global health ethics: Cambridge University Press, 2011:241–250.

<sup>9</sup> Lee K. Have microbes, will travel. *Lancet*. 2007;369(9568):1159–60.

<sup>10</sup> World Health Organization. Global Action Plan on Antimicrobial Resistance. Geneva: World Health Organization, 2015. Accessed March 12, 2022. [http://apps.who.int/iris/bitstream/10665/193736/1/9789241509763\\_eng.pdf](http://apps.who.int/iris/bitstream/10665/193736/1/9789241509763_eng.pdf).

воситаларининг арzonлиги ва мавжудлигига таъсир қилади.<sup>11</sup> Касаллик хавфи омилларини бартараф этишга қаратилган саъй-ҳаракатлар халқаро савдо шартномалари бўйича либераллаштирилган савдо режими туфайли тўсқинлик қилиши мумкин. ТИА’лар орқали истеъмолчилар учун арzon нархлар ва рақобатнинг кучайиши муқаррар равишда истеъмолнинг кўпайиши туфайли заарли маҳсулотлар оқимига олиб келади. Умуман олганда, ТИАлар маълум касалликларнинг ривожланишига таъсир қилади, чунки улар истеъмолчиларга озиқ-овқат, тамаки ва алкогол каби маҳсулотларда “либерал танлов” муҳитини тақдим этади.

**Глобал бошқарув ва жараёнлар.** Халқаро инвестиция шартномалари доирасида соғлиқни сақлаш муаммоларини ҳал қилиш бўйича ҳамкорликдаги саъй-ҳаракатлар глобал бошқарув учун самарали тузилмалар ва жараёнларни ишлаб чиқиши талаб қилади. Амалдаги тартибларга ўзгартиришлар киритилиши лозим, чунки кўплаб йирик глобал ташкилотлар молиявий кўрсаткичлар ва иқтисодий ўсишни биринчи ўринга қўйишади, шу билан бирга соғлиқни сақлаш ва унинг детерминантларини ҳал қилиш бўйича ҳаракатлар эса унчалик тўғри мувофиқлаштирилмаган. Жаҳон Савдо Ташкилоти ва Жаҳон Банки каби ташкилотлар сўнгги 50 йил ичida Бирлашган Миллатлар Ташкилотига қараганда глобал бошқарувнинг кучли элементлари сифатида пайдо бўлганини кўриш мумкин. Бундай бошқарув сезиларли жиҳатлар ва даражаларга эга бўлиб, тобора мураккаблашиб бормоқда. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) фармацевтикандан фойдаланиш бўйича халқаро хукуқка сезиларли таъсир кўрсатган бўлсада, у халқаро инвестиция шартномаларини шакллантириш ёки амалга оширишда катта рол ўйнамади. ЖСТ қоидаларида аниқ кўрсатилганидек, ЖССТ ЖСТнинг низоларни ҳал қилиш тартиб-қоидаларига ўз таклифларини киритиши мумкин, аммо уни ўзгартириш хукуқига эга эмас.<sup>12</sup> Ушбу қоидаларда айтилишича, ЖСТ

---

<sup>11</sup> Gostin L. Global Health Law. Cambridge Mass: Harvard University Press; 2014.

<sup>12</sup> World Trade Organization. Understanding on rules and procedures governing the settlement of disputes: annex 2 of the WTO agreement. Geneva: World Trade Organization; 2017. Accessed March 11, 2022. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/dispu\\_e/dsu\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dsu_e.htm)

низоларни ҳал қилиш билан боғлиқ ҳар қандай манбадан маълумот олиши ёки эксперталар кўриб чиқиш панелларини ташкил қилиши мумкин.

**Халқаро инвестициявий шартномаларни ишлаб чиқиш жараёнлари тамойиллари.** Адолатли ва барқарор шартнома жараёнлари ташкил этишда эътибор қаратилиши керак бўлган муҳим асослар қуидагилардан иборат:

- Қашшоқлик даражаси юқори мамлакатлар ва аҳоли гурухларига алоҳида эътибор берилган ҳолда, TIA (*International trade and investment agreements*) сиёсатини ишлаб чиқиша мамлакатларнинг ва ушбу мамлакатлардаги фуқароларнинг самарали иштирокини қўллаб-куватлаш;
- Кўп томонламаликни қўллаб-куватлаш. Яъни, минтақавий шартномаларгагина эмас, балки қонунга асосланган тамойилларга, очиклик ва универсаллик меъёрларига содикликни ўз ичига олган ёндашув, глобал бошқарув тузилмалари, жараёнлари ва институтларига таяниш;
- TIA’ни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун шаффоф, адолатли, очик ва маслаҳат жараёнларини ташкил этиш;
- Шартномани ишлаб чиқиш жараёнида ТИАда кўриб чиқиш бандларини таъминлаш ва улардан самарали фойдаланиш зарурлигини тан олиш.

Бундан ташқари, халқаро ҳамжамият томонидан халқаро ҳуқуқ орқали халқаро корпорациялар устидан самарали назорат олиб борилиши ҳам келишувларнинг ижобий бажарилишида муҳим аҳамият касб этади. Юқоридагилардан келиб чиқсан ҳолда, халқаро инвестиция шартномаларини ишлаб чиқиш ва ратификация қилишда аҳолининг фикр-мулоҳазаларини хисобга олиш, аҳоли саломатлигига жиддий эътибор қаратиш энг муҳим жараён ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Labonte R, Mohindra KS, Lencucha R. Framing international trade and chronic disease. *Glob Health.* 2011;7:21. <https://doi.org/10.1186/1744-8603-7-21>.
2. Schram A, Ruckert A, VanDuzer JA, et al. A conceptual framework for investigating the impacts of international trade and investment agreements on noncommunicable disease risk factors. *Health Policy Plan.* 2018;33(1):123–36. <https://doi.org/10.1093/heapol/czx133>.
3. Friel S, Hattersley L, Townsend R. Trade policy and public health. *Annu Rev Public Health.* 2015;36:325–44.
4. Thrasher R, Bevilacqua D, Capaldo J. Trade Agreements and the Land: Investment agreements and their potential impacts on land governance global development and environment: background paper no. 15-01. Metford ma: Tufts University: global development and environment institute, 2015. Accessed March 2, 2022. <http://ase.tufts.edu/gdae/pubs/wp/TradeAgreementsLand.pdf>
5. Cotula L, Vermeulen S, Leonard R, et al. Land grab or development opportunity? Agricultural investment and international land deals in Africa. London & Rome: Food and Agriculture Organization, 2009. Accessed March 4, 2022. <http://www.fao.org/docrep/011/ak241e/ak241e00.htm>
6. Shaffer ER, Waitzkin H, Brenner J, et al. Global trade and public health. *Am J Public Health.* 2005;95(1):23–34.
7. Special Rapporteur of the Human Rights Council. United Nations a/70/301 general assembly. Geneva: UN human rights council 2015. Accessed March 22, 2022.  
[http://www.un.org/ga/search/view\\_doc.asp?symbol=A%2F70%2F301&Submit=Search&Lang=E](http://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A%2F70%2F301&Submit=Search&Lang=E)
8. Pogge T. The Health Impact Fund: how to make new medicines accessible to all. In: Benatar R, Solomon; Brock, Gillian, ed. *Global health and global health ethics:* Cambridge University Press, 2011:241–250.
9. Lee K. Have microbes, will travel. *Lancet.* 2007;369(9568):1159–60.
10. World Health Organization. Global Action Plan on Antimicrobial Resistance. Geneva: World Health Organization, 2015. Accessed March 12, 2022. [http://apps.who.int/iris/bitstream/10665/193736/1/9789241509763\\_eng.pdf](http://apps.who.int/iris/bitstream/10665/193736/1/9789241509763_eng.pdf)
11. Gostin L. *Global Health Law.* Cambridge Mass: Harvard University Press; 2014.
12. World Trade Organization. Understanding on rules and procedures governing the settlement of disputes: annex 2 of the WTO agreement. Geneva: World Trade Organization; 2017. Accessed March 11, 2022. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/dispu\\_e/dsu\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dsu_e.htm)

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

| <b>№</b>  | <b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>  | <b>Page /<br/>Страница<br/>/ Sahifa</b> |
|-----------|---|---|
| <b>1</b>  | O'RTA SINF O'QUVCHILARINING MAZMUNGA ASOSLANGAN O'QITISH ORQALI INGIZ TILINI O'RGANISHGA UNDASH                           | <b>3</b>                                |
| <b>2</b>  | МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОХОЖДЕНИЯ ПРОТОНОВ С ЭНЕРГИЕЙ 60 МЭВ ЧЕРЕЗ ТКАНЕЭКВИВАЛЕНТНЫЕ МАТЕРИАЛЫ МЕТОДОМ МОНТЕ- КАРЛО              | <b>7</b>                                |
| <b>3</b>  | ISLOM DININING PAYDO BO'LISHI VA KEYING BOSQICHLAR.O'RTA OSIYODA ISLOM DININING YOYILISHI                                 | <b>17</b>                               |
| <b>4</b>  | YUQORI SINF O'QUVCHILARINING BOSH VAQTINI MAZMUNLI O'TIRISHNING TARBIYA MEXANIZMLARI                                      | <b>28</b>                               |
| <b>5</b>  | O`ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARIDA BADIY TARJIMANING O`RNI   | <b>33</b>                               |
| <b>6</b>  | РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ   | <b>38</b>                               |
| <b>7</b>  | ИТЕРАТИВНЫЙ АЛГОРИТМ ПОСТРОЕНИЯ ТРИАНГУЛЯЦИИ ДЕЛОНЕ   | <b>44</b>                               |
| <b>8</b>  | ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОНЛАЙН И ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ  | <b>49</b>                               |
| <b>9</b>  | DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB DARS O'TISH ISTIQBOLLARI  | <b>55</b>                               |
| <b>10</b> | РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ОРГАНИЗАЦИИ АВТОМАТИЗИРОВАННОГО ДОКУМЕНТООБОРОТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ                                | <b>58</b>                               |
| <b>11</b> | O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSATI   | <b>61</b>                               |
| <b>12</b> | IMPACT OF ANIMAL HUSBANDRY ON CULTURE AND RELIGIOUS RELATIONS IN ANCIENT NAKHSHAB   | <b>66</b>                               |
| <b>13</b> | BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'G'INNI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH                           | <b>71</b>                               |
| <b>14</b> | O'ZBEKİSTON KAVSH QAYTARUVCHI HAYVONLARI PARAZITI NEMATODIRUS RANSON, 1907 AVLODI NEMATODALARI SISTEMATIK TAHLILI         | <b>75</b>                               |
| <b>15</b> | UY HAYVONLARIDAGI NEMATODALARGA QARSHI ANTIGELMINTIK PREPARATLARNI SINASH   | <b>81</b>                               |
| <b>16</b> | EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION  | <b>86</b>                               |
| <b>17</b> | BLOKCHEYN, BLOKCHEYNDA TARMOQLAR XAVFSIZLIGI VA BLOKCHEYNDA MOLIYAVIY XIZMATLAR SEKTORI                                   | <b>93</b>                               |
| <b>18</b> | YOSHIMOTO BANANANING "OSHXONA" ASARIDA QO'LLANILGAN ӢӢ (iku) • ӮӮ (yuku) (BORMOQ) FE'LLARINING LEKSIK VA SEMANTIK TAHLILI | <b>102</b>                              |
| <b>19</b> | АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА  | <b>108</b>                              |
| <b>20</b> | МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ  | <b>116</b>                              |

|           |   |            |
|-----------|---|------------|
| <b>21</b> | ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ  | <b>124</b> |
| <b>22</b> | АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ   | <b>130</b> |
| <b>23</b> | АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ   | <b>137</b> |
| <b>24</b> | ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОННИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ  | <b>141</b> |
| <b>25</b> | АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ  | <b>147</b> |
| <b>26</b> | THE DIFFERENCE BETWEEN THE THEORY OF CONCEPTUAL METAPHOR AND CONCEPTUAL INTEGRATION   | <b>154</b> |
| <b>27</b> | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI  | <b>158</b> |
| <b>28</b> | INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI   | <b>163</b> |
| <b>29</b> | O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH   | <b>167</b> |
| <b>30</b> | BUXORO SHARQ DURDONASI  | <b>171</b> |
| <b>31</b> | POLIMERLARNING HAQIDA UMIY TUSHUNCHALAR   | <b>175</b> |
| <b>32</b> | ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНО-РАЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА   | <b>178</b> |
| <b>33</b> | FATVOLARDA MAVJUD TERMINLARNING SHAKLLANISH VA QO'LLANISH O'RINLARI   | <b>183</b> |
| <b>34</b> | MEVA-SABZAVOTLARNI SAQLASHDA VA QAYTA ISHLASHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI  | <b>187</b> |
| <b>35</b> | ТОШКЕНТДАГИ УККОША МАСЖИДИННИНГ МЕЪМОРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ҚУРИЛИШ ТАРИХИ  | <b>191</b> |
| <b>36</b> | ADOLATLI BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ISLOM KARIMOV MA'NAVIY MEROSINING O'RNI   | <b>199</b> |
| <b>37</b> | KICHIK GURUHLARDA ISHLASH METODINI QO'LLASH ORQALI TABIIY TOLALARNI O'RGANISH   | <b>204</b> |
| <b>38</b> | O'ZBEKISTON YOSHLARIDA IQTISODIY BILIMLAR ASOSIDA TADBIRKORLIK MADANIYATINI YUZAGA KELTIRISH  | <b>208</b> |
| <b>39</b> | МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA ULARDAN FOYDALISH TARAQQIYOT POYDEVORIDIR. SURXONDARYO VILOYATI | <b>213</b> |
| <b>40</b> | ИНВЕСТИЦИОН ШАРТНОМАЛАР ҲАР ДОИМ ФОЙДАЛИ(МИ?). ТАНГАНИНГ ИККИНЧИ ТОМОНИ   | <b>217</b> |



**JOURNAL OF  
NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

